



OSIYO XALQARO
UNIVERSITETI



OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal

2024, №2

EDITION 2

<https://scientificjournal.uz/>



Osiyo Xalqaro
Universiteti

“OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024-yil, 2-son

Jurnal 2024-yildan chiqa boshlangan

BUXORO - 2024

Muassis: OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2024-yil 04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.



Bosh muharrir:

Elov Ziyodullo Sattorovich, Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Jamoatchilik kengashi raisi:

Dexkanov Suxrob Sobirovich, Osiyo xalqaro universiteti rektori

Mas'ul kotib:

Sattorov Mirshod Erkinovich

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 2 oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz
tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi,

Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy,

E-mail: sjkamolot@gmail.com

Jurnal sayti: <https://scientificjournal.uz/>

ISSN
ISSN-3030-3796



Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.



TAHRIR HAY'ATI – РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

DEXKANOV S.S.	Osiyo xalqaro universiteti rektori
ABDULLAYEVA B.S.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
MAKSIMENKO S.D.	Psixologiya fanlari doktori, professor, (Ukraina fanlar akademiyasi, Kiyev)
QODIROV U.D.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
URAZBAYEVA D.A.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
KARSHIYEVA D.A.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
JABBOROV X.X.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
GANJIYEV F.F.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
JUMAYEV U.S.	Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
CHUDAKOVA V.P.	Psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina fanlar akademiyasi, Kiyev)
OLIMOV L.Y.	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
BAFAYEV M.M.	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
YANAKIYEVA YE.K.	Pedagogika fanlari doktori, professor (N.Rilski nomidagi Janubiy G'arbiy Universitet, Bolgariya)
ROMM T.A.	Pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat universiteti, Rossiya)
OLIMOV Sh.Sh.	Pedagogika fanlari doktori, professor
HAMROYEV A.R.	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
JO'RAYEV X.O.	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
IZBULLAYEVA G.V.	Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
KOZUBSOV I.N.	Pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)
DAVRONOVA Sh.F.	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
KAMILOVA U.K.	Tibbiyot fanlari doktori, professor
IBODULLAYEV Z.R.	Tibbiyot fanlari doktori, professor
SALIMOV Sh.T.	Tibbiyot fanlari doktori, professor
IXTIYAROVA G.A.	Tibbiyot fanlari doktori, professor
BABADJANOV A.X.	Tibbiyot fanlari doktori, professor
YUSUPBEKOV A.A.	Tibbiyot fanlari doktori, professor
YUSUPALIYEVA G.A.	Tibbiyot fanlari doktori, professor
BERNATSKIY G.G.	Yuridik fanlari doktori, professor (A.S.Karmin nomidagi Santk Peterburg universiteti)
KARIMOV B.Sh.	Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
MUSTAFA SAID ARSLON.	Filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
O'RAYEVA D.S.	Filologiya fanlari doktori, professor
TO'XSANOV Q.R.	Filologiya fanlari doktori, professor
QILICHEV B.E.	Filologiya fanlari doktori, professor
RO'ZIYEVA M.YO.	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
TILEUKULOV G.S.	Tarix fanlari doktori, dotsent (M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti)
VOHIDOV Sh.X.	Tarix fanlari doktori, professor (Tojikiston davlat pedagogika instituti, Penjikent)
HAYITOV Sh.A.	Tarix fanlari doktori, professor
TO'RAYEV H.H.	Tarix fanlari doktori, professor
QILICHOV O.A.	Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
ORZIYEV M.Z.	Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
ERGASHEV J.Yu.	Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
SHODIYEVA Sh.S.	Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
ABDURAHMONOV M.A.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston davlat universiteti)
NAVRUZZODA B.N.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
MAHMUDOV N.M.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
BO'TABOYEV M.T.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
QODIROV A.A.	Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
URAYEV G.A.	Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (A.S.Karmin nomidagi Santk Peterburg universiteti)
NAVRUZZODA L.B.	Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mundarija

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Haitov Shadmon Axmadovich, Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston chegara postlarida xizmat qilgan rus harbiylarining ahvoli xususida (D.N. Logofet ma'lumotlari asosida)	7
Orziyev Maxmud Zayniyevich, Kucharov Jamshid Qulnazarovich. Ikkinchi jahon urushi va Afg'onistonda fashist davlatlarining ayg'oqchilik faoliyati tarixidan	15
Yuldoshev Akmal Baxtiyorovich. O'zbeklarning migratsion, demografik va transformatsion jarayonlardagi ishtiroki tarixi. (Tojikiston o'zbeklari misolida)	27
Иззатулло Шоев. Система государственного управления Туркестанского генерал-губернаторства во второй половине XIX – начале XX вв	43
Umidjon Baqoyev Ashtarxoniylar sulolasi va Usmoniylar imperiyasi diplomatik aloqalarining tarixiy adabiyotlarda yoritilishi	53
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
Rashidov Mels Karimovich. Toshimov Shahzodjon Burxon o'g'li Mamlakatimizdagi investitsion muhitni baholash usullari va tahlili	66
Qodirov Hasan Do'stqobilovich Soliq risklarini boshqarishning milliy va xalqaro tajribasi	73
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Rahimov Muzaffar Muradovich The conception of "Road" and its importance in literature	82
Ашуров Зафаржон. Влияние информационных технологий на различные аспекты речевой деятельности студентов, изучающих иностранный язык	87
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Самиев Асрориддин Сайфиддинович Имом ал-Бухорийнинг мухаддислик фаолияти ва илмий-меросига эътирофлар.	95
Olimov Temur Hasanovich Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. (Pedagogika-psixologiya tadqiqoti misolida)	104
Uzoqov Asliddin Mexriddinovich Sharq mutafakkirlari asarlari asosida talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning ahamiyati	114
13.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Saidov Azamat Ismoilovich., Axmedov Anvar Diyor o'g'li Yoshlar ongida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari	124
Arzikulov Dilshod Ne'matovich Jismoniy tarbiya va sport faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy psixologik omillari	133



Ganjiyev Feruz Furqatovich Ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillari shakllanishining nazariy-amaliy asoslari	142
Payziyeva Masturaxon Negmatullayevna Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik asoslari	155
Kozimova Nigora Abduqahorovna XXI asrda shaxslararo munosabatlarda yuz beruvchi hissiy-emotsional zo'riqishlarni psixologik aspektlarini o'rganish va korreksion usullari	168
Allakov Ilhom Okmurodovich O'smirlarda ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida kichik referant guruhlarining o'rni	176
Najmidinova Guzal Axlitdinovna Kamil inson – ijtimoiy-psixologik jarayonning o'ziga xos natijasi sifatida	186



07.00.00 – TARIX FANLARI



**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA
TURKISTON CHEGARA POSTLARIDA XIZMAT
QILGAN RUS HARBIYLARINING AHVOLI
XUSUSIDA (D.N. Logofet ma'lumotlari asosida)**



Haitov Shadmon Axmadovich
Buxoro davlat universiteti, Buxoro



Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li
Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada sharqshunos, Rossiya imperiyasi polkovniki D.N. Logofet asarlari orqali Turkiston chegara postlarida xizmat qilgan rus harbiylarining moddiy-maishiy turmushi, ijtimoiy-ruhiy holati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

MAQSAD: XIX ars oxirlari – XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, shuningdek, rus harbiylari va aholisining o'sha davrdagi yashash sharoitini o'rganish va tadqiq qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Turli tarixiy adabiyotlar va shuningdek, Rossiya imperiyasi polkovniki D.N. Logofet asarlari asosiy materiallarni tashkil etadi. Mazvuni xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, tarixiylik usullaridan foydalangan holda yoritdik.

XULOSA: D.N. Logofetning asarlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda Rossiya-Eron, Rossiya-Afg'oniston, Buxoro-Afg'oniston chegara va bojxona postlarida xizmat qilgan ko'p sonli rus harbiylarining ahvoli, muammolari, ijtimoiy-ruhiy holati, tarixiy taqdirlari, mahalliy aholi bilan munosabatlari haqida aniq tarixiy ma'lumotlar olish uchun muhim manbaviy asos bo'la oladi. Uning kitob va asarlarini atroflicha o'rganish orqali rus-o'zbek xalqlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarga oid aniq tarixiy dalillardan xabardor bo'lish kelajak uchun ham muhimdir.

Tayanch so'zlar: chegara, chegara posti, zobit, harbiy xizmatchi, ruhiy holat, maosh, kvartira haqi, stansiya, aroba yo'li, tog', dovon, chaqirim, mahalliy aholi, tibbiy xizmat, ambulyatoriya, rota, batal'on, vzvod, harbiylar qasamyodi.

О ПОЛОЖЕНИИ РОССИЙСКИХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ НА ПОГРАНИЧНЫХ ЗАСТАВАХ ТУРЦИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА

(По данным Д.Н. Логофета)

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье востоковед, полковник Российской империи через произведения Логофета Д.Н. выражались мнения о материальной и бытовой жизни, социальном и духовном состоянии русских воинов, служивших на пограничных заставах Туркестана.

ЦЕЛЬ: Изучение и исследование общественно-политической ситуации в Туркестане в конце XIX - начале XX века, а также условий жизни русских воинов и населения в то время.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: По данным различной исторической литературы и полковника Российской империи в работах Логофета Д.Н. используются основные материалы. Мы освещали тему, используя методы хронологической последовательности, сравнительного анализа и историчности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Д.Н. Логофета работы описывают ситуацию, проблемы, социально-психологическое состояние, исторические судьбы, местные события и могут быть важной ресурсной базой для получения точных исторических сведений об отношениях с населением. Важно и в будущем осознавать яркие исторические свидетельства дружественных отношений между русско-узбекскими народами посредством детального изучения его книг и произведений.

Ключевые слова: граница, пограничная застава, офицер, солдат, боевой дух, зарплата, арендная плата, станция, гужевой путь, гора, перевал, миля, местное население, медицинская служба, скорая помощь, рота, батальон, взвод, воинская присяга.

ON THE SITUATION OF RUSSIAN MILITARY SERVICED AT THE BORDER POSTS OF TURKEY AT THE END OF THE 19TH CENTURY - THE EARLY OF THE 20TH CENTURY

(Based on data OF D.N. Logofet)

Annotation.

INTRODUCTION: In this article, orientalist, colonel of the Russian Empire Through the works of D.N. Logofet, opinions were expressed about the material and household life, social and spiritual condition of the Russian soldiers who served at the border posts of Turkestan.

AIM: Study and research of the socio-political situation in Turkestan at the end of the 19th - beginning of the 20th century, as well as the living conditions of the Russian military and population at that time.

MATERIALS AND METHODS: According to various historical literature and the Russian Empire colonel D.N. Logofet works are the main materials. We covered the topic using the methods of chronological consistency, comparative analysis, and historicity.

CONCLUSION: D.N.Logofet's works describe the situation, problems, socio-psychological condition, historical destinies, local can be an important resource base for obtaining accurate historical information about relations with the population. It is also important for the future to be aware of the clear historical evidence of the friendly relations between the Russian-Uzbek peoples through a detailed study of his books and works.

Key words: border, border post, officer, soldier, morale, salary, rent, station, cart road, mountain, pass, mile, local population, medical service, ambulance, company, battalion, platoon, military oath.

Turkiston tarixini o'rganishda rus sharqshunos olimlari, sayyoh va elchilarining asarlari, xotiranoma va maqolalari muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonni Rossiya imperiyasi o'z ta'sir doirasiga olgandan so'ng, mintaqada turli sabablar orqali rus ziyolilari kirib kelishi keng tus oldi. Jumladan, shunday shaxslardan D.N. Logofet harbiy xizmatchi sifatida faoliyat yuritgan bo'lsada Turkiston va Buxoro tarixi haqida o'nlab asarlari yo'l xotira lavhalari, maqolalar yozib qoldirdi. Uning asarlarida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik buyuk davlatchilik siyosati ruhi barq urib tursada, ayrim masalalarda xolisonalik tamoyili asosida o'z fikrini bildirgani, voqeliklarga tanqidiy

tahlil asosida yondashganligi ko'zga tashlanadi. Turkiston mintaqasi hududlari bo'ylab uzoq masofalarga cho'zilib ketgan Buxoro, Afg'oniston, Rossiya-Afg'oniston, Rossiya-Eron chegaralarini qo'riqlash XIX asr oxiridan rus harbiylari zimmasiga yuklatilgandi. Buxoro-Afg'oniston chegarasida rus harbiy chegara postlari tashkil etilguncha, Buxoro amirligining Afg'onistondan 50-80 chaqirim masofada Ko'lobda 2 ta rotasi, Kalonxumda ham 2 ta rotasi, Baljuvonda 1 ta harbiy balyoni bo'lgan. 1100 (bir ming yuz) chaqirimlik Buxoro-Afg'oniston chegarasi bo'sh qo'riqlanib, umuman qo'riqlanmaydigan chegara chiziqlari mavjud edi. Bu davrda Afg'on armiyasining Fayzobod, Kishim, Badaxshod, Talaxon, Toshqo'rg'on, Xonobod, Zulfigar, Imon Saroy kabi chegara postlari bo'lgan. D.N. Logofetning qayd qilishicha, Afg'on armiyasi harbiylariga harbiy forma (kiyim) ham bo'lmay ular fuqaro yoxud militsiya kiyimida bo'lishgan[1].

Turkiston-Afg'oniston chegarasining masofasi 1500 chaqirim bo'lib, Turkiston general-gubernatorligi ushbu chegarani qo'riqlash uchun Turkiston harbiy okrugi soldat va zobitlari yetishmasligini imperiya markaziga bildirgandi.

Kaspiyorti viloyati orqali o'tgan Rossiya-Eron chegarasi ham uzoq masofalarga cho'zilgan bo'lib, chegara chiziqlarida o'nlab harbiy qo'riqlash postlari tashkil etilgandi. Bundan tashqari 1895-yildan boshlab chegara rayonlarida rus bojxona postlari tuzilib, birgina Buxoro-Afg'oniston o'rtasida Kerki, Kelif, Pattahisor, Cho'chqaguzar, Ayvach, Saroy, Chubek, Bog'orok bo'xonalari faoliyat yuritgan[2].

Turkistondagi harbiy garnizonlari (Pattahisor, Karki, Chorjo'y va h.k) hamda chegara postlarida xizmat qiluvchi harbiylar Rossiyaning Yevropa qismidagi armiya xizmatchilaridan 10 foiz ortiqcha maosh olgan. Chegaradagi kapitan unvonidagi xizmatchi Rossiya armiyasidagi kapitandan 1 yilga 180 rubl ko'p maosh olgan. Biroq, armiyadagi kapitanga bir yilda 300 rubldan 600 rublgacha kvartira haqqi to'langan holda Turkistondagi chegara xizmatchisiga 171 rubl kvartira haqi to'langan. Turkistonda iqlimiy sharoit og'ir, yoz o'ta issiq qish sovuq, moddiy-maishiy shart-sharoitlar past edi[3]. Belgilangan qoidaga ko'ra har 200-300 qadam masofaga 1 nafar chegarachi qo'yilgan, rus va afg'on chegarachilari o'zaro muloqotda bo'lmasligi uchun ular 300-400 qadam masofa oralig'ida joylashtirilgan. Chegara postlarini bir-biri bilan bog'lovchi yo'llar turli tarmoqlar orqali o'tib, tog'li hududlarda tor va jarlikdan iborat so'qmoqlardan faqat eshak, ot, xachir orqali yo'l bosish mumkin bo'lgan. Ayrim joylarda chegara postlari 30-40 chaqirim masofada joylashtirilgan. Stansiya va yo'llarni qurish uchun juda katta harakatni tashkil etib, 1900-yilga kelib Buxoro-Afg'oniston chegarasi bo'ylab tekislikdan o'tadigan aroba (kolesnitsa) yo'li qurilgan[4].

Ko'pgina chegara postlari aholi yashaydiga hududlardan o'ta olis masofalarda bo'lib, jumladan, Panj daryosi bo'ylab o'tgan chegara postlari Termiz pristanidan 800 chaqirim, eng yaqin temir yo'ldan 1200 chaqirim uzoqlikda joylashgan. Aholi markazlaridan uzoqda joylashgan chegara postlariga oziq-ovqat, zaruriy tovarlar o'z vaqtida yetkazilmagan, gazeta va jurnallar 2-3 oyda ham keltirilmagan, markazga kelib ketish uzoq, yilning oktabr-mart oylarida tog'lar qalin qor bilan qoplangan[5].

Buxoro – Afg'oniston chegarasi orqali o'tgan Xirmonjoy postiga yozda yashash imoniyati bo'lsada, qishida Divadar Bog' darasi va tog'ini qalin qor bosib, 2 oy o'tib qaytishning iloji bo'lmagan. D.N. Logofet qor qoplagan tog'cho'qqisidan 300 nafar mahalliy tojiklar bir birini zanjir va arqon bilan bog'lab dovondan mashaqqat bilan oshib o'tishadi. Ular ortga qaytishda o'zlari bilan pochta sumkasida gazeta va xatlarni olib kelishadi. Suvda ivib lattaga aylanib ketgan gazetalarni quritib o'qishadi va dunyodan xabardor bo'lishadi. Bunday chegara postlarida zobit va soldatlar pivo va vino ichib vaqt o'tkazishadi, karta va qimor o'ynash bilan mashg'ul bo'lishadi. Bufetda bir bakal pivo 30 kop. vino narxi o'zgarib turadi. Janjal va mushtlashuvlar odatga aylangan bir kun yilday o'tadi"[6] deb yozgan.

Zobitlardan biri D.N. Logofet bilan muloqotda: "Belgilangan harbiy qoidaga ko'ra bunday joylarda xizmat qilganlarni 1 yilda, ko'pi bilan 3 yilda almashtirish kerak. Biz bu yerda uzoq qolib ketdik, biz unutilganmiz, bizni shu yerda tiriklayin qabrga tiqqanlar, ko'p zobitlar sovuq va kasallikdan bevaqt o'lmoqda"[7] – kabi fikrlarni aytgan. Xirmonjoy posti singari Parvar, Iol, Shaugan, chegara postlarida ham ahvol og'ir bo'lib, mahalliy aholi bu yerda ibtidoiy dehqonchilik bilan shug'ullanib guruch, arpa, beda ekishgan. Biroq, ular yetishtirgan oziq-ovqat mahsulotlari ehtiyojini qondirmasdi, meva va sabzavotlar ham yetarli bo'lmagan, ular narx-navosi baland bo'lgan. D.N. Logofet aholi oqsoqol izmida bo'lib bunday kishilar uchun dunyo o'zlari yashab turgan qishloqdan iborakligi kishilar qishloqlaridan boshqa joyga chiqmasliklari, bir do'ppi tut bahosi 1 rubl ekanligini qayd etgan. Shuningdek, bolalarni o'qitish ham bitta tut daraxti soyasida maktab o'rnida foydalanilganligini guvohi bo'lgan[8]. Harbiylarning talablari bilan ayrim chegara postlariga ular bo'sh paytlarini mazmunli o'tkazish uchun fotoapparat, kasalxona asbob-uskunalar bilan bittadan vrach, Vena (Avstriya) va Moskvadan turli musiqa asboblari, orkestr keltirilgan.

Biroq, bu tadbirlar mavjud og'ir holatni o'nglay olmagan. D.N. Logofet: "Ko'lob-Fayzobod xayli xarob va aftoda bo'lganligi uchun yuk tashishi ahyon-ahyonda kuzatilgan. Harbiy garnizon joylashgan qishloq qalin tolzor va chinorlar bilan qurshab olingan. Bu yerdan Chitraliga – 200 chaqirim, 2 sumkalik yo'l, Indiragacha-450 chaqirim, 4 sumkalik yo'l, Iolda chinor ostida mahalliy aholi bolalari o'qitiladigan maktab tashkil etilgan. N ismli polkovnik bu postda 20 yil xizmat qilgan, u Ko'lobda ham 3 yil harbiy xizmatda bo'lib, ahvol chorak asrdan buyon o'zgarmaganligini so'zlab berdi[9].

D.N. Logofet chegara postlarida xizmat qilgan unter-zobitlar, oddiy harbiylar arab va fors tilini bilmasligi, arab imlosida yozilgan gazeta, jurnal, kitoblarni o'qiy olmasligini alohida ko'rsatib o'tgan. Ularga chegara postlaridan Turkiston tubjoy aholi talab va ehtiyojini hisobga olib, Qur'oni Karim, pand-nasihatga qaratilgan diniy kitoblarni bojsiz o'tkaziladigan qishloq xo'jalik tovarlari bilan to'siqsiz o'tkazib yuborish ko'rsatmasi berilgandi. Biroq, ruxsat etilgan kitoblar qatoriga Konstantinopol, Bayrut, Tabriz, Tehron, Qobul ("Siroj ul axbor afg'oniya"), Bombay, Kalkutta (Xabl-ul Matin fors tili)da nashr etilgan gazetalar ham qo'shib o'tkazilgan.

Aslida ushbu gazetalarni chegarada saqlab qolish yo'qotish senzura idorasi tomonidan qaror qilingandi. Biroq, Makka va Madina ziyoratchilari va kontrabanda yo'li bilan ushbu gazetalar Turkistonda keng tarqalgandi. D.N. Logofet bu o'rinda harbiylarning ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy saviyasi past bo'lganligi, suistemolliklarga yo'l qo'yganligiga e'tiborni qaratgan[10].

Sharqshunos olim Shaugan post chizig'ida 350 chaqirim masofa amalda qo'riqlanmay, otliq nazoratchilar (2-4 chegarachi) tomonidan ahyon-ahyonda o'tib qaytishini bayon qilar ekan, Kalai Xumb (Buxoro) – Xorog shahri posti orqali bo'sh qo'riqlangani tufayli nasha, taryol, choy, manifaktura tovarlari, ingliz-hind boshqa mollari afg'on hind savdogarlari, ingliz ayg'oqchi va komissarlarining tovarlari kontrabanda yo'li bilan bojsiz kiritilgan[11].

Chegara postlaridagi harbiy xizmat og'ir va mashaqqatli bo'lganli uchun chegarachi harbiylar orasida xizmat vazifasini tashlab qochuvchilar ham mavjud bo'lgan qochoqlar kavkazliklar, ayniqsa, arman millati vakillari orasida ko'proq ko'rsatilib, ular afg'on armiyasiga borib qo'shilganda nasroniylikdan chiqib musulmonlikni qabul qilishgan[12].

Chegara postlaridagi harbiylar bilan chegara hududlaridagi tubjoy aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ham D.N.Logofet tadqiqotlarida shaxsiy kuzatuvlari va muloqotlar materiallari asosida bayon qilingan. U harbiylar orasida tubjoy aholi tilini (o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq) biladigan va ular urf-odatlaridan xabardor bo'lgan zobit va chegarachilar oz sonli ekanligini qayd etadi. Biroq, tub joy aholi orasida, ayniqsa, turkman va qirg'iz (qozoq)larda, ular yoshlari orasida rus tiliga qiziqish kuchli ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Chegara postlarida, harbiy garnizonlar joylashgan hududlarda yashovchi tubjoy aholi tabiiy-iqlimiy sharoiti og'ir, shuningdek, moddiy-maishiy hayot qoloq, markaziy rayonlardan uzoqda, madaniy ta'sir jarayonlaridan chetda, ibtidoiy xo'jalik yuritish sharoitida yashayotganligi D.N. Logofet tomonidan asoslab berilgan. Bunday og'ir sharoitda umurguzaronlik qilish ehtiyoji ko'pgina chegara postlaridagi harbiylar bilan tubjoy aholi orasida hamdardlik, o'zaro inoqlik tendensiyalarini vujudga keltirgan. Ibtidoiy mehnat qurollari (ketmon, lapata, o'roq, omoch va h.k.)dan boshqa vositalarga ega bo'lmagan tubjoy aholi hayotiga va chorvasiga yo'lbars, sher, yovvoyi cho'chqa, ayiq kabilar xavf solgan. Bu kabi vaxshiy darrandalar yolg'iz o'rmon va dashtga chiqqan odamlarni, chorva mollaridan ot, qoramol, qo'ylarni yeb ketgan. Ayniqsa, qish faslida ular aholi yashaydigan qishloqlargacha kirib kelgan. Harbiylar tub joy aholini bu kabi hayvonlardan himoya qilishda o'z qurol-yarog'lari bilan yordamga kelgan. D.N. Logofet Panj daryosi yuqori oqimidan 2 ta zobit ming aholi va mollari joniga xavf solgan yo'lbarsni ovlash uchun jo'nab ketishgan. Ular 2 hafta davomida 10 ta yo'lbars ovlashgan. Zobitlar sher va yovvoyi cho'chqalar aholiga xavf solgani uchun ularni ovlashgan. Chegara qo'riqchi itlari bilan ovlangan yo'lbars terilari hajmiga qarab 25 rubldan – 50 rublgacha sotilgan[13].

Chegara hududlarida joylashgan Buxoro amirligi beklklarining beklari ham rus zobitlari bilan bu masalada yaxshi munosabat o'rnatib, aholi tinchligi va

osoyishtaligini ta'minlashda, hosilga tushgan chigirtkani bartaraf etishda ulardan madad olgan. Qo'rg'ontepa begi bilan bir guruh rus zobitlari mahalliy aholi kiyimini kiyib suratga tushishgan. Tubjoy aholi vakillari harbiylarga minnatdorlik ramzi sifatida rus xalatini kiygan[14].

Harbiylar orasida mahalliy aholi tili, tarixi, hayoti, huquqiy asoslarini biladiganlar oz bo'lsada bor edi. Shundaylardan "F" nomi bilan tatar millatiga mansub mahalliy aholi orasida obro'e'tibor qozonganligi D.N. Logofet tomonidan eslatib o'tilgan[15].

Bir o'rinda u: "Ayrim garnizon va postlarda rus general va polkovniklari faoliyati tufayli malliy aholi bilan yaqin munosabatlar o'rnatilgan. Tarjimon orqali tubjoy aholi bilan muloqot qilgan Fayziobod chegara posti boshlig'i "D" nomli polkovnikka ham minnatdorchilik bildirib: "Bizga yaxshi, samimiy mehribon polkovnik yuborganlari uchun minnatdormiz" – degan. Polkovnik ham bunday iliq fikrdan ta'sirlanib: "Bunday so'zlarni sizlardan eshitishni men uchun ham yoqimli"[16] – degan fikrni keltirgan.

Chegara harbiy qismlari zobit va chegarachilar sog'ligini saqlash uchun ambulatoriya hamda kasalxonalar ochilgan. Dala harbiy qismlariga vrach, tibbiy xodimlar yuborilib, ayrim paytlarda koykali kasalxonalar tashkil etilgan. Bunday kasalxonalarda tubjoy aholi vakillari ham davolanib, ular ko'p hollarda tekin davolangan yoxud dori uchun 15 kop. to'lagan[17].

Kaspiyorti viloyati Chikishlar orolida 1878-yilda omborxona va 200 koykali gospital qurilgan. Bu gospital 2 ta zobitlar rotasi, chegara o'tredi komandasi uchun qurilgan bo'lsada, unda tubjoy aholi vakillari ham davolangan. 1898-1899-yillarda Buxoro-Afg'oniston chegara postlarida ham shunday gospital, ambulatoriyalar qurilgan[18].

Kayno-Kasirda 1900-yilda Kaspiyorti harbiy brigadasi (Rossiya-Eron chegarasi) uchun 15 koykali malakali vrach bilan ta'minlangan klinik markaz qurilgan. Ushbu koykalarining 2 tasi zobitlar uchun, qolgani quyi unvonli harbiy chegarachilar uchun ajratilgan. Ushbu kasalxona ko'z og'rig'i, mollariya, oftob ta'sir etgan bemorlarni shuningdek, jarahatlanganlarni davolagan. Kasalxonada tubjoy aholiga ham tibbiy xizmat ko'rsatilgan. Kasalxona binosining ichi yorug' kasalxonalar sayr etadigan keng koridorli, pol, eshik oynalari yarqiragan, tartib-intizom yuqori darajada o'rnatilgan, bemorlar ko'k xalatlarida koykalarida o'tirib vrach ko'rigidan o'tgan, tibbiy maslahat olishgan[19] - deb yozgandi, D.N. Logofet.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние.
2. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. Путевые очерки в 3 книгах. Книга 2. Русско-Афганская граница. С-Петербург. 1909. –С.2-4.
3. Логофет Д.Н. Бухарское ханства под русским протекторатом. Том1. С-Петербург-1911. –С.203 (340 стр)



4. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии...Книга 3. –С.116-117.
5. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии...Книга 3. –С.168-169.
6. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии...Книга 3. –С.169-170.
7. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии...Книга 3. –С.171-174.
8. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии...Книга 3. –С.176-178.
9. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии... Книга III. –С.188.
10. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии... Книга III. –С. 194.
11. Логофет Д.Н. Страна бееправия...-С.95.
12. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии... Книга I. –С.121-122.
13. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии... Книга I. –С.121-122.

**MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]**

Haitov Shadmon Axmadovich

Tarix fanlari doktori, professor

Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ahmadoff920@gmail.com



IKKINCHI JAHON URUSHI VA AFG'ONISTONDA FASHIST DAVLATLARINING AYG'OQCHILIK FAOLIYATI TARIXIDAN



Orziyev Mahmud Zayniyevich
Buxoro davlat universiteti, Buxoro



Kucharov Jamshid Qulnazarovich
Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi davrida fashistlar blokidagi davlatlar, xususan Germaniya ayg'oqchilik tuzilmalarining Afg'onistondagi harakatlari, SSSRga qarshi bosmachilardan diversion guruhlarni shakllantirish va kelajakda SSSRga bostirib kirish borasidagi harakatlari va uni bartaraf etilishi bilan bog'liq masalalar xususidagi fikr-mulohazalar keltirilgan.

MAQSAD: Ikkinchi jahon urushi jangohlaridan tashqarida yana bir yangi front tuzish va uning O'rta Osiyo hududida shakllantirilishiga qaratilgan harkatlarni barbad qilinishida SSSR razvedkasi va diplomatik xodimlarining faoliyatini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida yoritib berish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ikkinchi jahon urushi tarixiga bag'ishlangan harbiylar, diplomatik tashkilotlar a'zolarining xotiralari, memuarlari va turli tarixiy adabiyotlardan foydalanilgan. Tarixiylik, haqqoniylik, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

XULOSA: Jahonda tinchlikning o'rnatilishi, fashistlarni mag'lub etilishi osonlik bilan kechmaganligi, tinchlik katta qurbonlar va yo'qotishlar evaziga kelganligi, xalqaro diplomatik munosabatlarda ham ikki tomonlama standartlar va ularning oqibatlari ko'plab xalqlarga juda qimmatga tushishi mumkinligini ko'rsatib berish.

Kalit so'zlar: Ayg'oqchilik, josus, "Union", "Faol", diversiya, fashistlar, "O'q mamlakatlari", "Turkiston legioni", "Loy jirg'a", bosmachi, tashqi siyosat, harbiy baza, "F qo'shilmalari"

ИЗ ИСТОРИИ РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЦИСТСКИХ ГОСУДАРСТВ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ И АФГАНИСТАНЕ

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье рассматриваются действия стран нацистского блока, особенно немецкий шпионаж в Афганистане во время Второй мировой войны, формирование диверсионных групп из антисоветских угнетателей, а также будущее вторжение в СССР и его ликвидация.

ЦЕЛЬ: На основе сведений исторической литературы пролить свет на деятельность разведывательного и дипломатического состава СССР по созданию нового фронта вне полей сражений Второй мировой войны и его формированию на территории Средней Азии. .

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Использованы мемуары, мемуары и различная историческая литература членов военных и дипломатических организаций, посвященная истории Второй мировой войны. Использовались методы историчности, достоверности, хронологической последовательности и сравнительного анализа.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Показать, что установление мира во всем мире, разгром нацистов были нелегкими, что мир был достигнут ценой больших жертв и потерь, что двойные стандарты в международных дипломатических отношениях и их последствия могут дорого стоить многим. нации.

Ключевые слова: Шпионаж, шпион, «Союз», «Активист», диверсии, нацисты, «Страны Оси», «Туркестанский легион», «Грязевая джирга», принтер, внешняя политика, военная база, «военное приложение F».

FROM THE HISTORY OF THE INTELLIGENCE ACTIVITIES OF THE NAZI STATES IN THE SECOND WORLD WAR AND AFGHANISTAN

Annotation.

INTRODUCTION: This article discusses the actions of the Nazi bloc countries, especially German espionage in Afghanistan during the Second World War, the formation of diversionary groups from anti-USSR oppressors, and the future invasion of the USSR and its elimination. .

AIM: To shed light on the activities of the intelligence and diplomatic staff of the USSR in the creation of a new front outside the battlefields of the Second World War and its formation in the territory of Central Asia, on the basis of information from historical literature.

MATERIALS AND METHODS: Memoirs, memoirs and various historical literature of members of military and diplomatic organizations dedicated to the history of the Second World War were used. The methods of historicity, authenticity, chronological consistency, and comparative analysis were used.

CONCLUSION:

To show that the establishment of peace in the world, the defeat of the Nazis was not easy, that peace came at the cost of great sacrifices and losses, that double standards in international diplomatic relations and their consequences can be very expensive for many nations.

Key words: Espionage, spy, "Union", "Activist", sabotage, Nazis, "Axis countries", "Legion of Turkestan", "Mud Jirga", printer, foreign policy, military base, "Additions F"

Insoniyat tarixidagi eng halokatli va vayronagarchiliklar olib kelgan ikkinchi jahon urushi nihoyasiga yetganiga ham sakson yilga yaqin vaqt o'tdi. Shunday bo'lsada uning asoratlari hali-hamon sezilib turadi. Vaqt o'tishi bilan ko'pchilik insonlar qalbidagi jarohatlar bitdi. Hatto, ayrim davlatlarda neofashistik harakatlar qayta vujudga kelib, dunyoga qaytadan ulkan urush xavfi paydo bo'ldi deb aytish mumkin. Tarix fanining vazifasi o'tmishdan xulosa chiqarishga undash bo'lib, yangi urushlar xavfini oldini olishga xizmat qilishi bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtai-naardan qaraganda insoniyat ikkinchi jahon urushidan tegishli saboq chiqarishi lozim deb hisoblaymiz. Zero urush ishtirokchilari bo'lgan davlatlar o'zlariga tegishli milliy boyliklarning 60-70 foizidan ajralgan bo'lib, o'sha vaqtda urushayotgan mamlakatlarda erkaklar soni 210 mln nafar bo'lgani holda ularning 110 mln nafari urushga safarbar qilingani, 2194 kun davom etgan urushda o'rta hisobda har kuni 17 ming kishi qurbon berilgan¹. Shuningdek, yer yuzida demografik bo'hron bo'lganligi

¹Булатов Ю.А. Борьба за Афганистан. – С. 828. <https://histr.ru/uploads/media/default/000125a2a65cf1f33c4dc0791c63c4391d4e1bol7637cl9.pdf>

<https://histr.ru/uploads/media/default/000125a2a65cf1f33c4dc0791c63c4391d4e1bol7637cl9.pdf>

kabi ma'lumotlar barchani bir muddat bo'lsada, bugungi tinch va osuda hayotdan shukronalik hissini tuyishga undaydi.

Ikkinchi jahon urushining asosiy va hal qiluvchi fronti Sovet-German fronti bo'lib, urushning dastlabki yillarida fashistlar Germaniyasi tomonidan turib urushga kirishi mumkin bo'lgan davlatlar soni tobora ko'payib borgan. SSSR davlatining janubida chegaradosh davlat bo'lgan Afg'oniston ham shunday davlatlardan biri bo'lib, 1943-yil bahoriga qadar O'rta Osiyo hududida yana bir front ochilishi tahdidi bo'lgan. Sobiq SSSR halqlarining mislsiz matonati va jangohlardagi jasoratigina Afg'oniston hukumron doiralarini fashistlar tomonidan turib yangi front ochishdan tiyilib turishga majbur qilgan. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tahliliga ko'ra, Afg'onistonning fashist dalatlari bilan yaqinlashuvi 1930-yillarning o'rtalarida boshlanganligini ko'rsatadi. Shu yili Yaponiya bilan diplomatik aloqalarning o'rnatilishi sodir bo'lgan. Yaponiya josuslari afonistonda Xitoy va SSSR davlatlariga qarshi bo'lgan guruhlar bilan yaqin aloqa o'rnatganlar. hatto, bosh vazir Hoshimxonga SSSRga qarshi maxfiy shartnoma imzolashni taklif qilganlar. Afg'oniston hukumati rasman bu taklifni rad qilgan bo'lsada, Afg'oniston bo'ylab yapon ayg'oqchilariga harakatlanish imkoni berilgan. Ushbu imkoniyatdan foydalangan yapon josusi Kitada Janubiy Turkiston (Chahor viloyat)ga yo'l olgan va bu yerdagi o'zbek-tojiklardan iborat bo'lgan bosmachi to'dalar yetakchilari bilan aloqa o'rnatgan². XX asrning 30-yillarida Afg'onistonda faoliyat olib borgan yapon josuslari, hozirgi O'zbekiston va Tojikiston respublikalaridan Afg'onistonga qochgan va Xitoy hukumati tomonidan ta'qibga olingach Afg'onistonga qochgan bosmachilarni Sinszyanda Xitoy hukumatiga qarshi kurashga chorlash, shu orqali Xitoy hududlarini bir qadar oson istilo qilishni asosiy maqsad qilgan. Ushbu hamkorlik evaziga yaponlar Turkiston o'lkasini milliy mustaqilligini va'da qilganlar³.

Buxoroning sobiq amiri Olimxon bilan yaponlar o'rtasida 1937-yil aloqalar o'rnatilgan. Keyingi 1938-yili Olimxon yapon josuslariga katta miqdorda mablag' berib, o'z tarafdorlariga yaponlar bilan aloqalarni mustahkamlashga buyruq bergan. Yaponlar va bosmachilar o'rtasida vositachi bo'lgan Mahmud (Oyqorli) ikki tomonlama josus bo'lib, yaponlar faoliyatidan SSSR hukumatini ogohlantirib tugan. Shuningdek, ayrim bosmachilarning qo'lga olinishini ham tashkillashtirgan bo'lib, Mahmudbek (yaponlar unga "O'zoqboy", "Qishloqboy" degan laqablar ham berganlar) 1936-yilda yaponlar ta'sirida avval Shinjongda Xitoyga, keyin esa Farg'ona orqali SSSRga hujum qilib, o'z davlatini tuzmoqchi bo'lgan Fuzayl Maxsumni qo'lga olingan. Fuzayl Maxsum asli Qorategindan bo'lib, o'z sulolasini tuzish niyatida bo'lgan. Xitoyda qo'lgan olingan ushbu bosmachi SSSRga topshirilgan⁴. Fuzayl Maxsum bilan bog'liq voqea Yaponiya josuslarining SSSRga nisbatan dushmanona faoliyatini ochib tashlashga, diplomatik mojaroning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

²Тихонов Ю. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию. – М.: ЭКСМО; Яуза; 2008. – С. 198.

³Афганистан и безопасность Центральной Азии. Вып. 2 / Под ред. А.А. Князева. – Бишкек.: Илим, 2005. – С. 55.

⁴Абдуллаев К.Н. От Синьцзяна до Хорасана. Из истории Среднеазиатской эмиграции XX века. – Душанбе: Ирфон, 2009. – С. 460.

Natjada, Yaponiyaning Kobul elchixonasi harbiy atashesi Asikachi SSSRga nisbatan dushmanona faoliyat sababli 1937-yilda Afg'onistondan chiqarib yuborilgan. Shuningdek, 1937-yil Qobuldagi Turkiya elchisi Esendal SSSRning Kobuldagi elchixonasiga yapon josusi Kitada va u bilan yaqin aloqada bo'lgan bosmachilar ro'yxatini topshirgan. Ushbu hujjatlarda Yaponiyaga borib diversion faoliyatni o'rganib kelishi nazarda tutilgan bosmachi shaxslarning ro'xati ham bo'lgan. Ushbu ro'yxatda hatto, yirik bosmachi guruhlar rahbarlari masalan Shermuhammadbek (Ko'rshermat), Eshon Xalifa Qizil Oyoq (muhojir turkmanlar yetakchisi) kabilar ham bo'lganlar⁵. SSSRning janubiy chegaralariga 1938-1939 yillarda yaponiya bilan hamkorlikdagi bosmachilar faollashuvi kuzatildi. Xasan ko'li va Xalxingol daryosi bo'yidagi janglardagi muvofaqiyatli harakatlar Afg'onistonda Yaponiya josuslari faoliyatini bir qadar pasayishiga sabab bo'lgan. Shunday bo'lsada, kelajakda o'z g'alabalariga qattiq ishonch yaponlarni surbetlarcha davom ettirgan. Hatto, 1938-yili Afg'onistondagi SSSR elchisi K.Mixaylov bilan uchrashgan Yaponiya elchisi Kitada sovet elchixonasidagi diplomatik yozishmalarni asl nusxalarini o'ziga ko'rsatilitshini surbetlarcha talab qilgan. Xalqaro munosabatlarda yuzaga kelgan janjaldan Yaponiya elchisining Afg'oniston hududidan chiqarib yuborish bilan yakunlangan⁶. Bu yapon razvedkasi uchun katta zarba bo'lgan va SSSR janubida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan urush xavfi bir qadar pasaygan.

XX asr 30-yillarida Afg'onistonda fashistlar Germaniyasi josuslik faoliyati ham faollashgan. Germaniya kompaniyalari "Tod korporatsiyasi" Afg'onistonda savdo va sanoatda, yo'l qurilish va strategik ahamiyatga ega inshootlar qura boshlaydi. Bir vaqtning o'zida nemis ofitserlari Afg'on armiyasida maslahatchi sifatida ishlay boshlagan. 1937-yilda Berlin-Tirana-Afina-Bog'dod-Tehron-Kobul yo'nalishida Lyuftganza kompaniyasi avialiniyaga asos solgan⁷. Afg'oniston hukumatida fashistlar Germaniyasi bilan hamkorlik tarafdorlari ham ortib borgan bo'lib, ularga moliya vaziri Abdulmajid, amirining ukasi shahzoda Dovudxonlar boshchilik qilganlar. Afg'onistondagi ta'sirini yanada oshirish uchun nemislar Dyurand liniyasida Angliya mustamlaka chegarasi hududida qolib ketgan pushtunlar va ularning Afg'oniston davlati bilan birlashish g'oyalari ilgari sura boshladilar. O'zlarining yordamlarini taklif etish barobarida 1938-yilda Afg'onistonga 8 mln marka subsidiya berib, zamonaviy qurollar sotib olishga yordamlashgan⁸. Antikomintern pakti imzolanganidan keyin 1936-yilda Germaniya va Yaponiya Panturkizim g'oyalari ostida Afg'oniston va Shinjondagi turkiylarni birlashtirish orqali Xitoy va SSSRga qarshi foydalanishga harakat qilib, Germaniya tomoni katta miqdorda qurollarni Afg'oniston orqali Shinjonga o'tkazishga harakat qilgan. Unga Kobuldagi Germaniya

⁵Тихонов Ю. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию. – М.: ЭКСМО; Яуза; 2008. – С. 199-200.

⁶ СССР и страны Востока накануне и в годы второй мировой войны/Отв. редактор В.В. Наумкин. – М. ООО Типография Полимаг, 2010. – С. 210-212.

⁷Коргун В.Г. История Афганистана. XX век / В.Г. Коргун. – М.: ИВ РАН: Крафт+, акад. наук. Ин-т востоковедения, 2004. – С. 270.

⁸Ганковский История вооруженных сил Афганистана 1747-1977. – М.: Наука, 1985. – С. 103.

vakili Kurt Simke boshchilik qilgan. Ammo, bu harakat SSSR razvedkasi tomonidan fosh qilingan. Germaniya Simkeni chaqirib olishga majbur bo'lgan⁹.

Afg'oniston davlati mamlakat shimolida muhojir bosmachilarga qarshi kurashda SSSR yordamini olgan bo'lib, 20-yillar oxiri – 30-yillar boshida yaxshi qo'shnichilik aloqalariga ega bo'lgan. 30-yillarda SSSRga dushmanona siyosat yuritgan davlatlar bilan yaqinlashuvi o'sha vaqtda xalqaro munosabatlardagi o'zgarishlar ham katta ta'sir ko'rsatgan. Molotov-Ribbentrop kelishuvi ntijasida Boltiqbo'yining SSSRga qo'shib olinishi, Finlandiya bilan urush Afg'onistonda SSSR tashqi siyosatiga ishonchsizlik tug'dirgan¹⁰. Bu germaniya razvedkasining 1940-yil bahorida berilgan soxta razvedka ma'lumotlari natijasi bo'lib, 1940-yil bahori boshlarida Afg'oniston ichki ishlar vaziri Muhammad Gulxon Janubiy Turkiston (Chahorviloyat)da muhojir bosmachi vakillar bilan uchrashib, SSSR hujum qilganda moliyaviy yordam evaziga ularni qurolli qarshilik ko'rsatish va'dalarini olgan Toshqo'rg'on (Xulm), Mozori sharif, Xonobod, Qunduz hududlarida bosmachilar qurollana boshlaganlar¹¹. 1941-yil noyabrda bosh vazir Hoshimxon bu borada Loy Jirg'a chaqirib SSSRning ehtimoliy hujumini muhokamaga qo'ygan. Unga taklif etilgan bosmachi vakillari SSSR bilan urush boshlansa 200 ming qo'shin to'plab kurashishlarini ma'lum qilganlar. Hatto Shermuhammadbek (Ko'rshermat) Andijon orqali Farg'onaga bostirib kirish taklifini ilgari surgan¹².

Fashistlarning SSSRga xiyonatkorona hujumidan so'ng Afg'onistonga savdo agenti qiyofasida Abver (fashistlar Germaniyasida tashqi razvedka boshqarmasi) razvedkachilari K.Rasmus yetakchiligida, diversion guruhlarni shakllantirish bo'yicha mutaxassis D.Vitsel, radist V.Dox, shifrovalshik A.Shugenbyuller, mashinistka I.Galien, frach G.Fisher, afg'oniston armiyasi maslahatchisi Mayor Valter Shenk, mayor Simon-Eberxart, kapitan Merlokklar keladi. 1941-yil 29-iyunda Afg'oniston bo'yicha mutaxassis, birinchi jahon urushida Afg'onistonga yuborilgan Germaniya va Turkiya ekspiditsiyasi yetakchilaridan biri O.Xentingning Kobulga yuborilishida Angliya va SSSR qarshilik qilishi afg'oniston hukumatini O.Xentingni elchi sifatida qabul qilmasligiga sabab bo'ladi¹³. Shunday bo'lsada, 1941 yil may oyida Afg'onistonda bir-biridan mustaqil ishlayotgan beshta razvedka guruhi shakllanib bo'lgan.

Birinchi Guruh. Karl Rasmus (josuslik laqabi Karlmay) savdo agenti sifatida ishlagan bo'lib, aslida razvedka boshlig'i hisoblangan. Ditrix Vitsel (josuslik laqabi Patan) kurer (Brandenburg-800 polki ofitseri), Vilgelm Dox, radist, Adolf

⁹Тихонов Ю. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию http://militera.lib.ru/research/0/pdf/tihonov_un01.pdf

¹⁰ Топорков В.Н. Афганистан: Советской фактор в истоках кризис/Монография. – Чебоксары: ЦНС Интерактив плюс, 2014. – С. 32.

¹¹Тихонов Ю. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию. – М.: ЭКСМО; Яуза; 2008. – С. 138.

¹² Соцков Л. Ф. Неизвестный сепаратизм: На службе СД и Абвера: Из секретных досье разведки — М.: Рипол классик, 2003. – С. 232.

¹³ СССР и страны Востока накануне и в годы второй мировой войны/Отв. редактор В.В. Наумкин. – М. ООО Типография Полимаг, 2010. – С. 239-241.

Sugenbyuller-shifrllovchi, Iren Galien-mashinistka Kobuldagi Germaniya elchisi Gans Pilgerner kotibasi, Georg Fisher-elchixona shifokori kabilardan iborat bo'lgan.,

Ikkinchi guruh. Rasman "Simens texnik byurosi" nomi ostida faolit yuritgan. Uni Erix Tomas boshqargan. Van Meyderen 1941-yil bahorida bu guruhga qo'shilgan u G.Pilgerner kuyovi bo'lgan. Bu guruh butun Afg'oniston bo'ylab erkin harakat qila olgan.

Uchinchi guruh. Mayor Valter Shenk Afg'oniston armiyasida maslahatchi bo'lib, uning qo'l ostida mayor Simon-Eberxard, kapitan Morlok va barcha nemis texnikalari bo'yicha mutaxassislar bo'lgan.

To'rtinchi guruh. Yetakchisi Kurt Brikman bo'lib hisoblanadi. U Afg'onistonga 1940-yilda kelgan. Kobulda yagona stomatologiya egasi va Afg'oniston vaziri Hoshimxonning shaxsiy vrachi bo'lib olgan.

Beshinchi guruh. Afg'onlardan bo'lgan va 1936-yildan boshlab Abverga ishlagan Yaqubxon boshqargan.

Fashistlar razvedkasi vakillari 1941-yil sentyabrida Afg'oniston hududidagi bosmachilar bilan aloqa o'rnatgan. Vositachi Mahmudbek (Oyqorli)ka Rasmus Bog'lon shahrida kelajakda O'rta Osiyoda amalga oshiriladign harbiy istilolar uchun baza yaratishni vazifasini topshirgan¹⁴. Bosmachilarda orasida tez orada nemislarni o'zlariga yordamga kelishiga umid paydo bo'lgan. Fashistlarning SSSRga hujumi esa zo'r xursandchilik bilan qabul qilingan va Germaniya tezda g'alaba qilishiga ishonila boshlangan. Afg'oniston hukumatida ham SSSRga hujum xursandchilik bilan qabul qilinib, amir Zohirshoh o'z mablag'laridan 12 ming afg'oniyini 22 iyunda namozga kelganlarga hadya sifatida ulashgan. Bosmachilar Gitlerni "Xaloskor" deb qaraganlar. Ularning farzandlari nemis tilini o'rgana boshlagan¹⁵. Germaniyaning Afg'onistondagi razvedkasi boshlig'i K.Rasmus bilan muloqot qilgan Shermuhammadbek (Ko'rshermat) "O'q" (Germaniya, Italiya, Yaponiya) davlatlarisiz o'z maqsadlariga risha olmasliklari, ular Gitler askarlari ekanligini ta'kidlagan¹⁶. O'rta Osiyoga janubdan bostirib kirishni qonuniylashtirishga urinilib, Buxoroning sobiq amiri Olimxon bilan muzokara boshlangan. fashitlar va Olimxon uchrashuvini yapon josuslari Kasuba va tarjimon Saito tashkil qilgan¹⁷. Afg'onistonda SSSRga qarshi kuchlarning kuchli mavqega ega bo'lgan davri shu tariqa boshlangan.

Afg'onistondagi hukumron sulola vakillarida Germaniya g'alabasiga zarracha shubha bo'lmagan. SSSRning madaniy va ma'muriy markazlari Leningrad, Moskva ishgo'olidan so'ng SSSR millatlarining har biri milliy davlatlarini tuzishga kirishadi degan tasavvur ustun bo'lgan. Shu vaqtda avvalgi Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarini Afg'onistonga qo'shib olish rejalari ishlab chiqila boshlangan. 1941-yilda

¹⁴ Абдуллаев К.Н. От Синьцзяна до Хорасана. Из истории Среднеазиатской эмиграции XX века. – Душанбе: Ирфон, 2009. – С. 459.

¹⁵ СССР и страны Востока накануне и в годы второй мировой войны/Отв. редактор В.В. Наумкин. – М. ООО Типография Полимаг, 2010. – С. 244-245.

¹⁶ Соцков Л. Ф. Неизвестный сепаратизм: На службе СД и Абвера: Из секретных досье разведки — М.: Рипол классик, 2003. – С. 236.

¹⁷ Тихонов Ю. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию. – М.: ЭКСМО; Язуз; 2008. – С. 202.

SSSR qo'shinlari Eron shimoliga, Angliya qo'shinlari (1941-yil 25-avgust 17- sentyabr) janubga kiritilib, Eronni germanparast hukumati ag'darilgan. Bu kabi holat Afg'onistonda sodir bo'lsa, bosmachilar bilan SSSR qo'shinlariga birgalikda kurash masalasini amiri Zohirshoh va amir Olimxon bilan kelishib olishgan. Afg'oniston bo'yicha fashistlarning 1929-yil "Omonulla" operatsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, sobiq amirni taxtga o'tqazish natijasida Afg'onistonni o'z satelitiga aylantirish rejasi bo'lgan. Bu rejadan xabardor bo'lgan Afg'oniston siyosiy yetakchilari Germaniyaga mos keluvchi siyosat yuritgan deb hisoblash mumkin¹⁸. Bu "O'q" mamlakatlari razvedka guruhlariga keng imkoniyatlarni yaratib bergan.

SSSRga qarshi urush uchun tuzilgan "Barbarossa" rejasida fashistlar Astraxan-Arxangelsk yo'nalishiga chiqib, SSSRni separat sulh tuzishga majbur qilgandan so'ng, Barbarossa rejasining ikkinchi bosqichi boshlanishi lozim bo'lgan. Ungv ko'ra, Boku nefti qo'lga kiritilgandan so'ng, Eron va Afg'oniston orqali Hindistonga "F qo'shilmalari" (General Felmi qo'mondonligi ostida) borishi lozim bo'lgan. Uning tarkibiga 3 ta tank, 4 ta motorlashtirilgan, 6 ta tog' va 4 ta piyoda qo'shinlar diviziyasi kiritilgan. Shuningdek, Eron, Afg'oniston qo'shinlari (ayniqsa Dyurand liniyasidagi pushtun qabilalari) ham ularga qo'shilishi ko'zda tutilgan. Hindistonga yurishi ko'zda tutilgan qo'shinlar tropik va subtropik iqlimlarda jang olib borishi osonlashishi uchun ular Gresiya hududida shakllantirilgan. Rasman "Afg'oniston" operatsiyasini o'tkazish 1941-yil sentyabriga mo'ljallangan¹⁹. Yashin tezligidagi urushning barbod bo'lishi bu rejani umuman amalga oshirilmay qolishiga sabab bo'lgan.

Ikki tomonlama josus bo'lgan Mahmudbekka ishongan fashist razvedkachilari bosmachilardan iborat va "Union" deb nomlangan tashkilot tuzishga erishganlar. Mahmudbek bu tashkilotga Afg'oniston armiyasi ofitseri Hamro Gulbekni ham tortib, uni Abverga ishlashga ko'ndirgan. Hamro Gulbek Bog'londagi diversion punktni boshqaruvchisi etib tayinlangan. Abver vakillari Vitsel va Rasmuslar Mahmudbekka 1942-bahorida O'rta Osiyoga bostirib kirishga jalb qilinganlar ro'yxatini talab qilganlar. Buning sababi sifatida bosmachilarga qurol, moliyaviy va boshqa zaruriy narsalarni hisoblash zarurati deb ko'rsatilgan. Voqeyiklardan xabardor qilingan SSSR Angliya bilan hamkorlikda Afg'oniston hukumatiga o'z noroziliklarini bildirganlar. Afg'oniston "O'q" mamlakatlarning bir qism ayg'oqchilarini, jumladan, Yaponiya vakili Kitado va Mahmudbekni Afg'onistondan chiqib ketishini talab qilganlar. Kitado mamlakatni tark etgan bo'lsa, Mahmudbek Turkiya talabi bilan Afg'onistonda chiqarib yuborilmagan²⁰. Mahmudbekning qisqa vaqt qamalishi esa, "Union" tashkilotining tarqalib ketishiga olib kelgan.

Afg'oniston hukumatining SSSR va Angliya talabini bajarishiga asosiy sabab 1942-yil bahorida Sovet qo'shinlarining Moskva uchun bo'lgan janglarda g'alaba qozonishi va fashistlarni Moskvadan 100-150 km uzoqqa uloqtirib tashlashi,

¹⁸ СССР и страны Востока накануне и в годы второй мировой войны/Отв. редактор В.В. Наумкин. – М. ООО Типография Полимаг, 2010. – С. 245.

¹⁹ Булатов Ю.А. Борьба за Афганистан. – С. 204. <https://histr.ru/uploads/media/default/000125a2a65cf1f33c4dc0791c63c4391d4e1bol7637cl9.pdf>

²⁰ Дауди. И. Большая игра в Афганистане. – 263 с. http://kunduz.ru/f/bolshaya_igra_v_afganistan.pdf

Germaniyaning yashin tezligidagi urush planining barbod bo'lganli, urushning cho'zilib ketishi oqibatida g'olib tomon aniq bo'lmay turib, xatoga yo'l qo'ymaslik kabi ehtiyotkor siyosati yotgan deb xulosa qilish mumkin. Shuningdek, Tehronda sovet qo'shinlari joylashtirilishi Germaniya bilan havo orqali aloqani uzilishiga, Angliya esa Germanparast siyosat sababli hayotiy birinchi darajali mahsulotlarning Hindiston hududidan kirib kelishiga ta'qiq qo'ygan. Natijada, 1941-1943-yillarda Hindistonda olib kelinadigan birinchi darajali mahsulotlar uch barobar kamayib ketgan²¹. Afg'oniston hukumati katta tavakkalga borishni istamagan.

"Union" tashkiloti tarqalib ketgan bo'lsada, Afg'onistonda hali fashistlarning ayg'oqchilari yetarli darajada bo'lib, ular yangi "Faol" deb nomlangan tashkilo tuzganlar. Tashkilotga rahbar asli Namangandan bo'lgan Mubashshirxon tanlangan. Uning Afg'oniston hukumatida ishlashi ham nazardan chetda qolmagan. Abver hujjatlarida "Faol"ga bosmachilardan Shermuhammadbek yoki Ko'rshermat (Xanza), Xalifa Qizil Oyoq (Mercedes, ayrim hollarda diniy rahnamo bo'lganligi uchun Unterfurer deb ham keltiriladi), Abdusattorboy (Neu), Mavlavi Abdurauf (BMV), Abdul Ahad (Xorx), Jilavboy (Viktoriya) va boshq... kabi laqablar bilan qayd qilingan. "Faol" guruhi O'rta Osiyoga bostirib kirib hokimiyatni olgach o'z hukumatlarini "La Markaziya-i hukumat-i Turkiston" (Turkiston markaziy hukumati) deb rejalashtirganlar. Hukumat boshlig'i amir Olimxonning o'g'li Umarxon bo'lishi, bosh vazir Mubashshirxon Taroziyning o'g'li Olimxonning kuyovi Nasrulla bo'lishi, harbiy vazir Shermuhammadbek (Ko'rshermat), moliya vaziri Akram qori, ta'lim vaziri Habibullaxon To'ra bo'lishlari, shuningdek, hukumat tarkibiga Tagixon, Qudratillaxon, Shamsiddin Vakil (Tolib), Qamchibek Qirg'iz, Xalifa Qizil Oyoqlar ham o'z mansal ulushlariga ega bo'lganlar²².

Buxoroning so'nggi amiri Olimxon ham "Faol"ga a'zo bo'lib, 1942-yil 24-iyulda Afg'onistondagi Germaniya elchisi Gans Pilger Berlinga yuborgan hisobotida "Faol" ichkarisida maxfiy "Liga" guruhi tuzilganligi, uni amir Olimxon boshqarayotganligi, bundan so'ng uning laqabi hujjatlarda "Audi" deb keltirilishini ma'lum qilgan²³. Faol a'zolarini moliyalashtirish uchun amir Olimxon o'zining qimmatbaho toshlaridan bir qismini sotgan²⁴.

1942-yilda nemis, yapon razvedkasining faollashuvi va ittifoqchilarning Afg'oniston hukumatiga bosim o'tkaza olmaganligining asosiy sababi SSSRda fashistlarning yozgi-kuzgi urush kompaniyasida qo'li baland kela boshlagani, Stalingrad va Kavkazga hujumlarning kuchayib borayotganligi, Shimoliy Afrikada nemis-italyan qo'shinlarining general Rommel (Sahro tulkisi) boshchiligidagi

²¹ Топорков В.Н. Афганистан: Советской фактор в истоках кризис/Монография. – Чебоксары: ЦНС Интерактив плюс, 2014. – С. 34.

²² Абдуллаев К.Н. От Синьцзяна до Хорасана. Из истории Среднеазиатской эмиграции XX века. – Душанбе: Ирфон, 2009. – С. 462-463.

²³ Соцков Л. Ф. Неизвестный сепаратизм: На службе СД и Абвера: Из секретных досье разведки — М.: Рипол классик, 2003. – С. 249.

²⁴ СССР и страны Востока накануне и в годы второй мировой войны/Отв. редактор В.В. Наумкин. – М. ООО Типография Полимаг, 2010. – С. 258.

muvoftaqlatlari, Yaponiyaning Tinch okeani va Hindixitoyda muvoftaqlatlari, shuningdek, Birma orqali tobora Hindistonga yaqinlashib kelayotgani bilan izohlash mumkin. Afg'oniston hukumatida ham "O'q" mamlakatlarning g'alabasi yaqinligi, SSSRning O'rta Osiyoni qo'riqlab turuvchi diviziyalari Germaniya bilan kurashish uchun G'arbga olib tashlanishi va shunda Buxoro va Xivani ishg'ol etish uchun bitta afg'on diviziyasi ham yetarli bo'lishi to'g'risidagi g'oyalar shakllana boshlangan. jang tafsilotlaridan to'liq xabardor bo'lib turish uchun Shahzoda Muhammad Dovudxon Stalingradga o'zining maxsus vakilini ham yuborgan²⁵. Stalingrad jangida SSSRning mag'lubiyatini Afg'oniston va bosmachilar intizorlik bilan kutganlar.

1942-yilda fashistlarga xizmat qiluvchi "Faol" a'zolari va ularga itoat etuvchi bosmachi guruhlar SSSRga qarshi qurolli 10 ming kishini qarshi qo'ya olishi mumkin bo'lgan²⁶. "Faol" guruhining asosiy muammosi qurollanishda bo'lib, bosmachilarning 20-30 yillardagi qurollari zamonaviy jang olib borish talablariga mos kelmagan. Shuningdek, taktik mashg'ulotlardan xabarsizlik kabi sabablar "Faol" a'zolarining SSSRga hujumi 1943-yil bahoriga qadar kechiktirilishiga sabab bo'lgan. 1943-yil bahorida bosmachi guruhlarida 20-30 ming jangchini tashkil qilgani holda Mubashshirxon "rahnamo"lariga 70 ming kishideb hisobot yo'llab, faqat 15 ming kishida qurol mavjudligi, qurol va moliyaviy yordam berishni so'raganligini ma'lum²⁷. "Faol"ga a'zo bosmachi rahbarlarning o'z "rahnamo"laridan ko'proq pul undirish maqsadida yolg'on ishlatganlar. Ular askarlari sonini oshirib ko'rsatganliklarini hatto, german razvedkasi ham yaxshi anglagan. Masalan, turkmanlar yetakchisi Xalifa Qizil Oyoq nemis ayg'ochilariga 40 ming kishi kurashga shay deb axborot bersada, D.Vitsel uning qo'l ostida 11 ming turkman borligini yaxshi bilgan²⁸.

1942-yilning kuzi Stalingrad uchun hal qiluvchi janglar avjiga chiqqanda SSSR elchixonasi vakillari Germaniya josusi K.Rasmusni savdo agenti emas josus ekanligini asoslovchi faktlarni alohida uchrashuvda oshkor qilib, uni SSSR foydasiga ishlashga ko'ndirishga, aks holda Afg'oniston turmasi bilan tahdid qilgan. Rasmus o'ylab ko'rishni ro'kach qilib, qochib ketgan va urushdan o'n yil o'tib o'zini G'arbiy Germaniyada ekanligini ma'lum qilgan²⁹. Chunki, 1955 yilda GFR barcha fashist jinoyatchilarni auf etgan edi.

Stalingrad jangi davom etar ekan "Faol" guruhi va uning faoliyatini tugatishning imkoni yo'q edi. "Faol" guruhi 1943-yil bahorida fashistlar Stalingrad va Kavkaz (Boku nefti)ni egallagandan so'ng O'rta Osiyoga bostirib kirishi, ularga Polshaning Vraslav shahri yaqinidagi "SS-20 o'rmon lageri" va "Turkiston bosh

²⁵ СССР и страны Востока накануне и в годы второй мировой войны/Отв. редактор В.В. Наумкин. – М. ООО Типография Полимаг, 2010. – С. 257.

²⁶ Топорков В.Н. Афганистан: Советской фактор в истоках кризис/Монография. – Чебоксары: ЦНС Интерактив плюс, 2014. – С. 34.

²⁷ Тихонов Ю. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию. – М.: ЭКСМО; Яуза; 2008. – С. 205.

²⁸ Дауди. И. Большая игра в Афганистане. – С. 105. http://kunduz.ru/f/bolshaya_igra_v_afganistan.pdf

²⁹ Тихонов Ю. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию. – М.: ЭКСМО; Яуза; 2008. – С. 219.

lageri”da tayyorgarlikdan o’tgan “Turkiston legioni” askarlari kelib qo’shilishi ko’zda tutilgan edi. “Faol” a’zolari Abver tomonidan bosmachi yetakchilari oldiga ularni nazorat qilish va harakatlarni muvofiqlashtirib turish uchun yuboriladi. Jumladan, Ro’zi Muhammad Qunduzga Said Muhiddinxon To’ra oldiga, Qori Abdulla Maymanaga Eshon Xalifa Qizil Oyoq oldiga, Mahmudbek Pomirga Qamchibek qirg’iz oldiga yuboriladi. Bundan tashqari Abver vakillari Mulla Qilich og’a, Koshoutboy, Davlat Sardorlar oldiga ham yuborilgan³⁰. Shuningdek, Stalingrad jangidan so’ng Kavkaz orqali Eron va Afg’onistonga hujum qilish uchun 162 turk diviziyasini tayyorlagan³¹.

1943-yil Stalingrad jangida fashistlarning tor-mor keltirilishi, urushda tub burilishni boshlab berdi. 4 aprel kuni Afg’oniston bosh vaziri Hoshimxon Stalindan tahdidli ohangdagi telegrama olgan. Natijada, “Faol” tashkiloti tugatilib, uning a’zolaridan 23 kishi qamoqqa olingan³². Afg’oniston hukumatiga amir Olimxonning “Faol” bilan aloqalari oshkor qilingan. Zohirshoh amir Olimxoni saroyiga chaqirtirsada emigrantlar o’rtasida norozilik kelib chiqmasligi uchun unga jazo choralari qo’llashga botinmagan. Mamlakatdan nemis, italyan va yapon ayg’oqchilari to’liq chiqarib yuborilgan Kurs jangida fashistlarning mag’lub etilishi Germaniyaning yengilishi muqarrar ekanligini ko’rsatadi. Afg’oniston hukumatining siyosatida ham bu o’z aksini topadi. Afg’oniston tomonidan kutilayotgan tahdid va ochilishi muqarrar bo’lgan yana bir front butunlay bartaraf etilgan edi. Urushdan so’ng SSSR va Afg’oniston o’rtasidagi munosabat do’stona rivojlana boshlanadi. SSSR tomoni razvedka ma’lumotlari asosida 1945-yil qamoqqa olinmay qolgan “Faol” a’zolaridan biri Afg’oniston bosh vaziri Hoshimxonga suiqasd qilishi xususida ogohlantiradi. Afg’oniston esa, 1945-yil 17-avgustda Kobuldagi fashistik Germaniya elchisi bo’lgan Gans Pilgerni Toshkentga yuboradi³³.

Afg’onistonda 1939-1945-yillarda “O’q” mamlakatlar olib borgan siyosat va ularning malaylariga aylangan bosmachi qo’rboshilar o’z manfaatlari yo’lida milliy, diniy, insoniy chegaralarni pisand etmadilar. O’z manfaatlari yo’lida kelajakdan millionlab insonlar qoni ularning javobgarligiga tushishi mumkinligidan xavotir olmadilar. Faqatgina sobiq SSSR xalqlarining matonati, birdamligi, ko’rsatgan jasorat va qahramonliklari tufayli bugungi farovon kunlarga erishildi. Millionlab jonlar va

³⁰ Дауди. И. Большая игра в Афганистане. – С. 109-111. http://kunduz.ru/f/bolshaya_igra_v_afganistan.pdf

³¹ Булатов Ю.А. Борьба за Афганистан. – С. 37. <https://histr.ru/uploads/media/default/000125a2a65cf1f33c4dc0791c63c4391d4e1bol7637cl9.pdf>

³² Абдуллаев К.Н. От Синьцзяна до Хорасана. Из истории Среднеазиатской эмиграции XX века. – Душанбе: Ирфон, 2009. – С. 465.

³³ СССР и страны Востока накануне и в годы второй мировой войны/Отв. редактор В.В. Наумкин. – М. ООО Типография Полимаг, 2010. – С. 260-263.

qonlar evaziga erishilgan buyuk g'alabani xotirlash har birimizni burchimiz va vazifamiz bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев К.Н. От Синьцзяна до Хорасана. Из истории Среднеазиатской эмиграции XX века. – Душанбе: Ирфон, 2009. – 572 с.
2. Афганистан и безопасность Центральной Азии. Вып. 2 / Под ред. А.А. Князева. – Бишкек.: Илим, 2005. – 248 с.
3. Булатов Ю.А. Борьба за Афганистан. – С. 204. <https://histr.ru/uploads/media/default/000125a2a65cf1f33c4dc0791c63c4391d4e1bol7637cd9.pdf>
4. Вторая мировая война 1939-1945 гг. Военно-исторический очерк./Под общей редакцией генерал-лейтенанта С.П. Платова, генерал-майор Н.Г. Павленко и полковник И.В. Паротькин. – М.: Военное издательства обороны союза СССР, 1958. – 930 с.
5. Ганковский История вооруженных сил Афганистана 1747-1977. – М.: Наука, 1985. – 203 с.
6. Дауди. И. Большая игра в Афганистане. – 263 с. http://kunduz.ru/f/bolshaya_igra_v_afganistan.pdf
7. Коргун В.Г. История Афганистана. XX век / В.Г. Коргун. – М.: ИВ РАН: Крафт+, акад. наук. Ин-т востоковедения, 2004. – 529 с.
8. СССР и страны Востока накануне и в годы второй мировой войны/Отв. редактор В.В. Наумкин. – М. ООО Типография Полимаг, 2010. – 460 с.
9. Соцков Л. Ф. Неизвестный сепаратизм: На службе СД и Абвера: Из секретных досье разведки — М.: Рипол классик, 2003. - 336 с.
10. Тихонов Ю. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию. – М.: ЭКСМО; Яуза; 2008. – 360 с.
11. Топорков В.Н. Афганистан: Советской фактор в истоках кризис/Монография. – Чебоксары: ЦНС Интерактив плюс, 2014. – 319 с.
12. Тихонов Ю. Афганская война Сталина. Битва за Центральную Азию http://militera.lib.ru/research/0/pdf/tihonov_un01.pdf
13. Оришев А.Б. Иран в политике нацистской Германии на среднем востоке накануне и в годы второй мировой войны (1933-1943 гг.) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Казань: 2007. – 46 с.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Orziev Mahmud Zayniyevich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

m.z.orziyev@buxdu.uz



O'ZBEKLARNING MIGRATSION, DEMOGRAFIK VA TRANSFORMATSION JARAYONLARDAGI ISHTIROKI TARIXI. (Tojikiston o'zbeklari misolida)



Yuldoshev Akmal Baxtiyorovich
Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada o'zbeklarning migratsion jarayonlarga tortilishining asosiy sabab va omillari, migratsion jarayonlarning o'ziga xos jihatlari manbalar asosida tahlilga tortiladi. Qolaversa, maqolada Tojikiston respublikasida umriguzaronlik qilayotgan o'zbek millati vakillarining XIX asrning 90-yillaridan XXI asrning 20-yillarigacha bo'lgan davr oralig'idagi yuz bergan migratsion

jarayonlardagi ishtiroki, demografik o'zgarishlari va mustaqillik sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolishi bilan bo'g'liq voqeliklar manbalar va tarixiy dalillar asosida tahlilga tortiladi. Shuningdek, maqolada Tojikiston o'zbeklarining yashash hududlari va geografiyasi, ularning kasb-kori va kundalik yumushlari, ijtimoiy tarkibi va faoliyati tarixiy jihatdan sharhlanadi.

MAQSAD: O'zbeklarning migratsiya jarayoni xususiyati va demografik transformatsion jarayonlardagi ishtiroki, shuningdek qo'shni davlatlardagi o'zbeklar migratsiyasi jarayonini bugungi jarayonlarga ta'sirini o'rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR. Turli tarixiy adabiyotlar va arxiv ma'lumotlari asosida o'zbek xalqi migratsiyasining transformatsion jarayonlarini xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, tarixiylik usullaridan foydalangan holda yoritdik.

XULOSA: Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlarida mustaqillikning dastlabki yillari og'ir iqtisodiy inqiroz va mehnat bozorining qulashi bilan boshlandi. Agrar mamlakat hisoblangan ushbu davlatlar Rossiya sanoatining xom-ashyo bazasi bo'lib, sanoatdan uzilish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning ham bozorini kasod qildi. Mamlakatdagi umumiy inqiroz, siyosiy mojarolarni va fuqarolar urushini yuzaga keltirdi. Natijada aholi daromadlari keskin pasayib ketdi va yangi mehnat bozoriga bo'lgan talab hayotiy zaruratga aylandi.

Kalit so'zlar: O'zbeklar, Tojikiston, aholini ro'yxatga olish, milliy tarkib, Qo'rg'ontepa, Panjikent, Xo'jand, Hisor, statistic hisobot, ko'chirish, quloqlashtirish, milliy hududiy chegaralanish, dehqonchilik, bog'dorchilik, uy chorvachiligi, o'qituvchi, uy xo'jaligi, paxtachilik, Fuqarolar urushi, inqiroz, milliylashtirish, mehnat migratsiyasi.

ИСТОРИЯ УЧАСТИЯ УЗБЕКОВ В МИГРАЦИОННЫХ, ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ И ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССАХ.

(В случае узбеков Таджикистана)

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье сравнительно изучено участие большинства узбеков, проживающих в Республике Таджикистан с 90-х годов XIX века по 20-е годы XXI века. На основе источников и исторических свидетельств анализируются демографические изменения за последние 130 лет истории и реалии, связанные с сохранением национальной идентичности в условиях независимости. Кроме того, в статье описываются ареалы и география узбеков Таджикистана, их профессии и домашний труд, социальная структура и деятельность с исторической точки зрения.

ЦЕЛЬ: Изучить характер миграционного процесса и участие узбеков в процессах демографической трансформации, а также влияние миграционного процесса узбеков в соседних странах на сегодняшние процессы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. На основе разнообразной исторической литературы и архивных данных методами хронологической последовательности,

сравнительного анализа и историчности освещены трансформационные процессы миграции узбекского народа.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Первые годы независимости во всех странах Центральной Азии начались с жесточайшего экономического кризиса и коллапса рынка труда. Эти страны, считающиеся аграрными, являются сырьевой базой российской промышленности, а отключение от промышленности нанесло ущерб и рынку сельхозпроизводителей. Общий кризис в стране привел к политическим конфликтам и гражданской войне. В результате доходы населения резко сократились, а спрос на новый рынок труда стал жизненной необходимостью.

Ключевые слова: узбеки, Таджикистан, перепись населения, национальный состав, Кургантепа, Пенджикент, Ходженд, Хисар, статистический отчет, переселение, переселение, национально-территориальное размежевание, сельское хозяйство, садовое земледелие, животноводство, учитель, домашнее хозяйство, хлопководство, Гражданская война, кризис, национализация, трудовая миграция.

HISTORY OF PARTICIPATION OF UZBEKS IN MIGRATION, DEMOGRAPHIC AND TRANSFORMATIONAL PROCESSES.

(In the case of the Uzbeks of Tajikistan)

Annotation.

INTRODUCTION: This article comparatively studies the participation of the majority of Uzbeks living in the Republic of Tajikistan from the 90s of the 19th century to the 20s of the 21st century. Based on sources and historical evidence, demographic changes over the last 130 years of history and the realities associated with the preservation of national identity in conditions of independence are analyzed. In addition, the article describes the areas and geography of the Uzbeks of Tajikistan, their professions and domestic work, social structure and activities from a historical point of view.

AIM: To study the nature of the migration process and the participation of Uzbeks in the demographic transformation processes, as well as the impact of the migration process of Uzbeks in neighboring countries on today's processes.

MATERIALS AND METHODS. On the basis of various historical literature and archival data, we covered the transformational processes of the migration of the Uzbek people using the methods of chronological consistency, comparative analysis, and historicity.

CONCLUSION: The first years of independence in all Central Asian countries began with a severe economic crisis and the collapse of the labor market. These countries, which are considered agrarian countries, are the raw material base of Russian industry, and the disconnection from industry has damaged the market of agricultural producers as well. The general crisis in the country led to political conflicts

and civil war. As a result, the incomes of the population decreased sharply, and the demand for a new labor market became a vital necessity.

Key words: Uzbeks, Tajikistan, population census, national structure, Kurgantepa, Panjikent, Khojand, Hisar, statistical report, resettlement, resettlement, national territorial demarcation, agriculture, garden Agriculture, livestock, teacher, household, cotton farming, Civil war, crisis, nationalization, labor migration.

Sobiq Ittifoq davrida Tojikiston o'zbeklar ko'p va zich bo'lib istiqomat qiladigan respublikalardan biri edi. Qolaversa, milliy urf-odat va an'analari, ma'naviy va dunyoviy qarashlari mushtarak bo'lgan o'zbek va tojik millati vakillari Tojikistonning yangi tarixini birga yozishdek ma'suliyatni 70 yillik davr mobaynida birga amalga oshirishdi. Tojikiston aholisi demografik o'sish va aholini ko'chirish siyosati samarasi natijasida bir necha barobarga ko'paydi. Qishloq xo'jaligi va sanoat sohasida amalga oshirilgan islohotlar Tojikistonda yangi kasb, soha va tarmoqlarlarining kirib kelishiga turtki bo'ldi. Ijtimoiy turmush sharoitining ko'tarilishi va iqtisodiy hayotning izga tushishi natijasida Tojikistonda aholi soni muntazam yuqorilab bordi va bular Tojikiston o'zbeklarining hayotidagi o'zgarishlarda ham yaqqol namoyon bo'ldi.

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralishdan so'ng, Tojikiston ASSR 1924 yil 27 oktyabrda O'zbekiston SSR tarkibidagi muxtor respublika sifatida kiritilib, Tojikiston ASSR asosan Buxoro amirligining janubiy-sharqiy hududlarini o'z ichiga olgan. Amirlik aholisining asosiy qismini o'zbeklar tashkil qilsada, davlat hujjatlari fors-tojik tilida yuritilgan, bu esa bu hududda istiqomat qiladigan xalqning ikki tilni yaxshi o'zlashtirishiga muhim turtki bo'lib xizmat qilgan. Bu muhim jihatni o'z vaqtida anglagan "Markaz" aholini tiliga qarab ajratishga oid siyosatni amalga oshirishning muhim asosi sifatida ko'rgan³⁴.

O'zbekiston Milliy arxivining fondi "Rayonlashtirishga oid turli materiallar" nomli arxiv hujjatlarida ayniqsa, Tojikiston ASSRning ma'muriy bo'linishi masalasini jiddiy ravishda ko'rib chiqish lozimligi belgilangani ayon bo'ladi³⁵. Tojikiston ASSR aholisi 1925-1926 yillarda 779407 kishini tashkil etib, mamlakat aholisi yillar mobaynida o'rtacha 1 foizdan ko'payib borgan. Jumladan, 1926-1927 yillarda 7794 taga ko'payib, 787201 kishini, 1927-1928 yillarda 7872 taga ko'payib, 795073 kishini, 1928-1929 yillarda 7950 taga ko'payib, 803023 kishini, 1929-1930 yillarda 8030 taga ko'payib, 811053 kishini, 1930-1931 yillarda 8111taga ko'payib, 819164 kishini tashkil etganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan³⁶.

Aholining etnik qatlami o'nga yaqin millatlardan tashkil topgan bo'lib, ularning ichida o'zbeklar son jihatdan salmog'i qo'pligi bilan ajralib turgan. Ular

³⁴ ЎзМА, Р-1 фонд, 1-рўйхат, 725-йиғма жилд, 5-6 varaqlar

³⁵ ЎзМА, Р-1 фонд, 1-рўйхат, 725-йиғма жилд, 33-36 varaqlar.

³⁶ ЎзМА, Р-1 фонд, 1-рўйхат, 725-йиғма жилд, 50-51 varaqlar.

Tojikistonning Tog'li Badaxshon va G'arm hududidan tashqari barcha viloyatlarida ko'p sonli bo'lib istiqomat qilgan va keng hududlar bo'ylab tarqalgan. 1925-1926-yillarda o'zbeklar Hisor viloyatida 52600 kishini, Qo'lob viloyatida 39229 kishini, Usturshona viloyatida 20340 kishini, Qo'rg'ontepa viloyatida 19100 kishini, Panjikentda 6548 kishini, jami esa 139.817 kishi bo'lib umumiy aholiga nisbatan 17,7 foizini tashkil etgan³⁷.

Barcha hududlarda ularning soni tojiklardan keyingi ikkinchi o'rinda turib aholi soniga sezilarli ta'sir o'tkazgan. Tojikistonda istiqomat qiladigan qora-qirg'izlar, qirg'iz-qozoqlar, turklar, afg'onlar, turkmanlar va arablarning jami soni 24659 kishini tashkil etgan bo'lsa, birgina Hisor viloyatidagi o'zbeklar soni ulardan ikki yarim barobardan ortiq bo'lgan. Bundan tashqari Qo'lob viloyatidagi o'zbeklarning soni ham ulardan 14570 taga ko'p bo'lgan³⁸.

Hisor, Qo'lob, Qo'rg'ontepa, Usturshona, Panjikent viloyatlarida istiqomat qilgan o'zbeklarning asl vatanlari shu hududlar bo'lib, ular azal-azaldan shu o'lkalarda tubjoy millat tojiklar bilan yonma-yon istiqomat qilib, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilikning ko'plab sohalarida faoliyat yurtib kelishgan. O'zbeklar Dag'ona-Ko'shk, Qo'rg'ontepa, Bosmali, Chorbog' kentlari aholisining 100 foizini, Regar, Shulum, Saroy Qamish, Bekbo'li, Shaxriston kentlarining 90 foizdan ortig'ini, Kobadiyon kenti aholisining 73.7 foizini, Chimqo'rg'on kenti aholisining 60.7 foizini, Bakari va Oq-Suv kenti aholisining 40 foizdan ortig'ini, Avtorubsk volostining 32.4 foiz aholisini, Toda, Dala, O'ratepa kenti aholisining 20 foizdan ortig'ini, Farob, Sari-Chashm, Ko'li So'fiyon kenti aholisining 16 foizdan ortig'ini, Roati kentida esa 8.2 foiz aholini tashkil etishgan³⁹.

Tojikiston ASSR revkomining 1925 yil 7 oktyabrdagi 183- raqamli bayonnomasiga asosan taxminan 200.800 kishidan iborat 44.000 xo'jalikning Afg'onistondan o'z vatanlariga qaytarilishi rejalashtirilgan. 1924-1925 yillar davomida 18810 kishi, 1925-1926 yillarda 30000, 1926-1927 yillarda 35.000 kishi, 1927-1928 yillarda 25.000 kishi, 1928-1929 yillarda 10000 kishi, 1929-1930 yillarda 6000 kishi, jami 124.080 kishining o'z yerlariga qaytarilganligi qayd etib o'tilgan. Ular Buxoroning so'nggi amiri Said Olimxon bilan birgalikda Afg'onistonga ko'chib o'tishgan edi. Ko'chirib o'tkazilganlarning 37810 tasi o'zbek urug'lariga mansubligi aniqlangan. 82.720 kishi Afg'oniston hududida o'rnashib qolganligi manbalarda qayd etilgan. Shunday qilib 1925-1926 yillarda Tojikistonda istiqomat qiladigan o'zbeklarning soni 175.627 kishini tashkil etib, umumiy aholiga nisbatan 21,23 foiz ulushga ega bo'lgan⁴⁰.

1959 yilga kelganda Tojikistonda istiqomat qiladigan o'zbeklarning soni 1926 yildagiga nisbatan 2.6 barobarga ko'paygan. O'zbeklar sonining oshishiga demografik ko'payish yaqqol ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, bu yillar oralig'ida sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag'on, quloqlashtirish, yangi yerlarni o'zlashtirish

³⁷ ЎзМА, Р-1 фонд, 1-руйхат, 725-йиғма жилд, 44-46 varaqlar.

³⁸ ЎзМА, Р-1 фонд, 1-руйхат, 725-йиғма жилд, 46-47 varaqlar.

³⁹ ЎзМА, Р-1 фонд, 1-руйхат, 725-йиғма жилд, 48-49 varaqlar.

⁴⁰ Справчник. Всесоюзная населения 1926 гг. М: Издание ЦСУ Союза ССР, 1928-29. Том 10-16. С. 195-200.

siyosatlari doirasida O'zbekistondan ko'chirilgan o'zbeklarning ulushi ham bu raqamlarning o'sishiga salmog'li ta'sir o'tkazgan. Masalan 1925-1929 yillar oralig'ida O'zbekistondan 8.030 xo'jalik Vaxsh vodiysiga, 4.761 xo'jalik Ko'lob viloyatiga, 1.965 xo'jalik Hisor viloyatiga, jami 15.826 xo'jalik, 1930 yilda yana 2.000 xo'jalik Tojikistonga ko'chirilgan⁴¹.

Umuman olganda 1925-1941 yillarda Tojikistonning birgina Vaxsh vodiysiga O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati va Farg'ona vodiysidan 83.000 xo'jalik ko'chirilgan. Ular Vaxsh, Qo'rg'ontepa, Saroykamar, Hisor, Ko'lob, Orol, Jimko'l, Qobadiyon, Stalinobod rayonlariga ko'chirildi. Xorazm rayonlaridan Tojikiston SSR ning Molotovobod rayoniga 1.827 xo'jalik (5.987 kishi) ko'chirildi⁴².

Xullas o'zbeklar Tojikistonda 1925-1926 yillarda G'arm va Tog'li-Badaxshon viloyatlaridan tashqari barcha hududlar bo'ylab keng tarqalgandi. Ular Tojikiston ASSRda tojiklardan keyin soni jihatdan ikkinchi o'rinda turib, tubjoy xalqlaridan biri hisoblanishgan. Bu o'sish asosan demografik jarayon va aholining ko'chirilishi, shuningdek, 1920-yillarning o'rtalarida Afg'onistondan aholining reemigratsiya qilinishi natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, 1926-1930 yillarda Vaxsh vodiysini o'zlashtirish jarayonida hozirgi Farg'ona vodiysining O'zbekiston Respublikasi viloyatlaridan ko'p ming sonli o'zbek xo'jaliklarini Tojikistonga ko'chirilishi ushbu respublikada qishloqlar bo'ylab o'zbeklar soni keng tarqalishida muhim omil bo'ldi. O'zbek xo'jaliklari yangi o'zlashtirilgan hududlarda dehqonchilikning paxtachilik sohasini rivojlantirishda muhim rol o'ynadilar. O'zbeklarning ko'chirilish jarayoni keyingi davrlarda ham davom etib, ayrim xo'jaliklar O'zbekistonga qaytib kelgan bo'lsada, ko'pchiliklari Tojikiston Respublikasi hududlari bo'ylab tarqalib ketdilar⁴³. Ularning qishloqlarida aholi o'zbek va tojik tillarida birdek muloqotda bo'la olishi, ikki tilli bir xalq sifatida yaqin qavmqarindoshchilik hamda quda-andachilik munosabatlari vujudga keldi.

Statistik hisobotlar tahlil qilinganda Tojikistondagi o'zbeklar sonining o'sish sur'atlari 1926-1939 yillarda juda yuqori bo'lib, 13 yillik davr mobaynida 213.661 nafarga ko'paygani, 1926 yilgi o'zbek millati vakillariga nisbatan olganda esa 2,5 barobarga oshgani ma'lum bo'ldi. 1939 yildagi aholini ro'yxatga olish ishlarining yakuniga ko'ra Tojikiston aholisi 1.484.440 nafarga yetib, bu ro'yxatda o'zbeklar 353.478 kishini tashkil etgan va son jihatdan tojiklardan so'ng ikkinchi halq sifatida qayd etilgan⁴⁴. O'zbek millati vakillarining Tojikiston SSRda qisqa tarixiy davrda 2,5 barobarga ko'payishi faqatgina demografik omilga bog'liq bo'lmagan. Sovet hokimiyatining yangi yerlarni o'zlashtirish siyosati doirasida O'zbekistonning turli viloyatlaridan Tojikiston SSRga aholining ko'chirilishi ham bu mamlakatda o'zbeklar

⁴¹ Коммунист Таджикистана, 8 мая 1935 г.

⁴² Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955 гг. Документы и материалы-Том I-III (Сост. Р.Т. Шамситдинов, Б.М. Расулов; под ред. Д.А. Алимовой) Том II. Т.: Шарқ, 2006. – 496 с.

⁴³ Муаллифнинг шахсий мулоқот материаллари. Илхом Юсиров билан суҳбат. 2021 йил 18 ноябрь.

⁴⁴ РГАЭ РФ, фонд 1562, опись 336, ед.хр. 966-1001. Разработочная таблица ф. 15А. Национальный состав населения по СССР, республикам, областям, районам

soning salmog'i ortishiga xizmat qilgan. Shuningdek, Tojikistondagi o'zbeklar tub-joy, ya'ni azaldan yashab kelganlar va O'zbekistondan ko'chib kelganlar kabi ikki guruhdan iborat ekanligi ayon bo'ldi.

1959 yilda sobiq Ittifoqda uchinchi marotaba aholini ro'yxatdan o'tkazish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ma'lumotlarda qayd etilishicha tojikistonlik o'zbeklarining soni 454.433 tani tashkil etgan⁴⁵. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ular 1926 yilga nisbatan 314.616 kishiga (3,3 barobarga), 1939 yilga nisbatan 100.955 kishiga (1,3 barobarga) ko'paygan. 1926-1959 yillar oralig'ida o'rta hisobda o'zbeklar yiliga o'rtacha 15-16 foizdan ko'payib borishgan. Bu davrda Tojikistonda o'zbeklar sonining o'sishida Hisor, Qo'lob, Qo'rg'on tepa, Usturshona, Panjikent viloyatlari yetakchilik qilgan. Bu hududlarda yashagan o'zbeklar asosan paxtachilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar. Sanoat ishchilari, o'qituvchilar, haydovchilar, savdo-sotiq xodimlari, maishiy soha vakillari va hukumat rahbarlari orasida ham o'zbek millati vakillarining salmog'i yuqori bo'lgan.

Keyingi 30 yillik (1959-1989 yy.) tarixiy davrda Tojikistondagi o'zbeklar sonining dinamikasi jadallik bilan o'sib borib, 1970 yilga kelganda 665.662 nafargaga⁴⁶, 1979 yilda 873.199 nafarga⁴⁷, 1989 yilda esa 1.197.841 nafarga yetdi. Tojikistonda o'zbeklar 1926 – 1970 yillar oralig'ida 4,8 barobarga, 1926 – 1979 yillarda 6,2 barobarga, 1926 – 1989 yillarda 8,6 barobarga ko'paydi. Tojikistonda o'zbeklar soning o'rtacha yillik o'sish sur'ati mazkur 63 yillik davr oralig'ida (1926-1989 yy.) 16-17 foiz atrofida bo'lib, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari orasida bu ko'rsatkich bo'yicha yetakchilik qildi.

Ikkinchi jahon urishidan keyingi davrda o'tkazilgan demografik islohotlar, shuningdek, tibbiy soha faoliyatining takomillashuvi, ijtimoiy va iqtisodiy turmush sharoitlarining ko'tarilishi natijasida sobiq Ittifoqning barcha respublikalari kabi Tojikistonda ham aholi sonining keskin o'sishida demografik omilni yetakchi o'ringa chiqardi. Islohotlar natijasida 50-60 yillarga kelganda oilalarning aksariyatida o'rta hisobda 8-9 nafardan farzandlar dunyoga kelgan va ko'p bolali oilalar soni mamlakatda 72,2 foizni tashkil etgan. Ayniqsa bu ko'rsatkich qishloq hududlarda yuqoriroq bo'lgan. Tojikistonda 70-80 yillarda ham demografik o'sish sur'atlari yuqoriligicha qolgan. Aholi o'rtacha har 6-7 yilda bir barobarga ko'payib borganligi va bu jarayonlarning o'zbek oilalarida ham kuzatilganligini ma'lumotlar tasdiqlab turibdi⁴⁸. Natijada o'zbeklarning soni 1989 yilga kelganda 1,2 millionga yetib, Tojikiston Respublikasining keyingi tarixiy davrlardagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy

⁴⁵ РГАЭ РФ, фонд 1562, опись 336, ед.хр. 1566а-1566д. Таблица 3,4 Распределение населения по национальности и родному языку.

⁴⁶ РГАЭ РФ, фонд 1562, опись 336, ед.хр. 3998-4185. Таблица 7с. Распределение населения по национальности, родному и второму языку.

⁴⁷ РГАЭ РФ, фонд 1562, опись 336, ед.хр. 3998-4185. Таблица 7с. Распределение населения по национальности, родному и второму языку.

⁴⁸ Васильева Э.К., Елисеева И. И., Кашина О. Н., Лаптев В.И. Динамика населения СССР 1960-1980 гг. Москва. "Финансы и статистика". 1985. – С. 170.



jarayonlariga ta'sir o'tkaza oladigan yetakchi kuchlaridan biriga aylanishdi. O'zbeklar asosan Tojikistonning shimoliy hududlarida keng tarqalib, asosan Xo'jand va unga tutashgan hududlar, Panjikent vohasi, Usturshona, Xatlon, Hisor xududlari aholisining asosiy qismini tashkil etishdi⁴⁹.

1926 yilda Tojikiston ASSR aholisining 9,2 foizi shaharlarda, 90,8 foizi qishloqlarda istiqomat qilgan⁵⁰. Aholining asosiy mashg'uloti an'anaviy tartibda qishloqlarda dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik va yilqichilik hisoblangan. Qishloq dehqonlari qo'shimcha tartibda uy chorvachiligi va hunarmanchiligi bilan ham shug'ullanishganligi ma'lumotlarda qayd etilgan. Shaharlarda aholi asosan hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan.

Sovetlarning urushdan oldigi besh yillik rejalarida mahalliy millat vakillarining ishchilar sinfini shakllantirish ko'zda tutilgan va ikkinchi besh yillikda (1933-1937 yy.) ularning soni 2.700 nafarga yetgan. 1937 yilga kelganda ularning soni 5.185 nafarga yetib, aholining umumiy soniga nisbatan 0.004 foiz ulushga ega bo'lgan. Ishchilar turli ishlab chiqarish, transport va qurilish sohaslarida faoliyat yuritishgan. 1950 yilga kelganda Tojikiston sanoatida mahalliy kadrlarning ulushi 14 foizga, sovxozlarda esa 43 foizga yetgan. 1954 yilda sanoat va qurilishda sohaslarida 58,6 ming nafar ishchi va xizmatchilar faoliyat yuritib, ishchilarning 12,9 mingini tojiklar (22.2 foiz), 3,4 mingini o'zbeklar (5,8 foiz), 42,2 mingini ruslar (72 foiz) tashkil etgan⁵¹.

XX asrning ikkinchi yarmida Tojikiston SSRda sanoat, qurilish, transport va milliy iqtisodiyotning boshqa sohalari, aniqrog'i, yengil va oziq ovqat sanoati, mashinasozlik, metallurgiya, tog'-kon, neft va gaz, energetika sohalari vujudga kelib, bu sohalarda ham o'zbek millati vakillarining faoliyati ko'zga tashlanib bordi. Tojikiston iqtisodiyotida 1970-1990 yillar oralig'ida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining o'sishi 251,4 foizni tashkil etib, elektr-energetika kompleksida o'sish 461 foizga, mashinasozlik sanoatida 366 foizga, yengil sanoatda - 191 foizga, oziq-ovqat sanoatida - 193,2 foizga yuqoriladi. Agar XX asr o'rtalarida Tojikiston iqtisodiyotida og'ir sanoatning ulushi 5 foizdan oshmagan bo'lsa, unda 1970 yilga kelib bu ko'rsatkich 7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilga kelganda bu ko'rsatkich 20 foizga borib yetdi. XX asrning 80-yillari davomida metallurgiya sohasida sanoat ishlab chiqarishning o'sishi 270 foizni, neftgaz-kimyo sanoatida esa 220 foizni tashkil etib, Tojikiston SSR iqtisodiyotidagi keskin tarkibiy o'zgarishlar davriga aylandi va yangi kasb sohaslarining vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qildi⁵². Natijada mahalliy aholi vakillari qatorida o'zbeklar ham bu sohalarni o'zlashtira bordi. Bu omillar

⁴⁹ Бушков В.И. Население Северного Таджикистана: формирование и расселение. - Москва : Ин-т этнологии и антропологии РАН, 1995. -С. 5-6.

⁵⁰ ЎзМА, Р-1 фонд, 1-руйхат, 725-йиғма жилд, 48-50 varaqlar.

⁵¹ История рабочего класса Таджикистана. (1917-1970 гг.) 2 т. / Под ред. канд. ист. наук К. П. Марсакова. - Душанбе: "Дониш". 1973. -С. 136-137.

⁵² Хоналиев Н. История развития и размещение промышленности Таджикистана В 1924-2005 гг. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. докт. эконом. наук. Душанбе – 2009. -С. 18; Шимов В.Н. Региональная эффективность общественного производства: Проблемы. Методы измерения. Пути повышения. Минск, 1986. – 167 с.

Tojikiston o'zbeklarining yangi kasbiy faoliyat turlarini o'zlashtirishiga asos bo'lib xizmat qildi.

1990 yilga kelganda Tojikiston o'zbeklari yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarida, og'ir sanoatning asosiy tarmoqlari hisoblangan elekt-energetika, tog'-kon sanoati, rangli metallurgiya, mashinasozlik va metallga ishlov berish, qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yurita bolashdi. Jumladan, So'g'd (Leninobod-diss.) viloyatidagi, Hisor, Vaxsh va Ko'lobdagi paxtani qayta ishlash zavodlarida, Xo'jand ipak kombinatida, O'ratepa, Xo'jand, Panjikent vino zavodlarida, Konibodom, Isfara, Xo'jand konserva zavodlarida, Xo'jand va Qo'rg'ontepa go'sht-sut birlashmalarida, Nurek, Golovnaya, Baypazinskaya (Vaxshda), Qayroqqum (Sirdaryoda) gidro-elektrostantsiyalarida, Sho'rob ko'mir konida, respublikaning shimolida va janubida joylashgan neft konlarida, Vaxsh, Hisor vodiylaridagi gazni qazib olish korxonalarida, Tursunzodadagi alyuminiy zavodida, Isfaradagi Gidrometallurgiya zavodida, Qo'rg'ontepada Azot zavodida, Yavanda Elektrokimyo Kombinati ishchi-xizmatchilari orasida o'zbek millati vakillari ko'pchilikni tashkil etganligi ma'lumotlarda o'z isbotini topdi⁵³.

XX asrning 80 yillarida Tojikiston yalpi mahsulotining asosini hali ham uning asosiy sohasi hisoblangan qishloq xo'jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati belgilab berdi. 1986 yilda respublikada 299 sovxoz va 157 kolxoz mavjud bo'lib, qishloq xo'jaligi yerlari 4,2 million hektarni tashkil etgan. Qo'riq va bo'z yerlarning o'zlashtirilishi natijasida sug'oriladigan yerlarning maydoni 662 ming gektarga yetib, bu yerlarning asosiy qismi mamlakatning shimoliy va markaziy hududlarida joylashgan edi⁵⁴. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining taxminan 65 foizini ta'minladi. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i - paxtachilik bo'lib, 1980 yilda 850 ming tonna paxta xom ashyosi tayyorlanib⁵⁵, 1986 yildan boshlab yiliga 920 ming tonnadan paxta xom ashyosi yig'ila boshlandi. O'zbeklar zich bo'lib yashaydigan So'g'd viloyati, Vaxsh va Hisor vodiylari Tojikiston paxtasini tayyorlash uchun asosiy bazaga aylantirildi. Shuningdek, ular qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisoblangan tamaki, geranium, zig'ir, kunjut g'alla, dukkakli o'simliklarni yetishtirish ishlarida mahsuldorlik ko'rsatishdi. Ular sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirishda, meva mahsulotlarini tayyorlashda va uzumchilik sohalarida yuqori natijalarga erishishda omilkorlik ko'rsatishib Tojikiston iqtisodiyotining o'sishida o'zlarining aql-zakovati va mehnatini ayamadilar.

⁵³ Хоналиев Н. История развития и размещение промышленности Таджикистана В 1924-2005 гг. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. докт. эконом. наук. Душанбе – 2009. –С. 15-16. Хоналиев Н. Развитие промышленности и проблемы занятости трудовых ресурсов в Таджикистане // Известия АН Таджикской ССР. Отделение общественных наук. 1985. -№ 4. –С. 71-73; Ўша муаллиф: Критерии и показатели эффективности использования трудовых ресурсов // Известия АН Таджикской ССР. Серия: философия, экономика, правоведение. 1987. -№ 2. –С. 37-39.

⁵⁴ URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Экономика_Таджикской_ССР.

⁵⁵ Хакназаров А. Руководство Компартии Таджикистана развитием хлопководства в 1966-1975 гг. (на материалах Вахшской долины). – Автореф. дисс. ... на соиск. учен. степ. канд. ист. наук. Душанбе – 1984. –С. 16.

Mustaqillik sharoitida Tojikiston o'zbeklari.

O'zbeklar ko'p sonli bo'lib umriguzaronlik qiladigan davlatlardan biri Tojikiston respublikasidir. Tojikiston Respublikasining maydoni 143,1 ming km²ni, aholisi 9,730,000 (2020 yil dekabr ma'lumoti) nafarni tashkil etadi⁵⁶. Ўзбекистон билан черапаси – 1315 кмга чўзилган. Tojikiston Tog'li Badaxshon muxtor viloyati, 2 ta viloyat (So'g'd va Xatlon), 58 ta tuman (shundan 13 tasi respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar), 18 ta shahar, 57 posyolka va 370 ta qishloq jamoalaridan iborat⁵⁷. Davlat tili - tojik tilidir.

Tojikiston mustaqillikning dastlabki yillarida murakkab siyosiy jarayonlarni o'z boshidan kechirdi. Fuqarolar urushi va iqtisodiy-ijtimoiy muammolar sababli Tojikiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish tadbirlari ilk bor 2010 yilda, so'ngra 2015 yilda amalga oshirildi. Ammo, Tojikiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligining hisobotlarida aholining soni bilan bog'liq ma'lumotlar shakllantirib borildi. 2000 yildagi hisobotlarda Tojikiston hududida o'zbeklarning soni 1.016.249 nafarni tashkil etishi va umumiy aholiga nisbatan 16,6 foiz ulushga ega ekanligi qayd etilgan⁵⁸.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida faqatgina Tojikistonda o'zbeklarning soni va ularning aholiga nisbatan salmog'i keskin pasaygan. 1989 yil va 2000 yillarni solishtirib tahlil qiladigan bo'lsak, shu 11 yillik davr mobaynida o'zbeklar soni ko'payish o'rniga 181.592 nafarga kamaygan. Buning omillari sifatida, 1992-1997 yillarda Tojikistonda sodir bo'lgan fuqarolar urushi va uning oqibatlari natijasida sodir bo'lgan demografik jarayonlardagi o'zgarishlar va pasayishlar, aholining tashqi migratsiyaga tortilishi, tojiklashtirish siyosatining amalga oshirilishi va aholini ro'yxatga olish tadbirlarida o'zbeklarning etnik guruhlariga (laqaylar, qo'ng'irotlar, do'rmonlar, qatag'onlar, barlos, yuzlar, minglar, kesamirlar, semizilar-diss.) bo'lishga urinishlarda o'z aksini topadi⁵⁹.

Tojikistonda 2010 yilda amalga oshirilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarida o'zbeklarning soni 2000 yilga nisbatan 89.905 nafarga kamayib, 926.344 nafarni tashkil etgan va umumiy aholining 12,2 foiziga ularning salmog'iga to'g'ri kelgan. 2010 yilda Tog'li Badaxshonda 410 nafar, So'g'd viloyatida 329.614 nafar, Xatlon viloyatida 346.303 nafar, Dushanbe shahrida 48.661 nafar, respublikaga bo'ysunuvchi

⁵⁶ Таджикистан в цифрах 2018. под. ред. Хасанзода Г. Управление оперативной полиграфии ГУ ГВЦ Агентства по статистике при Президенте Республики Таджикистан. Душанбе. 2019. –С. 9-10.

⁵⁷ Статистический сборник. Численность населения Республики Таджикистан на 1 января 2015 года. Агентство по статистике при Президенте Республики Таджикистан. Душанбе – 2015. –С. 13.

⁵⁸ Перепись населения и жилищного фонда Республики Таджикистан 2010 года. (Национальный состав, владение языками и гражданство населения Республики Таджикистан) Том III. Агентство по статистике при Президенте Республики Таджикистан. Душанбе – 2012. –С. 7.

⁵⁹ FERRANDO O. Manipulating the census: Ethnic minorities in the nationalizing states of Central Asia // Nationalities papers. – N.Y., 2008. – Vol. 36, N 3. – P. 489–520; Аарон Эрлих. Таджикистан: от отправителя беженцев к экспортеру рабочей силы // Migration information source. 2006. № 7. –С 7-12. (<https://www.migrationpolicy.org/article/tajikistan-refugee-sender-labor-exporter>)

tumanlarda 201.356 nafar o'zbek millati vakillari istiqomat qilishgan⁶⁰. Jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbeklar soni kamayib borishining bu davrga xos xususiyati bevosita Tojikiston Respublikasining ichki siyosatiga aloqador hisoblanib, "tojiklashtirish" siyosatining ta'siri ostidagi yuz bergan transformatsion jarayonlar natijasidir. Shuningdek, o'zbeklarga aloqador etnik birliklarni boshqa xalq sifatida aholi ro'yxatida qayd etish holati ham qayd etilgan. Masalan, laqaylar, qo'ng'irotlar, do'rmonlar, qatag'onlar, barlos, yuzlar, minglar, kesamirlar, semizilar kabi etnik guruhlar aholi ro'yxatida alohida millat sifatida qayd etilgan. Ammo, aholi ro'yxatining "respublika aholisini millati va ona tili bo'yicha taqsimlash jadvali" da ushbu etnik guruhlarining ona tilisi sifatida o'zbek tili qayd etilgan. Natijada Tojikistonda o'zbek tilini o'zining ona tilisi sifatida qayd etganlarning soni 1.054.726 nafarni tashkil etgan⁶¹. Aholi ro'yxati hujjatlarida o'zbeklar va o'zbek tilida so'zlashadigan fuqarolarning soni orasida 130.382 nafarlik farq yuzaga kelgan.

Keyingi o'n yillikda Tojikiston o'zbeklari sonida o'sish sur'atlari kuzatilib, 2020 yilga kelganda Tojikistonda istiqomat qilayotgan o'zbeklarning soni 1.148.001 nafarga yetgan va umumiy aholining 11,8 foizini tashkil etgan⁶². 2020 yilga kelganda o'zbeklar soni 2010 yilga nisbatan demografik o'sish natijasi 221.657 nafarga ko'paygan.

XX asrning so'nggi yillari va XXI asr dastlabki o'n yilligida O'zbekiston va Tojikiston respublikalari o'tasida chegaraviy muammolar keskinlashuvi, viza cheklovlari, zuv zaxiralari va energetika (elektr toki va gaz) resurslaridan foydalanishdagi kelishmovchiliklar, transport-kommunikatsiya tizimlarida magistral yo'llardan o'tib-qaytishning ta'qiqlangani kabi ziddiyatlar bu mamlakatdagi o'zbeklar odatiy meyoriy hayot tarziga o'z ta'sirini ko'rsatdi⁶³. Aholiga tojik tilida muloqot qilishning shart etib qo'yilishi, So'g'd va Xatlon viloyatlarida o'zbekcha joy nomlarini qayta nomlash harakati, o'zbek tilidagi o'quv qo'llanma va darsliklarining O'zbekistondan kelmay qolishi, Xo'jand-Toshkent, Dushanbe-Samarqand quruqlik transporti orqali qatnovi, Toshkent-Dushanbe yo'nalishida fuqaro aviatsiyasi qatnovi kabilar to'xtatib qo'yilishi kabi noxush holatlar kuzatildi. Hatto qahvaxona va oshxonalardan "O'zbek taomlari" afishalari olinib, O'zbekiston shaharlaridan Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Shahrisabz kabi nomlar bilan ularni atashga o'tildi⁶⁴.

O'zbekiston-Tojikiston chegaralari kuchaytirildi, 1999 yilda ikki davlatning chegara chizig'i minalashtirilib, 2002 yilga qadar tinch aholidan 13 nafar kishi halok bo'ldi, oddiy aholining chorva mollari zarar ko'rdi. "Rels urushi" tufayli Tojikiston

⁶⁰ Перепись населения и жилищного фонда Республики Таджикистан 2010 года. (Национальный состав, владение языками и гражданство населения Республики Таджикистан) Том III. Агентство по статистике при Президенте Республики Таджикистан. Душанбе – 2012. –С. 12-16;

⁶¹ Перепись населения и жилищного фонда Республики Таджикистан 2010 года. (Национальный состав, владение языками и гражданство населения Республики Таджикистан) Том III. Агентство по статистике при Президенте Республики Таджикистан. Душанбе – 2012. –С. 12-16;

⁶² URL: <https://www.joshuaproject.net/countries/TJ>.

⁶³ Муаллифнинг шахсий суҳбат материаллари. И.Юсупов билан суҳбат. 2021 йил 8 ноябрь.

⁶⁴ Джураев Ш. Холодная война Центральной Азии? Вода и политика и узбекско-таджикских отношениях// Понарс Евразия; № 217. Бишкек. 2012. –С. 1-5.

O'zbekistonni qamal qilishda aybladi, hududiy da'volar kelib chiqdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi ziddiyatli to'qnashuvlar 2009, 2011 yillarda ham davom etib, 2011 yilda O'zbekiston Termiz-Qo'rg'ontepa yo'lini berkitdi. Tojikiston Respublikasiga oziq-ovqat, qurilish materiallari, gumanitar yordamlar kelishi qiyinlashdi. Tojikistonda Rog'un GESI qurilishi masalasida O'zbekiston Pozitiviyasi kabilar ham mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zaro hamkorlik aloqlarining yomonlashuvi ikkala tomon ham birdek aybdor bo'lib, umumintaqaviy muammolarni hal etishga o'z manfaatlari va ideologiyasi jihatdan yondashishdi. Davlatlararo va hukumatlararo munosabatlarni xalqaro me'yor va har bir davlat manfaatini hisobga olgan holda muammolarni muzokara bilan hal qilish sari yo'l tutmadi.

1992-1997 yillarda Tojikistondagi fuqarolar urushi davrida tojiklar singari bu mamlakatdagi o'zbeklar ham fojiali voqealarni boshdan kechirishdi. Ushbu urushda halok bo'lganlar soni ma'lumotlarga qaraganda 40 mingdan 100 mingtagacha kabi raqamlarda qayd etilmoqda, 100 ming kishi mayib-majruh bo'ldi yoxud o'z boquvchisidan ajraldi, 50 ming uy-joy vayron etilib, katta miqdordagi oziq-ovqat zaxiralari yo'qotildi, mamlakat 7 mlyard AQSh dollari miqdorda zarar ko'rib, 1 mln kishi chet mamlakatlarga muhojirlikka ketdi, 650 ming sonli aholi mamlakat ichkarisiga ichki migratsiya jarayonlarini boshdan kechirdi⁶⁵.

Ular orasida ming-minglab o'zbeklar ham bo'lib, ular O'zbekiston, Eron, Afg'oniston va qo'shni Markaziy Osiyo respublikalarida ma'lum muddat muhojirlikda jon saqlashga majbur bo'ldilar.

Tojikistondagi birodarkushlikni bartaraf etishda MDH davlatlari qatorida O'zbekiston ham qo'shni tojik xalqiga oziq-ovqat, kiyim-kechak, tibbiy asbob-uskunalar bilan moddiy yordam ko'rsatdi. Harbiy harakatlarni to'xtatish, tinchlikni o'rnatishda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston bittadan xarbiy batalioni Tojikistonga yuborib, harbiy ko'mak ko'rsatishdi. Tadqiqotlarda keltirilishicha, Tojikistonga ko'rsatilgan gumanitar yordamning 51,6 foizi AQSh, 6,2 foizi Germaniya, 5,5 foizi Qozog'iston, 3,9 foizi Rossiya Federatsiyasi, 3,1 foizi Xitoy, 2,9 foizi O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelgan. O'zbekiston Tojikiston fuqarolar urushi girdobiga qolgan yillarda qardosh tojik xalqiga 100 tonna un, 10 tonna guruch, 5 tonna shakar, bir vagon dori-darmon, chodirlar, ko'rpa to'shak, bolalar kiyimlari, oyoq kiyimlari yubordi⁶⁶.

Tojikiston fuqarolari asosan urush harakatlari bartaraf etilganidan so'ng, o'z azaliy joylariga qaytarilgan bo'lsada, ulardan 6 ming nafari Qozog'iston Respublikasida, 16.700 nafari Qirg'iziston Respublikasida, 20 ming nafari Turkmaniston Respublikasida, 39.200 nafari O'zbekiston Respublikasida doimiy

⁶⁵ Мехрали Тошмухаммедов. Гражданская война в Таджикистане и постконфликтов в Таджикистане и востоновления. Санпоро (Япония). – 2004. –С. 15-22; Шарафиева О.Х. Гражданская война в Таджикистане 1990-1997 гг.. – Автореф. дисс. ... на соиск. канд. ист. наук. Томск – 2010. – 28 с; Iraj Bashiri. The History of the civil war in Tajikistan. Boston – 2020. – 29 p.

⁶⁶ Хайдаров Ф., Иномов М. Тожикистон: халқ фожиаси ва алами. Халқ сўзи, 1997 йил 17 октябрь.



yashab qoldi⁶⁷. Biroq ortda qolgan urush o'zbek millatiga mansub Tojikiston fuqarolariga ma'naviy jihatdan unutilmas qayg'u-hasrat, dard-alam asorati qoldirdi. O'zbek millati tojiklar va Tojikistondagi boshqa millatlar bilan hamjihatlikda vayrona uylarni qayta tikladi, xo'jalik hayotini yangidan yo'lga qo'ydi, mamlakat obodonchiligi va rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Tojikiston Respublikasida o'zbeklarning an'anaviy, tinch-osuda hayotiga ta'sir etgan omillardan yana biri ushbu mamlakatda siyosiy qarashlar va g'oyalari turlicha bo'lgan asosan milliy xarakterdagi tashkilotlarning o'ta millatchilikka qaratilgan faoliyati ham bo'lgandi. Ushbu tashkilotlar faoliyati mustaqillik arafasida va istiqbolning keyingi yillarida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va millatlararo munosabatlardagi barqarorlikka o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

"Ro'baro'", "Sitodi najoti Vatan", "Xo'chand", "Ehyon", "Oshkor", "Dirofishi Kofiyon", "Tahdid" kabi jamoat uyushmalari, "Baxtar", "Samarqand", "Kurushi kabar", "So'g'diyon", "Vaxdat", "Payvand" kabi harakat va jamiyatlar, "La'li Badaxshon", "Hisor Shodmon", "Mehri Xatlon", "Zarafshon", "Istaravshon", "Vatan", "Xo'jadiyon", "Xolidilon", "Nosiri Xisrav", xullas, 20 dan ortiq tashkilotlar jamiyat a'zolarini guruhlariga bo'lib yuborishda, milliy ozchilik madaniy markazlari va kompartiyaga oppozitsiya sifatida o'zlarini namoyon etdilar⁶⁸.

Tojikistonda davlat bilan islom diniy ulamolari o'rtasidagi ochiqdan-ochiq mafkuraviy kurashlar, milliy ozchilikning milliy o'zligi va an'anaviy xayot tarzini saqlab qolishdagi xadixsirash xavfi yuzaga keltirdi. Etnoslararo munosabatlarni tinch yo'l bilan jamoatchilik va davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar hamkorligida hal etish, oz sonli millatlarni kamsitmasdan ular huquq va erkinliklarini ta'minlashda muvozanat bir qadar izdan chiqqanligini e'tirof etish kerak.

⁹⁰ Армений Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: Info capital group, 2019. – Б. 114.

⁹¹ Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. – Ташкент. Изд-во АН УзССР, 1956. – С. 80.

⁹² Алексеев А. К. Политическая история Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрор, Санкт-Петербург, 2006. – С. 120.

⁹³ Ахмедов Б.А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.) - Ташкент Фан, 1882. – С. 107

⁹⁴ Мухаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ғ. Каримий, Э.Миркомиллов. Тошкент. “Movarounnahr”, 2016. – Б. 209.

etishi bilan Imomqulixon va Ahmad II o'rtasidagi diplomatik munosabatlar uzilib qolgan⁹⁵.

Usmoniylar imperiyasi Eron bilan munosabatlarning buzilishini istamagan bo'lsada, lekin ba'zi voqealar Murod IV (1623-1640) ni Revon va Bag'dodga yurish qilishga majbur qilgan. Murod IV Imomqulixonga Eronga qarshi birgalikda hujum qilishni taklif qilib, maktub yuborgan⁹⁶. Imomqulixon bu maktubga qanday javob berganligi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar keltirilmagan. Faqat shunisi bizga ma'lumki, bu davrda Imomqulixon va Eron shohi Abbos I o'rtasida diplomatik munosabatlar mavjud bo'lgan⁹⁷.

1624–1625-yillarda Buxoroga Usmoniylar imperiyasidan elchilar kelgan. Elchilikdan ko'zlangan asosiy maqsad Erondan Bag'dod shahrini qaytarib olish bo'lgan. Bundan tashqari, Usmoniylar sultoni Buxoro hukmdoridan safaviy va mo'g'ul hukmdorlariga qarshi birgalikda kurashishga umid qilgan⁹⁸.

Imomqulixon hukmronligining so'nggi yillarida ko'zi ojiz bo'lib qoladi va Balxdan ukasi Nadr Muhammadxonni chaqirib, taxtni topshiradi (1642). Nadr Muhammadxon xonlikda o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha amirlar mavqeyini cheklash yo'liga o'tgan. Xondan norozi bo'lgan amirlar Abdulazizni xon deb taxtga ko'tarishgan. Nadr Muhammadxon ushbu xabarni eshitib, Balx tomon qochgan⁹⁹.

Nadr Muhammad taxtni qaytartib olish maqsadida Boburiylar humdori Shoh Jahondan (1626–1658), Eron shohi Abbos II (1642–1666) va turk sultonidan ko'mak so'ragan. Bu hodisadan so'ng Boburiylar Balx va Badaxshonni egallab, ikki yil davomida bu hududlarni boshqargan. 1647-yilga kelib Balx qayta Nadr Muhammad qo'lga o'tadi¹⁰⁰.

1649-yil 30-martda Nadr Muhammadxon Abdumannon boshchiligidagi elchilarni Istambulga yuborgan. Elchi sulton Mehmed IV (1648–1687) saroyiga qimmatbaho sovg'alarni: 5 ta qimmatbaho qadah, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan qilich va xanjar, 10 ta ajoyib ot, 27 tirsak naqshli oltin mato, oltin bilan bezatilgan egar va jabduq kabi sovg'alarni yuboradi¹⁰¹. Usmoniylar hukmdori ota va o'g'illar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash maqsadida Abdulazizxon va Nadr

⁹⁵ Burton O. The Bukharans: A dinastic, diplomatic and commercial history (1550-1702). Great Britian. CURZON, 1997. – P. 145.

⁹⁶ Saray.M Rus ishgali devrinde Osmanli Devleti ile Türkistan hanliklari arasindaki siyasi münasebetler. - 2. baskı. Ankara: Turk Tarih Kurumu. –2017. S. 10.

⁹⁷ Рахмонкулова З. Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. Тошкент. 2002. –Б. 27.

⁹⁸ Васильев А. Знамя и меч от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI – начало XX вв.) Москва. 2014. – С. 92.

⁹⁹ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, Шарк. 2000. – Б. 261-266.

¹⁰⁰ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, Шарк. 2000. – Б. 266.

¹⁰¹ Burton O. The Bukharans: A dinastic, diplomatic and commercial history (1550-1702). Great Britian. CURZON, 1997. – P. 257.

Muhammadxonga nomalar yo'llagan¹⁰². Bundan tashqari Usmoniylar sultoni Safaviylar shohi Abbos II va Boburiylar hukmdori Shoh Jahonga maktub yozib, Nadr Muhammadxonning hukmronligini qayta tiklashga yordam berishlarini iltimos qilgan¹⁰³. Ammo ushbu harakatlar natija bermaydi, 1651-yilda Subxonqulixon otasidan Balx taxtini tortib oladi va hajga otlangan Nadr Muhammadxon shu yilning yoz oylari o'rtalarida Simnon (Eron) shahrida vafot etgan¹⁰⁴.

Abdulazizxon ko'plab mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan bo'lib, 1675-yilda Usmoniylarning Istanbul shahriga elchilarini yuborgan. Elchilik xatida Abdulazizxon sultondan Balx hokimi Subxonqulixonga qarshi kurashishda yordam berishini so'ragan. Xatga javoban, sulton Abdulazizxonga yordam bera olmasligini bildiradi. Keksayib qolgan Abdulazizxon 1681-yil Makkaga haj safarida bo'lgan paytda vafot etgan¹⁰⁵.

1689-yilda Usmoniylar sultoni Sulaymon II (1687-1691) Buxoro hukmdori Subxonqulixon elchiligiga javoban maktub yuborgan. Maktub Buxoro hukmdori Sayyid Subhonqulixonning sadoqatidan mamnunmiz" deb nomlanib, maktubda Abdulmo'minbiy nomidagi elchini yuborganligi, do'stlik va sadoqat rishtalaridan manmun bo'lganligi, haj farzini ado etish niyati qabul bo'lganligini bildirgan¹⁰⁶.

Bunga javoban Subxonqulixon sultonga maktub yuborib, o'zining Xurosondagi yurishlari haqida aytib o'tgan va shuningdek, qalmoqlarni mag'lubiyatga uchratib Turkistonni qo'l ostiga olganligini ham o'z maktubida bildirib, sultonga birlashish va aloqalarni mustahkamlash zarurligini bildirgan¹⁰⁷.

Muhammad Yusuf Munshiyning „Tarixi Muqimxoniy“ asarida Usmoniylar sultoni Ahmad II (1691-1695) tomonidan ashtarxoniy hukmdor Subxonqulixon nomiga bitilgan maktub keltirilgan. Vengriyalik shaqshunos va sayyoh Armeniy Vamberi yozishicha, Subhonqulixon tomonidan Turkiyaga sovg'a salomlar bilan elchilar ham yuborilgan¹⁰⁸. Sovg'a salomlarga javoban Usmoniylar hukmdori Sulton Ahmad II Mustafo Chovush rahbarligida Buxoroga o'z elchilarini yuborgan. 1102 (1691) yilda kelgan elchilar o'zi bilan birga siyosiy bir maktub ham olib kelishadi.

Muhammad Yusuf Munshiy o'z asarida elchilik haqida to'xtalib, xat bilan bir qatorda Mustafo Chovush elchi sifatida turli xil qimmatbaho toshlar, arab otlari, rangli matolar va boshqa sovg'alar bilan Buxoroga kelganligini qayd etadi. Elchilikdan asosiy maqsad ashtarxoniy hukmdorlari bilan birgalikda Eron shialariga qarshi

¹⁰² Ahmed Faridun Bey. Majmuayi munshoat us-salatin / Istanbul Universitisi Nadir Eserlar kutubhanesi. – № 5946. – Istanbul. 1848-1849. – B. 358-359.

¹⁰³ Ahmed Faridun Bey. Majmuayi munshoat us-salatin / Istanbul Universitisi Nadir Eserlar kutubhanesi. – № 5946. – Istanbul. 1848-1849. – B. 343-357.

¹⁰⁴ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, Шарқ. 2000. – Б. 266.

¹⁰⁵ Васильев А. Знамя и меч от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI – начало XX вв.) Москва. 2014. – С. 92.

¹⁰⁶ Osmanlı devleti ile Kafkasya, Türkistan ve Krim hanlıkları arasındaki münâsebetlere dâir arşiv belgeleri. (1687–1908 Arası) Ankara-Haziran. 1992. – S. 62.

¹⁰⁷ Васильев А. Знамя и меч от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI - начало XX вв.) Москва. 2014. – С. 92.

¹⁰⁸ Армений Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: Info capital group, 2019. – Б. 140.

birgalikda kurashish edi. Elchi qabul qilinib, alohida ehtirom ko'rsatilgan. Muhammad Yusuf Munshiy asarida *"Hech bir davrda Rum poytaxti Istanbul, Qoshg'ar, Xitoydan elchilar kelgan emas edi, bularning barchasi oliy hukmdor Subhonqulixon davriga kelgandagina amalga oshirildi"*¹⁰⁹, — deb yozadi.

Muhammad Amin Buxoriy o'zining „Muhit-at tavorix“ asarida Rum (Turkiya) va Qoshg'ar tomonidan xon (Subxonqulixon nazarda tutilyapti U.B) huzuriga elchi kelganligi aytib o'tilgan. Asarda qayd etilishicha, Rumning elchisi Subxonqulixonga Muhammad Hungar¹¹⁰ning salomini topshirgan. Elchilar bir yil davomida Dor as-salom Buxoroda istiqomat qiladilar. Undan so'ng, Subxonqulixon Mo'minboy Yobuni Usmoniylar imperiyasi elchisiga hamroh qilib jo'natgan¹¹¹.

Ahmad II o'z xatida Subhonqulixonga sog'liq tilab, yerni kofir faranglardan va qizilboshlardan tozalash, Eronga qarshi ittifoq tuzish kerak ekanligini ta'kidlaydi. U xatida Yevropa ustidan usmoniylarning g'alabalarini, yevropaliklar O'rxon viloyatiga kelib islom ahlining mulkiga tajovuz qilganliklari, ularga qarshi qarshi tura olgani yozib o'tadi. U faranglar ustiga yengilmas askarlarini yuborishini va birgalikda harakat qilish kerak ekanligi, go'zal Iroq vodiylarini g'ayridinlardan tozalash kabi takliflarni o'z xatida yozgan¹¹².

Armeniy Vamberi yozishicha, „Subhonqulixon har qancha dunyo parast musulmon bo'lsada, xalifani judayam hurmat qilsada, qaysari Rumning (Usmoniylar sultonligini nazarda tutyapti U.B) yuqorida zikr etilgan dabdabali maktubga javoban o'zining behisob o'zbek askarlarini Amudaryoning narigi tomoniga o'tkaza olmadi“¹¹³ - deb yozadi. Subxonqulixon ushbu maktubga javoban hech qanday tadbirlar amalga oshira olmadi. Chunki bu davrda xonlikdagi ichki ziddiyatlar bunga yo'l qo'ymagan.

Tarixdan ma'lumki, Balx Ashtarxoniylar sulolasining ikkinchi poytaxti bo'lgan. Balxni taxtni vorisi, ba'zan uning nomidan davlat ishlarini otaliq boshqarib turgan. Balx alohida xonlik sifatida mustaqil siyosat ham olib borgan. Bu esa Ashtarxoniylar sulolasining zaiflashuvidan dalolat beradi. Balxda hukmronlik qilgan Muhammad Muqimxon (1695-1707) Usmoniylar imperiyasi sultoni Ahmad III (1703-1730) ga o'z elchilarini yuborib, mustaqil tashqi siyosat olib borgan. U Boqibiy Turkman boshchiligidagi elchilarni Usmoniylar imperiyasi sultoni Ahmad III huzuriga yuborgan¹¹⁴. Ushbu elchilik maktubi Xoja Mir Muhammad Salimning "Silsilat us-

¹⁰⁹ Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. – Ташкент. Изд-во АН УзССР. 1956. – С. 154.

¹¹⁰ Muhammad Hungar - Muhammad Yusuf Munshiyning ma'lumotlariga ko'ra, Ahmad II (1691-1695) hisoblanadi. Bu haqida qarang: Мухаммад Амин Бухорий. Мухит ат-таворих. Форс тилидан таржима, кириш ва изоҳлар муаллифлари: Д.Ю. Юсупова ва У. Ҳамроев. Тошкент, Фан. 2020. – Б. 220.

¹¹¹ Мухаммад Амин Бухорий. Мухит ат-таворих. Форс тилидан таржима, кириш ва изоҳлар муаллифлари: Д.Ю. Юсупова ва У. Ҳамроев. Тошкент: Фан. 2020. – Б. 102.

¹¹² Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. –Ташкент: Изд-во АН УзССР. 1956. – С. 154-155.

¹¹³ Армений Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: Info capital group, 2019. – Б. 143.

¹¹⁴ Зияев А.Х. "Силсилат ас-салатин" как исторический источник/ Дисс.на соиск. Уч степ. канд. ист.наук. – Ташкент. 1990. – С. 197.

salotin" asarida keltirilgan¹¹⁵. Maktubda Muhammad Muqimxon bobosi Subxonqulixonning vafoti haqida xabar berib, Ubaydullaxon II ni Buxoro amirlari qo'llab-quvvatlashi tufayli taxtni egallab olganligidan norozi ekanligini, valiahd sifatida Buxoro taxtni u egallashi kerak ekanligini bildirgan¹¹⁶. Maktub oxirida, Balxda Muhammad Muqimxon o'z nomiga xutba o'qilganligi yozilgan¹¹⁷.

1703-yilda¹¹⁸ Ashtarxoniylar hukmdori Ubaydullaxon II (1702-1711) Istambulga Xoja Mahmud Amin boshchiligidagi elchilarni yuborib, sulton Ahmad III (1703-1730) taxtga kelganligi bilan tabriklagan. Ubaydullaxon II maktubida o'zining erishgan muvaffaqiyatlari ya'ni qalmoqlar va qozoq qabilalari ustidan g'alabasi va Xorazmga yurishlari haqida aytib o'tgan¹¹⁹.

Ubaydullaxon II maktubida shunday yozadi: *"Dinimiz dushmanlariga qarshi kurashmoqdamiz. Musulmonlar qayerda bo'lsa ham, bir-birlariga yordam bermoqlari lozim. Bu dinimizning amridir. Saltanatimiz dushmanlari bilan mujodala qilishga tayyormiz. Bu bizning vazifamizdir"*¹²⁰. Usmoniylar sultoni Ahmad III ushbu maktubga javoban shunday yozgan: *"Elchingiz vositasida bizlarga do'stlingizni izhor etib, yozgan nomangizni oldik. Qadimiy munosabatlarimizning davom etishi uchun biz ham duo qilamiz"*¹²¹. Ubaydullaxon II ushbu maktubga javoban yana bir elchilikni yuborib, maktubda shunday yozgan: *"Janob nomangiz uchun rahmat. Mamlakatimiz fuqarolari yaxshi yashashi uchun harakat qilmoqdamiz. Bizlar bir-birimizning yordamimizga muhtojdirmiz"*¹²².

1711-yilda Ubaydullaxon II dan so'ng taxtni, Abulfayzxon egallagan. Abulfayzxon (1711–1747) 1719-yilda Usmoniylar imperiyasi poytaxti Istanbulga elchi qilib qo'riqchiboshi Oллоhberdini yuborgan. Abulfayzxonning maktubida shunday yozgan: *"Otamdan qolgan taxtni islom an'analariga ko'ra xalq manfaatlarini ustun qo'yib boshqarmoqdamiz. Sizga bo'lgan hurmatimiz kundan-kunga ortmoqda. Elchimiz ahvolimiz to'g'risida yanada keng ma'lumot beradi"*. Usmoniylar sultoni Ahmad III Abulfayzxoniga

¹¹⁵ Хожи Мир Мухаммад Салим. Силсилат ус-салотин. Қўлёзма Бодлиян кутубхонаси, Ouseley 269. — Б. 328a-331a.

¹¹⁶ Зияев А.Х. "Силсилат ас-салатин" как исторический источник/ Дисс.на соиск. Уч степ. канд. ист.наук. — Ташкент. 1990. — С. 197.

¹¹⁷ Зияев А. Переписка правителей Шейбанидов и Аштарханидов с Ираном и Индией, сб. Исследования по истории, истории науки и культуре народов Средней Азии. Ташкент, "Фан", 1993. — С. 109; Зияев А.Х. "Силсилат ас-салатин" как исторический источник/ Дисс.на соиск. Уч степ. канд. ист.наук. — Ташкент. 1990. — С. 198.

¹¹⁸ Belgelerle Türkiye Özbekistan İlişkileri – O'zbekiston Turkiya aloqaları hujatlarda, İstanbul, 2022. B. 22.

¹¹⁹ Васильев А. Знамя и меч от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI - начало XX вв.) Москва. 2014. — С. 97

¹²⁰ Рахмонкулова З. Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. Тошкент. 2002. — Б. 30.

¹²¹ Saray.M Rus işgali devrinde Osmanlı Devleti ile Türkistan hanlıkları arasındaki siyasi münasebetler. - 2. baskı. Ankara: Türk Tarih Kurumu. 2017. — S. 16. *Bu haqida qarang:* Рахмонкулова З. Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. Тошкент. 2002. — Б. 30.

¹²² Saray.M Rus işgali devrinde Osmanlı Devleti ile Türkistan hanlıkları arasındaki siyasi münasebetler. — 2. baskı. Ankara: Türk Tarih Kurumu. 2017. — S. 16.

yo'llagan javob maktubida shunday yozilgan: *"Elchingiz orqali yuborgan maktubingizni oldik. O'qib juda sevindik. Do'stligimizning boqiy bo'lmog'i uchun harakat qilamiz"*¹²³.

1720-yilda Abulfayzxon ikkinchi marta Abulfayzxon Xo'ja Avaz Muhammad boshchiligidagi elchilarni Istanbulga yuborgan. Maktubda Abulfayzxon do'stlik va sadoqat haqida o'z fikrlarini bildirgan.

1721-yilda Abulfayzxon uchinchi marta Abdusamiy Yasovulxon ismli elchini Usmoniylar imperiyasiga elchi qilib jo'natgan. Abulfayzxon elchi orqali Eronga nisbatan adovatini bildirgan. Usmoniylar sultoni javob maktubida biror-bir amaliy faoliyat to'g'risida to'xtalmagan¹²⁴.

Abulfayzxon 1722-yilda Ne'matullo ismli elchini Istambulga yuborgan. Elchilik maktubida shunday yozilgan: *"Bizga ruslar va qalmoqlarning bir bo'lib islom ahliga dushmanlik qilgani ma'lum bo'ldi. Biz dindosh qardoshlarmiz, lekin ular bizga dushmanlik qilmoqdadir. Endi bizning maqsadimiz bu tarafdin biz, u tarafdin sizlar birgalikda bu ikki kofirlarga qarshi kurashmoqdir"*. Abulfayzxoniga Usmoniylar sultoni yuborgan maktubda shunday yozilgan: *"Biz ham xalqingizning tinch, osoyishta yashashi tarafdorimiz"*¹²⁵. Yuqoridagi Abulfayzxonning qalmoqlar va ruslarga qarshi kurashish borasidagi fikriga Usmoniylar sultoni biror fikr ham bildirmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. –Ташкент: 1956. – 303 с.
2. Ахмедов Б.А. История Балха (XVI- первая половина XVIII в.) - Ташкент Фан, 1982.- 295 с.
3. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв. (письменные памятники). – Ташкент: Фан, 1985. – 259 с.
4. Зияев А.Х. "Силсилат ас-салатин" как исторический источник/ Дисс.на соиск. Уч степ. канд. ист.наук. – Ташкент. 1990.-205 с.
5. Зияев А. Переписка правителей Шейбанидов и Аштарханидов с Ираном и Индией, сб. Исследования по истории, истории науки и культуре народов Средней Азии. Ташкент, "Фан", 1993. 99–109 с.
6. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2000. – 368
7. Рахмонкулова З. Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация Тошкент

¹²³ Рахмонкулова З. Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. Тошкент. 2002. – Б. 32.

¹²⁴ Рахмонкулова З. Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. Тошкент. 2002. – Б. 32.

¹²⁵ Saray.M Rus işgali devrinde Osmanlı Devleti ile Türkistan hanlıkları arasındaki siyasi münasebetler. – 2. baskı. Ankara: Türk Tarih Kurumu. 2017. – S. 18.

8. Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ғ. Каримий, Э.Миркомиллов. Тошкент: "Movarounnahr", 2016. – 384 б.
9. Муҳаммад Амин Бухорий Мухит ат-таворих / Таржима, кириш ва изоҳлар муаллифи Д.Ю.Юсупова ва У.Ҳамроев Тошкент: "Fan" нашриёти,
10. Ҳожи Мир Муҳаммад Салим. Силсилат ус-салотин. Қўлёзма Бодлиян кутубхонаси, Ouseley 269. – 339 б.
11. Юсупова Д. Муҳаммад Юсуф Мунший ва унинг "Тазкирайи Муқимхоний" асари. Ўзбекистон тарихи хрестоматияси 3-жилди. –Тошкент.: «Fan va texnologiya», 2014. - 43-44 бетлар.
12. Ahmed Faridun Bey. Majmuayi munshoat us-salatin / Istanbul Universitisi Nadir Eserlar kutubhanesi. - № 5946. – Istanbul. 1848-1849.
13. Cengiz Orhonlu Osmanlı Tarihine Âid Belgeler ve telhîsler. (1597-1607). Istanbul Üniversitesi Edebiyet Fakültesi Basımevi, Istanbul. 1970. 149. s.
14. Osmanlı devleti ile Kafkasya, Türkistan ve Krim hanlıkları arasındaki münâsebetlere dâir arşiv belgeleri. (1687-1908 Arası) Ankara-Haziran. 1992. 469.
15. Belgelerle Osmanli- Türkistan ilişkileri (XVI-XX Yüzyıllar). Ankara:
16. Belgelerle Türkiye Özbekistan İlişkileri – O'zbekiston Turkiya aloqaları hujatlarda, İstanbul, 2022. 365. s.
17. Saray.M Rus işgali devrinde Osmanli Devleti ile Türkistan hanliklari arasindaki siyasi münasebetler. - 2. baskı. – Ankara. Turk Tarih Kurumu, 2017. 200
18. Burton A. The Bukharans. A dynastic, diplomatic and commercial history 1550-1702. Curzon, 1997. – 664 p.
19. Алексеев А. К. Политическая история Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрор, Санкт-Петербург, 2006. 229 с.
20. Васильев А. Знамя и меч от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI - начало XX вв.) Москва 2014. 353 с.
21. Армений Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: Info capital group, 2019. – 254 б

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Umidjon Baqoyev

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi

1-bosqich magistranti. Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

umidjonbaqoyev7@gmail.com

The background of the page is an abstract composition of concentric, hand-painted circular brushstrokes in various shades of blue, ranging from light sky blue to deep navy blue. The strokes are thick and textured, with visible bristles and some splatters, creating a dynamic, swirling effect. In the center of this composition is a large, bright white circle that serves as a backdrop for the text.

**08.00.00 – IQTISODIYOT
FANLARI**



MAMLAKATIMIZDAGI INVESTITSION MUHITNI BAHOLASH USULLARI VA TAHLILI



Rashidov Mels Karimovich
Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti, *Navoiy*



Toshimov Shahzodjon Burxon o'g'li
Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti, *Navoiy*

Annotatsiya.

KIRISH: Mamlakatimizdagi biznes muhitni tahlil qilishdagi asosiy omillar va ularning bugungi kundagi holati haqida tahlil qilingan. Tahlillarda Jahon bankining ma'lumotlari va Doing Business reytinggida mamlakatimizning ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan. Investitsion muhitni yaxshilash uchun qilinishi lozim bo'lgan jarayonlar bo'yicha taklif va mulohazalar keltirilgan.

MAQSAD: Mamlakatimiz investitsiya salohiyatini yanada oshirish, bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy muhitni yaxshilash va ularning doimiy tahlilini o'rganib borish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Investitsiyalarga oid O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida investitsion jarayonlarning davlat va bozor mexanizmlari asosida tartibga solishning o'zaro nisbati mustahkamlab qo'yilgan, unga ko'ra, davlat investitsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlarning xo'jalik faoliyati va ularning o'zaro munosabatlariga aralashmagan holda investitsion salohiyatning samarali generatsiyasiga sharoit yaratish orqali investitsion jarayonlardagi o'z ishtirokini belgilab oladi.

XULOSA: Investitsion muhitning umumiy indeksi hisobi muayyan bir davr mobaynida mamlakatdagi investitsion muhit bilan bog'liq o'zgarishlar darajasini dinamikada baholash imkoniyatini beradi. Bu esa mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash va uning rivojiga g'ov bo'layotgan nozik jihatlarni, muammolarni aniqlashga, investitsion muhitni xorijiy davlatlar va xalqaro standartlar bilan taqqoslashga, investitsion jozibadorlik va faollikni yanada yaxshilashning kelgusidagi imkoniyatlarini belgilashga yordam beradi.

Mamlakatimizda investitsion muhitni yaxshilash uchun quyidagilarga yuqori e'tibor qaratish lozimdir:

Birinchidan, mamlakatdagi qonunlar ustuvorligining ta'minlanish darajasi;

Ikkinchidan, mamlakatdagi fiskal siyosatning amalga oshirilish darajasi;

Uchinchidan, mamlakatda biznes muhiti uchun yaratiladigan imkoniyatlarning amalga oshirilishidagi to'siqlarning mavjud yoki mavjud emasligi.

Tayanch iboralar: Samara, mezon, iqtisodiy ko'rsatkichlar, modernizatsiya, aholining bandlik darajasi, kiritiladigan investitsiyalar, baholash mezonlari, korrelyatsiya, erkin iqtisodiy zona.

МЕТОДЫ ОЦЕНКИ И АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Проанализированы основные факторы анализа деловой среды в нашей стране и их современное состояние. В анализе приведены данные Всемирного банка и показатели нашей страны в рейтинге Doing Business. Представлены предложения и комментарии по процессам, которые следует осуществить для улучшения инвестиционного климата.

ЦЕЛЬ: Дальнейшее повышение инвестиционного потенциала нашей страны, улучшение экономической среды в условиях рыночных отношений и изучение их постоянного анализа.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В законодательстве Республики Узбекистан об инвестициях закреплено взаимное соотношение регулирования инвестиционных процессов на основе государственных и рыночных механизмов, согласно которому экономическая деятельность субъектов, осуществляющих

государственную инвестиционную деятельность, и их определяет ее участие в инвестиционных процессах путем создания условий для эффективной генерации инвестиционного потенциала без вмешательства в их взаимные отношения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Расчет общего индекса инвестиционной среды дает возможность динамически оценить уровень изменений инвестиционной среды в стране в течение определенного периода. Это поможет улучшить инвестиционную среду в стране и выявить тонкости и проблемы, препятствующие ее развитию, сравнить инвестиционную среду с зарубежными странами и международными стандартами, а также определить будущие возможности для дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности и активности.

В целях улучшения инвестиционной среды в нашей стране необходимо уделять большое внимание следующему:

Во-первых, уровень обеспечения верховенства закона в стране;

Во-вторых, уровень реализации бюджетной политики в стране;

В-третьих, наличие или отсутствие препятствий в реализации возможностей, созданных для бизнес-среды в стране.

Ключевые слова: Эффективность, критерий, экономические показатели, модернизация, уровень занятости населения, инвестиции, критерии оценки, корреляция, свободная экономическая зона.

ASSESSMENT METHODS AND ANALYSIS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN OUR COUNTRY

Annotation.

INTRODUCTION: The main factors in the analysis of the business environment in our country and their current state have been analyzed. The data of the World Bank and the indicators of our country in the Doing Business rating have been cited in the analysis. Proposals and comments on the processes that should be carried out to improve the investment environment are presented.

AIM: To further increase the investment potential of our country, to improve the economic environment in the conditions of market relations and to study their constant analysis.

MATERIALS AND METHODS: In the legislation of the Republic of Uzbekistan on investments, the mutual ratio of regulation of investment processes based on state and market mechanisms has been strengthened, according to which, economic activities of subjects engaged in state investment activities and their determines its participation in investment processes by creating conditions for the effective generation of investment potential without interfering in their mutual relations.

CONCLUSION: The calculation of the general index of the investment environment provides an opportunity to dynamically assess the level of changes related to the investment environment in the country during a certain period. This will

help to improve the investment environment in the country and to identify the subtleties and problems that hinder its development, to compare the investment environment with foreign countries and international standards, and to determine the future opportunities for further improvement of investment attractiveness and activity.

In order to improve the investment environment in our country, it is necessary to pay great attention to the following:

First, the level of ensuring the rule of law in the country;

Second, the level of implementation of fiscal policy in the country;

Thirdly, the presence or absence of obstacles in the implementation of opportunities created for the business environment in the country.

Key words: Efficiency, criterion, economic indicators, modernization, employment rate of the population, investments, evaluation criteria, correlation, free economic zone.

*D*astlab, har bir mamlakat o'zida investorlarni jalb qilish uchun biznes muhitni yaxshilashga e'tibor qaratadi. Buning uchun esa xalqaro va yuqori nufuzga ega jahon reytinglarida yaxshi ko'rsatkichlarni qayt etib borishi lozim. Biznes muhitini yaxshilash uchun avvalo, mamlakatda biznes yuritish omillarini va ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni yaxshilash lozimdir. Oson biznes muhiti- bu har qanday investorni o'ziga jalb etuvchi asosiy omildir.

Investitsiyalarga oid O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida investitsion jarayonlarning davlat va bozor mexanizmlari asosida tartibga solishning o'zaro nisbati mustahkamlab qo'yilgan, unga ko'ra, davlat investitsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlarning xo'jalik faoliyati va ularning o'zaro munosabatlariga aralashmagan holda investitsion salohiyatning samarali generatsiyasiga sharoit yaratish orqali investitsion jarayonlardagi o'z ishtirokini belgilab oladi.


Investitsion salohiyat va uni tashkil qiluvchi agregatlarning to'laqonli samaradorligini ta'minlashda qulay investitsion muhitni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda nufuzli xalqaro tashkilotlar, institutlar va agentliklar investitsion muhitni baholashda uchta (iqtisodiy-matematik usul, faktorli tahlil usuli, ekspert baholash) usulardan birini yoki ularning kombinatsiyasini qo'llaydilar. Turli xil metodik yondashuvlarni qo'llash ayni bir davlat yoki davlatlarning investitsion muhitini baholashda turli xil natijani beradi. Bu holat tahlil jarayonida baholash va turli xil omillarni hisobga olish metodikasini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi. Mavjud metodikalarning tanqidiy tahlili investitsion muhitni miqdor jihatdan baholashni integral ko'rsatkichlar yordamida hisob-kitob qilish zarurati mavjudligini ko'rsatib turibdi. Mamlakatning investitsion muhiti bir tomondan investitsion jozibadorlikning xususiy indikatorlari tizimi, ikkinchi tomondan, umumiy integral indeksga chiquvchi investitsion faollik indikatorlari bilan baholanishi lozim.

Investitsion jozibadorlikni baholash uchun quyidagi: makroiqtisodiy, tabiiy-demografik, huquqiy-meyoriy va axborot tarzidagi xususiyy indikatorlar qo'llanilishi zarur. Investitsion muhitni ifodalovchi ikkinchi ko'rsatkich bo'lib, iqtisodiyotda investitsiyalar o'sish sur'atini ta'minlovchi real o'zgarishlar hisoblanadi. Bu yerda asosiy xususiyy indikatorlar bo'lib, quyidagilar xizmat qiladi: asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning o'sishi, xorijiy investitsiyalar, korxonalar investitsiyalari, aholi investitsiyalari, banklar investitsiyalari. Investitsion muhit holatini makroko'lamda baholash metodikasini investitsion jozibadorlik va faollikni ifodalovchi omillarning integral tahlilini tuzish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimiz bugungi kunda biznes yuritish oson bo'lgan mamlakatlar reytingi (Doing Business)da 69-o'rinni band etib kelmoqda (1-rasm).

1-rasm.

Biznes yuritish oson bo'lgan mamlakatlar reytingi (Doing Business)



Manba: World bank


Mamlakatimizda ushbu ko'rsatkichni yaxshilash maqsadida 2017-yilning dastlabgi oylaridan boshlab, sezilarni ishlar olib borilmoqda. Buni "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasidagi investorlar ham bir necha bor ta'kidlashdi.

Biznes muhitini yaxshilash uchun tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish tizimini yanada yaxshilash, fiskal siyosatni onlayn va raqamlashgan tizimga to'liq o'tishini ta'minlash lozimdir. Buning uchun esa, yana bir asosiy element mamlakatdagi qonun ustuvorligi indeksini yaxshilash va unga salbiy ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish ustida ishlar olib borish lozimligidir. Global davrda har bir mamlakat bu ko'rsatkichni

yaxshilashga shubhasiz harakat qiladi. Investorlar esa, qaysi davlatda qonun ustuvorligi indeksi ijobiy bo'lsagina shu davlat tomon intilishadi.

Bugungi kunda qonun ustuvorligi indeksini yaxshilash uchun mamlakatda ijro intizomi va qonunlarning ijro nazoratini yaxshilash talab etiladi. Buning uchun esa, mamlakatdagi qonun chiqaruvchi va ijro e'tuvchi organlar faoliyatini tubdan yaxshilashga e'tibor qaratish lozimdir. Qonun ustuvorlik indeksida bugungi kunda mamlakatimiz- 7 indeksga ega.


2-rasm.



Manba: Gallup 2020

Ikkinchi o'rinda esa, investorlar e'tibor qaratadigan asosiy jihatlardan yana biri bu- mamlakatdagi soliq siyosatidir(3-rasm).

3-rasm.



Manba: World bank

Mamlakatimiz soliq yukining reyting darajasida 11,5 reyting darajasiga ega holda-mo'tadil darajaga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rashidov M.K. World experience in the development of free economic zones "South Asian Academic Research Journals» India. Page 19-28.// ISSN: 2249-877X Vol. 8 Issue 9, September 2018 Impact Factor: SJIF 2017 = 5.169
2. Rashidov M. K. Structural aspects of free economic zones //Gospodarka i Innovatsie. – 2023. – T. 34. – С. 119-123.
3. Рашидов М. К., Бақоев Ҳ.Н. Эркин иқтисодий зоналар фаолияти самарадорлик кўрсаткичларининг эконометрик таҳлили //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали.-2019.- Т. 1.
4. Рашидов М. Мировой опыт развития свободных экономических зон //Экономика и инновационные технологии. -2018. №. 5. – С. 126-140.
5. Рашидов М. Минтақаларда эркин иқтисодий зоналар фаолиятини такомиллаштиришнинг долзарблиги. v.2, n.1, 2022. journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/380.
6. Rashidov M.K. "Erkin iqtisodiy hududlarning mazmun – mohiyati va hududlar rivojlanishiga ta'siri"//Iqtisod va moliya ilmiy – amaliy jurnali mavzusida 2012 yil №3 son 50-54-b.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Rashidov Mels Karimovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Manzil: O'zbekiston, 200100, Navoiy shahri, G'alaba ko'chasi
mels_rashid_k@mail.ru
orcid.org/0009-0006-4587-095X

Toshimov Shahzodjon Burxon o'g'li,

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti assistenti
Manzil: O'zbekiston, 200100, Navoiy shahri, G'alaba ko'chasi



SOLIQ RISKLARINI BOSHQARISHNING MILLIY VA XALQARO TAJRIBASI



Qodirov Hasan Do'stqobilovich

Muzrabot tumani soliq inspeksiyasi, Surxandaryo

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada soliq riskining zamonaviy tushunchasi va turlari, korxonalarda ularni boshqarishning ob'ektiv zarurligi, shuningdek, bu boradagi ilg'or xalqaro tajriba va amaliyotlar haqida so'z yuritilgan.

MAQSAD: Aholi orasida soliq va soliq riski tushunchalari haqida ilmiy tushunchalar shakllantirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Soliq riskiga birmuncha kengroq ta'rif V.N.Yevstigneyev tomonidan taklif etilgan bo'lib, "konkret soliq to'lovchi uchun soliqlarga tortish sohasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan noqulay oqibatlarni baholash" soliq riski sifatida aks ettiriladi, lekin bu mulohaza soliq sanksiyasi qo'llanilishi bilan bog'lanadi.

Boshqa tomondan soliq risklarini aniqlashda soliq sanksiyalaridan tashqari moliyaviy yo'qotishlar ham bo'lishi mumkinligi haqida D.N.Tixonov va L.G.Lipniklar alohida to'xtalib, bunda "soliq riski pul ekvivalentida aks etadigan soliqlarni to'lash va optimallashtirish jarayoni bilan bog'liq yo'qotish" sifatida tushuntiriladi.

Maxsus adabiyotlarda soliq riski tushunchasining terminologik asoslari yo'qligi soliq risklarini baholashning nazariy asoslarini turli xil nuqtai nazarlardan ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq qilib qo'yadi. Ba'zan soliq risklarini tashkil etuvchi tashqi jihatlar alohida olinib, soliq riski sifatida yangi soliq to'lovlarining amalga kiritilishi, to'lov shartlari va stavkalarining o'zgarishi, soliq imtiyozlarining bekor qilinishi va boshqa shu kabilar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladigan risklar tushuniladi.

XULOSA: Soliq risklarini samarali boshqarishni tashkil etish uchun soliq risklarini aniqlash va baholash, ularga ta'sir etish, ya'ni kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda soliq qonunchiligidagi munozarali holatlarni o'rganib chiqish, mavjud risklar monitoringini olib borish, risklarning tasniflanishi va uning oqibatlarini tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, soliq risklariga ta'sir etishda risklarni kamaytiruvchi usullarni ishlab chiqish, mavjud risklarni turli xil o'xshash holatlar bilan solishtirish va maqbulini tanlash, risklarning kamayishini ta'minlovchi eng yaxshi va samarali usullarni amaliyotga joriy etilishi soliq risklarini boshqarishda sezilarli ijobiy natijalarga olib keladi.

Kalit so'zlar: Soliq risklari, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, soliq yuki, ikki yoqlamala soliqqa tortishni oldini olish, ofshorlar, soliq to'lovchilar, soliq maslahatchilari, bitimlar.

НАЦИОНАЛЬНЫЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ НАЛОГОВЫМИ РИСКАМИ

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматриваются современное понятие и виды налоговых рисков, объективная необходимость управления ими на предприятиях, а также передовой международный опыт и практика в этом отношении.

ЦЕЛЬ: Формировать у населения научное представление о понятиях налога и налогового риска.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Несколько более широкое определение налогового риска было предложено В. Н. Евстигнеевым, что отражается как «оценка неблагоприятных последствий, которые могут возникнуть для конкретного налогоплательщика в области налогообложения», но это рассмотрение связано с применением налоговых санкций.

С другой стороны, Д.Н.Тихонов и Л.Г.Липник особо подчеркивали возможность финансовых потерь помимо налоговых санкций при определении налоговых рисков, где «налоговый риск – это потери, связанные с уплатой

налогов и процессом оптимизации, что отражается в денежный эквивалент» объясняется так.

Отсутствие терминологических основ понятия налогового риска в специальной литературе делает целесообразным рассмотрение теоретических основ оценки налогового риска с разных позиций. Иногда внешние аспекты, составляющие налоговые риски, выделяются отдельно и под налоговым риском выступают в связи с осуществлением новых налоговых платежей, изменением условий и ставок уплаты, отменой налоговых льгот и т.п. Под рисками понимаются внешние аспекты, составляющие налоговые риски.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Для организации эффективного управления налоговыми рисками важно выявлять и оценивать налоговые риски, влиять на них, то есть принимать меры по их снижению. В этом случае необходимо изучить спорные случаи в налоговом законодательстве, отслеживать существующие риски, классифицировать риски и анализировать их последствия.

Кроме того, разработка риск-снижающих методов воздействия на налоговые риски, сравнение существующих рисков с различными аналогичными ситуациями и выбор оптимальной, внедрение лучших и наиболее эффективных методов снижения рисков приведут к значительным положительным результатам в управлении налоговыми рисками. .

Ключевые слова: Налоговые риски, налоговая политика, налоговое администрирование, налоговое бремя, предотвращение двойного налогообложения, офшоры, налогоплательщики, налоговые консультанты, сделки.

NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE OF TAX RISK MANAGEMENT

Annotation.

INTRODUCTION: This article discusses the modern concept and types of tax risk, the objective necessity of their management in enterprises, as well as advanced international experience and practices in this regard.

AIM: To form a scientific understanding of tax and tax risk concepts among the population.

MATERIALS AND METHODS: A somewhat broader definition of tax risk was proposed by V. N. Yevstigneev, which is reflected as "the assessment of unfavorable consequences that may arise for a specific taxpayer in the field of taxation", but this is consideration is connected with the application of tax sanction.

On the other hand, D.N. Tikhonov and L.G. Lipnik specifically emphasized the possibility of financial losses in addition to tax sanctions when determining tax risks, where "tax risk is a loss related to the payment of taxes and the optimization process, which is reflected in the monetary equivalent. " is explained as.

The lack of terminological foundations of the concept of tax risk in special literature makes it appropriate to consider the theoretical foundations of tax risk

assessment from different perspectives. Sometimes the external aspects that constitute tax risks are taken separately and appear as a tax risk in connection with the implementation of new tax payments, changes in payment terms and rates, cancellation of tax benefits, etc. risks are understood.

CONCLUSION: In order to organize effective tax risk management, it is important to identify and assess tax risks, to influence them, that is, to take measures to reduce them. In this case, it is necessary to study controversial cases in tax legislation, monitor existing risks, classify risks and analyze their consequences.

In addition, the development of risk-reducing methods for influencing tax risks, comparing existing risks with various similar situations and choosing the optimal one, and implementing the best and most effective methods for reducing risks will lead to significant positive results in tax risk management. .

Key words: Tax risks, tax policy, tax administration, tax burden, prevention of double taxation, offshore, taxpayers, tax consultants, transactions.

Mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish hisobidan tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, soliq-byudjet siyosatini yana-da chuqurlashtirish, yirik va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Mazkur vazifalarni bajarishda yetakchi iqtisodchilar tomonidan xorijiy davlatlarda olib borilayotgan soliq siyosati va soliq tizimining amaldagi holati tahlilini olib borish hamda ulardagi ilg'or tajribalarni milliy soliq tizimiga qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ushbu maqolada rivojlangan chet mamlakatlar soliq tizimlarini tahlil qilib, O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni berishni lozim topdik.

Rivojlangan mamlakatlar soliqqa tortish bo'yicha nisbatan ko'proq tajribaga egadirlar, chunki ularda zamonaviy ko'rinishdagi soliq tizimi o'tgan asrning 60-70 yillarida shakllangan. O'zbekistonda esa mustaqillikka erishgandan so'ng soliq tizimi yangidan shakllantirildi va bugungi kunda islohotlar natijasida mo'tadil tizimga aylandi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan chet el mamlakatlarida keng imtiyozlar va chegirmalarga ega bo'lgan progressiv soliq stavkali to'g'ri soliqqa tortish mexanizmi yetakchilik qiladi. Chet mamlakatlarning byudjetni shakllantiruvchi asosiy soliq stavkalari darajasi O'zbekiston soliq stavkalariga nisbatan ancha yuqoridir. Ayrim soliqlar masalan, meros va hadya solig'i O'zbekiston soliq tizimida mavjud emas.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliqlarni rag'batlantiruvchi rolini oshirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017—2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"dagi iqtisodiyotni rivojlantirish va

liberallashtirish nomli uchinchi ustuvor yo'nalishida soliq yukini kamaytirish va soliqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga investitsiyalarni faol jalb qilish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati – insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanishi belgilangan.

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan to'lanadigan soliqlar nechog'lik ahamiyatli bo'lsa, mazkur soliqlarni muntazam, o'z vaqtida va to'liq byudjetga kelib tushishini ta'minlash maqsadida, korxonalarda soliq risklarini boshqarish ham shu darajada muhimdir. Shuning uchun ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirgan holda bu boradagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy takliflarni ishlab chiqish zarurligi hozirda muhim va dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Soliq risklari bo'yicha tadqiqotlar o'rganilganda bu borada turli xil yondashuvlarga guvoh bo'lishimiz mumkin. D.N.Tixonov va L.G.Lipniklar o'z ilmiy ishlarida "iqtisodiy tabiatni o'zgartiruvchi ikki omil – samaradorlik va risklar"ga alohida e'tibor qaratgan. Moliyaviy natija va pul oqimlari miqdorida soliq risklari tufayli salbiy holat yuzaga kelsa, bu holatni soliqlarni boshqarish borasida samarasiz qarorlari bilan izohlash mumkin.

Ba'zan soliq risklari sifatida yangi soliq to'lovlarining amalga kiritilishi, to'lov shartlari va stavkalarining o'zgarishi, soliq imtiyozlarining bekor qilinishi bilan paydo bo'ladigan tashqi risklar tushuniladi. Soliq risklarining paydo bo'lishi ichki omillarga ham bog'liq bo'lib, "soliq riski soliq qonunchiligidagi noqulay o'zgarishlar bilan bog'liq yoki soliq to'lovlarini hisoblash vaqtida yo'l qo'yilgan xatolar bilan bog'liq moliyaviy yo'qotish sifatida baholanadi". Lekin soliq risklari bo'yicha ichki omillar faqatgina soliq xatolari bilan chegaralanmaydi.

Dunyoni amaliyoti shuni ko'rsatadiki, soliq xizmatlari o'zining faoliyati davomida soliq risklarini boshqarish zaruratiga to'qnash keladilar, bu o'z navbatida soliq tizimining barcha darajalarida risk boshqaruvining samarali jarayonlarini yaratishni taqozo etadi.

Xorij davlatlarining soliq idoralari tomonidan fiskal ahamiyati bo'yicha risklarni maqbullashtirish, tartiblash va baholash uchun turli yondashuvlardan foydalaniladi. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan tahlil shundan dalolat beradiki, alohida davlatlarning soliq organlari tomonidan tizimli va kompleks asosda risklarni soliq monitoringdan o'tkaziladi.

Soliq riskini baholash tizimi ko'p tomonlama hisoblanadi va soliq idoralarining tashkiliy va operatsion tuzilmalaridan kelib chiqqan holda turli jihatlari ko'rib

chiqilishi mumkin. Ayrim davlatlar risklarni soliq to'lovchilarning alohida segmentlarga ajratadi (jismoniy shaxslar, kichik va o'rta biznes, yirik korxonalar, yirik daromadga va salmoqli mulk qiymatiga ega jismoniy shaxslar), boshqalari esa risklarni - soliqlarning rejalashtirish instrumentlaridan foydalashning qonuniyligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi (ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlardan foydalanish – soliqlarni maqbullashtirishning qonuniy usuli, biroq, byudjet uchun yuqori darajadagi soliq riski bilan; daromadlar va mulklarni deklaratsiya qilmaslik – soliqlarni maqbullashtirishning noqonuniy usullari).

Soliq monitoringining tarkibiy asosi hisoblangan soliq risklarini tizimlashtirish va segmentlarga ajratish, soliq ma'murchiligi tizimining munosib va samarali qurishning aniqlashtiruvchi omillari hisoblanadi.

O'ganilgan xorij tajribasi shuni ko'rsatdiki, jahon tajribasida soliq risklarini aniqlash tizimida soliq maslahatchilari va auditorlar (promouterlar) tomonidan soliqlarni rejalashtirishning agressiv sxemalari uchun milliy qonunchiliklarga moliyaviy sanksiyalar rejimini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi majburiyatlar Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yangi Zelandiya va AQSh qonun hujjatlarida o'z aksini topgan.

Soliq maslahatchilari va auditorlar uchun moliyaviy sanksiyalar joriy qilingan kundan boshlab, Avstraliya soliq xizmati soliq solishdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlash bo'yicha yangi dastakka ega bo'ldi.

Bunday sharoitlarda asosiy e'tibor soliq sxemalarga qarshi kurashishga yo'naltirilgan promouterlarning sxema ishlariga beriladi. Soliq sxemalarini tatbiq etilishiga qarshi kurash strategiyasi quyidagi kompleks choralarni o'z takibiga oladi:

- soliq sxemalarini dastlabki ishlab chiqish bosqichlarida aniqlash;
- alohida soliq sxemalaridan foydalanishning noqonuniyligi haqida soliq to'lovchilarni ogohlantirish;
- barcha ishtirokchilarga nisbatan soliq solishdan bo'yin tovlash sxemalaridan foydalanganligi haqidagi ishlarni soliq xizmatlari tomonidan har tomonlama va adolatli ko'rib chiqilishi;
- promouterlarning sxemalariga nisbatan qat'iy sanksiyalar.

AQSh soliq idoralari faoliyatini tahlili shuni ko'rsatdiki, AQShning ichki daromadlar xizmati tomonidan quyidagi ikki asosiy muammolarni hal qilish bo'yicha oxirgi yillar davomida jiddiy qadam quyilgan. Birinchisi soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan a'lo natijalarga olib keladigan AQSh Soliq kodeksidagi kamchiliklarga asoslangan keng tarqalgan soliq solishdan bo'yin tovlash sxemalaridan foydalangan kompaniyalarga bog'liq muammodir. Bu sxemalar auditorlik va yuridik kompaniyalar, moliyaviy maslahatchilar va professional soliq maslahatchilari tomonidan ishlab chiqiladi. Ikkinchi muammo, aksariyat hollarda jismoniy shaxslar bilan bog'liq, ya'ni, daromadlarni noqonuniy yashirish va sun'iy xarajat va zararlar paydo qilish sxemalari bilan bog'liqdir. Odatda ular ofshor kompaniyalardan foydalanishni ehtimol qiladilar.

AQShning ichki daromadlar xizmati tomonidan amalga oshiriladigan yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish bo'yicha choralar, kompaniyalarni soliq tekshirishida, promouterlarni tekshirishda, shuningdek, axborotlarning: professional jurnallar, gazetalar, maqolalari, internet-nashrlarning tashqi manbalari tahlilida soliq promouterlar tomonidan axborotlarni oshkor etish haqidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan me'yorlarga asoslanadi.

Yuqoridagi tahlillar hamda ilg'or chet el tajrimasi va amaliyotidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalar shakllantirilib, amaliy tavsiya va ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Rivojlangan mamlakatlarning soliq xizmatlari o'z faoliyatlarini soliq risklarini kompleks baholash orqali amalga oshiradi. Risk boshqaruvi elementlariga asoslangan soliq monitoringi tizimi, soliqqa oid qonun hujjatlari va ma'murchiligidagi muammolarni, ularning boshlang'ich bosqichlarida aniqlash imkonini beradi.

Имом Бухорийдан жуда бой илмий мерос қолдирган. Унинг “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”, (“Ишончли тўплам”), “Ал-адаб ал-муфрад”, “Ат-тарих ал-кибор”, (“Катта тарих”), “Ат-Тарих ас-сағийр”, (“Кичик таърих”), “Ал-Қироату халфа-л-Имон”, (“Имом ортида туриб ўқиш”), “Вафъул-ядини фи-с-Салоти” (“Намозда икки қўлни кўтариш”) каби асарлари бизгача етиб келган. Аммо “Ат-Тарих ал-авсат”, (“Ўрта тарих”), “Ат-Тафсир ал-кабир”, (“катта тафсир”), “Ал-Жомеъ ал-кабир” (катта тўплам), “Китоб-ул-ҳиба” (Ҳадя китоби) номли асарлари мавжуд бўлиб, булар бизгача етиб келмаган.

Шубҳасиз, бу асарларидан энг етук, шоҳ асари “Ал-Жомеъ-ас-саҳиҳ” дир. Бу асар “Саҳиҳ ал-Бухорий” номи билан ҳам дунёда машҳур бўлиб, 4 жилддан иборат мазкур китобда, Пайғамбаримиз саллаллоҳу алайҳи васаллам ҳадисларидан ташқари, ислом ҳуқуқшунослиги, ислом маросимлари, ахлоқ-одоб, таълим-тарбия, тарих ва этнографияга оид маълумотлар ҳам берилган. Унга 600 юз минг ҳадисдан 7275 та энг “саҳиҳ” ҳадислар киритилган бўлиб, такрорланмайдиган 4000 ҳадисдан иборатдир. Бу китоб ислом таълимотида Қуръони каримдан кейинги манба ҳисобланади.

Маълумки, Исломи дини инсонни юксак маънавий камолот сари етакловчи таълимот ҳисобланади. Шу сабабли Қуръони каримда ҳам, ҳадисларда ҳам яхши хулқ ва одоб кенг тарғиб этилган. “Ота-она фарзандига одоб-ахлоқдан яхшироқ мерос қолдиrolмайди” (Ҳадис). Имом Бухорий ҳам 4 жилдли “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” асарининг бир жилдида одоб-ахлоқ ҳақидаги ҳадисларни жамъ этган. Кейинчалик аллома бутун Исломи олами одоб-ахлоқи ва тарбияси масалаларига бағишланган “Ал-адаб ал-муфрад” (“Адаб дурдоналари”) номли махсус ҳадислар тўпламини яратади. Бу асар 644 бобда баён этилган бўлиб маънавий-ахлоқий тарбияга оид 1322 ҳадисни ўз ичига олади.

Демак, ҳадислар Муҳаммад пайғамбарнинг суннатлари бўлиб, мазмунан ҳар бир мўминнинг ишончини, эътиқодини мустаҳкамлайди ва шу билан инсонни маънавий камолотга даъват этади. Исломи дини маърифатга асослангани учун ҳам

хар бир шахсни ақлий, жисмоний, ахлоқий жиҳатдан камолга етказишга оид эътиқод ва имондан иборат бўлиб, фақат эзгуликка хизмат қилиш, олийжаноб бўлиш, покиза юриш, бир бурда луқмани ҳалол қилиб ейиш, жаҳолат ва жаҳолатпарастликка йўл қўймаслик, ўз биродарининг, қариндош уруғларининг, миллатининг ва ватанининг қадриятларини асраш авайлашдан иборатдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. (ал-Жомъе ас саҳих). 1-к. Қомуслар бош таҳририяти. –Т.: 1997. – 560 б.
2. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад (Адаб дурдоналари). – Т.: Ўзбекистон, 1990. – 199 б.
3. Аҳмад ибн Ҳажар ал-Асқлоний. "Фатҳул-Борий шарҳу Саҳиҳил-Бухорий", Дорул райяни лит-турос, Қоҳира, 1986. 1-нашр.
4. Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. " Саҳиҳул-Бухорий", Дорул фикр, Байрут, Ливан. 1994/1414 й.
5. Олимов.Ш.Маънавий-ахлоқий тарбия асослари.Тошкент-2015 й.
6. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. –Т.: "Ўзбекистон", 2017
7. Каримов И. Юсак маънавият енгилмас куч. –Т.: "Ўзбекистон", 2011.
8. Ҳошимов.К, Нишонов.С, Иномов.М, Ҳасанов.Р Педагогика тарихи Т."Ўқитувчи" 1996 йил.
9. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. (ал-Жомъе ас саҳих). 1-к. Қомуслар бош таҳририяти. –Т.: 1997. – 560 б.
10. Интернет "Меҳроб.уз " маълумотлари.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Самиев Асрориддин Сайфиддинович

Термиз давлат педагогика институти, Педагогика кафедраси доценти,

Манзил: Ўзбекистон, 200100, Термиз шаҳри

asrorsamiev1969@gmail.com



ILMIY TADQIQOT ISHI BILAN SHUG'ULLANUVCHILARDA METODLARDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH (PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA TADQIQOTI MISOLIDA)



Olimov Temur Hasanovich

Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

Annotatsiya.

KIRISH: ushbu maqolada ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan

foydalanadi va ular fanning metodlari deb yuritiladi. Pedagogika va psixologiya fanida qo'llaniladigan metodlar o'z mazmun mohiyatiga ko'ra umumiy psixologiyadagi metodlarga aynan o'xshash bo'lishi bilan birga, shaxs va jamiyat munosabatlarini ifodalab berishda, ijtimoiy hodisalarni atroflicha o'rganishda o'ziga xos metodlarni qo'llash zarur ekanligi tahlil qilingan.

MAQSAD: Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, tanlanadigan mavzu madaniyatning pozitiv hodisaligini tasdiqlashi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yanada ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqishi, aniq, ilmiy asoslangan yo'llarni ko'rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Standart kompetensiya-uslub faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati; Asosiy kompetensiya-uslub faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati; Yetakchi kompetensiya-kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyatiga alohida e'tibor berilishi zamonaviy kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga asos bo'lmoqda.

XULOSA: ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish borasida maqsadli, manzilli ishlar amalga oshirilmoqda, biz ushbu maqolada uning ayrim jihatlarini imkon darajasida yoritib berdik. Uni kelajakda yaxlit fundamental tadqiqot sifatida o'rganish navbatdagi vazifalardan sanaladi.

Kalit so'zlar: Tashqi, ichki, erkin kuzatuv, standartlashtirilgan, guruh ichida kuzatish, guruh tashqarisida kuzatish, test – so'rov, tabiiy eksperiment, laboratoriya eksperimenti, Matematik modellashtirish, mantiqiy modellashtirish, texnik modellashtirish

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ У НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

(НА ПРИМЕРЕ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ)

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье подчеркивается важность формирования навыков использования методов у лиц, занимающихся научно-исследовательской работой. Также любая наука, имеющая конкретный предмет исследования, использует специальные методы и средства для освещения сущности этого предмета и сбора материалов, и они называются методами науки. Методы, используемые в науке педагогики и психологии, по своему содержанию аналогичны методам общей психологии, но используют и уникальные методы выражения отношений между личностью и обществом, детального изучения социальных явлений. что это необходимо.

ЦЕЛЬ: формировать у лиц, занимающихся научными исследованиями, навыки использования методов, подтверждать положительное явление культуры в выбранной теме, разрабатывать технологию дальнейшего

приумножения материального и духовного богатства, показывать ясные, научно обоснованные пути.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Стандартная компетенция – это способность выполнять обычные и рутинные задачи, связанные с деятельностью; Основной компетентность – способность выполнять инновационные задачи, связанные с данной деятельностью; Ведущая компетентность – это способность создавать новые виды профессиональной деятельности. особое внимание следует уделить конкурентоспособности современных кадров является основой предоставления.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Ведется целенаправленная, целенаправленная работа по формированию навыков использования методов у лиц, занимающихся научными исследованиями, некоторые ее аспекты мы представим в данной статье, уровень. В будущем он будет использоваться в качестве комплексного фундаментального исследования, обучение является одной из следующих задач.

Ключевые слова: Внешнее, внутреннее, свободное наблюдение, стандартизированное, групповое наблюдение, внегрупповое наблюдение, тест-опрос, натурный эксперимент, лабораторный эксперимент, Математическое моделирование, логическое моделирование, техническое моделирование.

BUILDING THE SKILLS OF USING METHODS IN SCIENTIFIC RESEARCH WORKERS

(IN THE EXAMPLE OF PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL RESEARCH)

Annotation.

INTRODUCTION: this article emphasizes the importance of developing skills in the use of methods in individuals engaged in research work. Also, any science that has a specific subject of research uses special methods and means to illuminate the essence of this subject and collect materials, and these are called methods of science. The methods used in the science of pedagogy and psychology are similar in content to the methods of general psychology, but they also use unique methods of expressing the relationship between the individual and society and a detailed study of social phenomena that this is necessary.

AIM: to develop in those involved in scientific research the skills to use methods, to confirm a positive cultural phenomenon in the chosen topic, to develop technology for further increasing material and spiritual wealth, to show clear, scientifically based paths.

MATERIALS AND METHODS: Standard competence is the ability to perform normal and routine tasks associated with an activity; Basic competence – the ability to perform innovative tasks related to this activity; Leading competence is the ability to create new types of professional activities. Particular attention should be paid to the competitiveness of modern personnel as the basis for provision.

CONCLUSION: purposeful, purposeful work is being carried out to develop the skills of using methods among people involved in scientific research, some of its

aspects we will present in this article, level. In the future, it will be used as a comprehensive fundamental research, teaching is one of the next tasks.

Keywords: external, internal, free observation, standardized, group observation, out-of-group observation, test survey, natural experiment, laboratory experiment, Mathematical modeling, logical modeling, technical modeling.

Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning metodlari deb yuritiladi. Ijtimoiy psixologiya fanida qo'llaniladigan metodlar o'z mazmun mohiyatiga ko'ra umumiy psixologiyadagi metodlarga aynan o'xshash bo'lishi bilan birga, shaxs va jamiyat munosabatlarini ifodalab berishda, ijtimoiy hodisalarni atroflicha o'rganishda o'ziga xos metodlarni qo'llash zarur ekanligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, biz ushbu jadvalda ijtimoiy psixologiyada ko'llaniladigan metodlarni keltiramiz.

Kuzatish metodi ijtimoiy psixologiyada o'ziga xos ijtimoiy sharoitlarda, o'ziga xos vaziyatlarda va ma'lum guruhlarda ishlatiladi. Bunda tadqiqotchi eng avvalo nimani kuzataman, qanday yo'l bilan kuzataman, kuzatuv birligi qilib nimani olaman, kuzatuvni qancha vaqt mobaynida davom ettiraman degan qator savollarga javob topgandan keyingina ilmiy tadqiqotini boshlaydi. Demak, kuzatish metodi yordamida aniq ishlab chiqilgan reja asosida kuzatuvchini qiziqtirgan u yoki bu ijtimoiy xulq-atvor shakllari qayd etiladi. Bu uslub qo'llanilganda tadqiqotchi bir qancha qoidalarga rioya qilishi lozim. Chunonchi, kuzatish maqsadining aniq bo'lishi va uning ilmiy maqsadlarga mos kelishi; kuzatish shaklini tanlash va kuzatish natijalarini qayd etish usullarini ishlab chiqish; ma'lum reja — sxema asosida muttasil kuzatuv olib borish; olingan natijalarning asosiligi va ishonchliligini boshqa usullar yordamida tekshirib ko'rish. Kuzatish kuzatuvchi tomonidan kuzatish ob'ekti bo'lmish odamlar guruhi bilan birga yashab, ularga qo'shilib ish tutib, tabiiy sharoitlarda ma'lumot to'plansa, bunday kuzatish turini "birgalikdagi kuzatuv" deb ataladi. Bunday kuzatishning klassik misoliga amerikalik ijtimoiy psixolog U. Uaytning o'smirlar psixologiyasi, ular guruhidagi ijtimoiy psixologik hodisalarni o'rganishga qaratilgan mashhur tadqiqotini kiritish mumkin. Boshqa xollarda esa kuzatuvchi o'z ob'ektini chetdan kuzatadi, shuning uchun ham bunday kuzatuv turi "**chetdan kuzatuv**" yoki "**ob'ektiv kuzatish**" deb ataladi. Bu usul xuddi umumiy psixologiyada bo'lgani kabi tashqi xulq-atvorni qayd qilish natijasida ma'lumot to'plashga asoslanadi. Bunday yo'l bilan ilmiy faktlarni isbot qilish qiyin, lekin baribir, u ham ijtimoiy psixologiyada yordamchi usul sifatida ishlatiladi. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy psixologik treninglar sharoitida har bir shaxsning xulq-atvorini kuzatish muhim ma'lumotlar to'plashga yordam beradi, chunki bunda kuzatish metodiga xos bo'lgan eng qimmatli narsa — sharoitlarning tabiiyliligi saqlab qolinadi.

Demak, ijtimoiy xodisalarni o'rganishda kuzatish metodining tashqi (ob'ektiv kuzatish), ichki (sub'ektiv, o'z-o'zini kuzatish), erkin kuzatuv, standartlashtirilgan, guruh ichida kuzatish, guruh tashqarisida kuzatish kabi turlaridan foydalaniladi.

Hujjatlarni o'rganish metodi sotsiologiya fanidan kirib kelgan. Bu metodning qator afzalliklari bor. Ulardan muhimlari shundan iboratki, u faoliyatning mahsulini tekshirishga imkon beradi hamda to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, matematik qayta ishlash imkoniyatining borligi bilan ajralib turadi.

Materiallarni ma'naviy jihatdan ham sifat, ham miqdoriy analiz qilinish usuli ijtimoiy psixologiyada **kontent-analiz** deb ataladi. Kontent-analizning ilmiy mohiyati shuki, uning yordamida biror matnda ma'lum fikr, g'oya yoki tushunchalarning necha marta qaytarilishi qayd etiladi, ya'ni ma'lum mazmun miqdor ko'rinishiga keltiriladi. Bu metodning asoschilari amerikalik sotsiologlar X.Lassuell va B.Berelsonlar bo'lib, ular bu usulni birinchi marta ikkinchi jahon urushi yillarida bir siyosiy gazetaning mazmuni, uning g'oyaviy yo'nalishini aniqlash maqsadida qo'llagan edilar. Ular «Haqiqiy amerikalik» nomli gazetaning kundalik chiqishlarini kontent-analiz qilib, ularni fashistik yo'nalishidagi gazeta ekanligini isbot qilishgan va uning chiqishini ta'qiqlashga erishgan edilar.

Kontent-analizni qo'llashda tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammo bu tekshiruv birliklari — kategoriyalarni aniqlashdir. Chunki bunday birliklar tadqiqotning maqsadi va tadqiqotchining e'tiqodi va dunyoqarashiga ko'ra har xil bo'lishi mumkin. Masalan, kontent-analizning asoschilari X.Lassuell va B.Berelsonlar bunday birlik — ramziy birlik yoki simvollar bo'lishi mumkin, deb hisoblashgan bo'lsalar, boshqa amerikalik tadqiqotchi L. Lovental bunday birlik yaxlit mavzu bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Aslida, bunday birliklar kontent-analizda ilmiy taxmin va tadqiqotchining metodologik asoslari bilan belgilanishi kerak. Shuning uchun ham ko'pgina tadqiqotchilarni umumshtirib, analiz uchun birliklar quyidagilar bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz:

a) alohida iboralar yoki so'zlarda bildirilgan tushunchalar (masalan, demokratiya, faollik tashabbus, hamkorlik va hokazo);

b) yaxlit abzatslar, matnlar, maqolalar va shunga o'xshashlarda ko'tarilgan mavzular (masalan, millatlararo munosabatlar mavzusi, insonlardagi milliy qadriyatlar mavzusi va hokazo);

v) tarixiy allomalar, siyosatshunoslar, taniqli shaxslarning nomlari;

g) ijtimoiy hodisa, rasmiy hujjat, biror aniq fakt, asar (masalan, oilaviy mojarolar, O'zbekiston Konstitutsiyasi muhokamasi, yangi yozilgan asarga o'quvchilarning munosabati va shunga o'xshash).

Yaxshi o'tkazilgan kontent-analiz aslida ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda juda katta ahamiyatga ega. Kontent-analiz tadqiqotchidan kattagina uquvni talab qiladi, chunki bir tomondan, u yoki bu matnni tushunish mahorati bo'lishi kerak, ikkinchi tomondan, tadqiqot so'ngida qo'lga kiritilgan miqdoriy birliklarni yana qayta sifat formasiga keltirish lozim, ya'ni tushuntirib berish kerak.

So'roq metodlari. So'roq metodlari ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi, ayniqsa, anketa so'rovi va intervyu metodlari. **Yozma so'roq yoki anketaning** afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, shubhasiz, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, xattoki, komp'yuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Bu metodlarni qo'llashni qator metodologik qiyinchiliklari mavjud, chunki, bu yerda doim shaxslararo o'zaro munosabatlar, o'zaro ta'sir shakllari mavjud bo'lib, tadqiqotchining sub'ektiv munosabatlarini ham inkor qilib bo'lmaydi. Tadqiqot mobaynida shaxslararo idrok va sub'ektiv bir-birini tushunishga qaratilgan barcha qonuniyatlar ishlaydi. Shunga qaramay, juda ko'p ijtimoiy psixologik ma'lumotlarni to'plashda so'roq metodlari eng qulay usullar sifatida ishlatib kelinmokda.

Shunday qilib, so'roq metodlari tadqiqotchi bilan tekshiriluvchining bevosita (suhbat, intervyu) yoki bilvosita (anketa) muloqoti tufayli birlamchi ma'lumotlar to'plash usulidir. Odamlar tilidan yozma yoki og'zaki tarzda olingan fikrlar ma'lumotlarning manbai bo'lib xizmat qiladi. Eng yaxshi suhbat yoki intervyu bu bevosita, erkin fikr almashinuvi sharoitida o'zaro fikr almashinuviga qaratilgan muloqotdir. Chunki suhbatdan farqli, intervyu aniq muammo doirasida, qat'iy bir yo'nalishda olib boriladi. Intervyu oluvchi suhbatdoshga nisbatan neytral mavqeda bo'lib, uning fikrlashiga xalaqit bermasligi, ayniqsa, unga taz'iy o'tkazmasligi lozim. Intervyu jarayonining samarali kechishi uchun suhbatdoshda o'ziga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirib, birinchi so'zlarni aniq, ravon, ifodali bayon qilish muhimdir.

Intervyu o'tkazishga odam maxsus ravishda tayyorgarlik ko'rish kerak, chunki u odamdan qator muhim sifatlarning bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada "rolli o'yinlar" metodi yordamida psixolog yoki sotsiologlar maxsus tayyorgarlik kursidan o'tadilar.

Anketa metodi hammaga tanish bo'lgan usullardan biri. Lekin ko'pincha anketani o'tkazgan odam uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingan ma'lumotlarni qayta ishlab, sharxlash qiyinligini tasavvur qilmaydi. Yuqorida qayd etilganidek, anketaga kiritilgan savollarga ko'ra anketa **ochiq va yopiq** turlarga bo'linadi. **Ochiq** anketa respondentdan o'z fikrini bilganicha bayon etishni talab qiladi, **yopiq** shakldagi anketa savollarining esa javoblari berilgan bo'lib, tekshiriluvchi o'ziga ma'qul bo'lgan, qarashlari, fikrlari bilan mos bo'lgan javobni beradi. Ochiq savollarning kamchiligi respondentlarning har doim ham qo'yilgan vazifaga yetarli darajada mas'uliyat bilan qaramaganligi hamda yozilgan javoblarni statistik ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, yopiq anketada respondentga

tekshiriluvchi tomonidan o'z fikriga ergashtirishga o'xshash holat yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topib bo'lmazlikdir. Shunday holatlarda respondent yo umuman javob bermasligi yoki tavakkal bir variantni belgilab berishi mumkin.

Shuning uchun ham oxirgi paytda yarim yopiq savollardan iborat anketalar tuzilmoqdaki, ularda javob variantlaridan tashqari, yana qo'shimcha fikr bildirish uchun qo'shimcha qatorlar qoldiriladi.

Odatdagi anketa tuzilishi jihatdan uch qismga bo'linadi:

1. **Kirish qismi yoki "respondenga murojaat"** deb ataladi. Bu qismda odatda tadqiqot o'tkazayotgan tashkilot nomi, oddiy tilda tadqiqot maqsadlari va ularning qanday foydasi borligi, tekshiriluvchining shaxsiy ishtiroki nima berishi, olingan ma'lumotlarning umumlashtirilgan holda ishlatilishi (anonimlilik), anketani to'ldirish yo'llari va boshqalar yoziladi. Yo'riqnoma — murojaatning qanchalik yaxshi yozilganligi bevosita tekshiriluvchining ishga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

2. **Asosiy qism.** Bunga savollar kiritiladi, lekin savollar tartibiga ham e'tibor berish kerak, chunki boshidan boshlab qiyin savollar berilsa, bu narsa respondentni cho'chitib qo'yishi, hattoki, to'ldirmasdan, anketani qaytarib berishiga majbur qilishi ham mumkin. Shuning uchun boshida yengil, xolis savollar berib, tekshiriluvchini qiziqtirib olib, keyin qiyinroq, psixologik savollarga o'tish, oxirida yana "neytralroq" savollar berish maqsadga muvofiq.

3. **Yakuniy qism yoki "pasportichka"** respondentning shaxsiy sifatidagi ob'ektiv ma'lumotlarni olishga qaratilgan bo'lib, unda shaxsning jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, kasb-kori va boshqalar so'raladi.

Anketalar tarqatilish uslubiga ko'ra, qo'l bilan tarqatiladigan, pochta orqali yuboriladigan, gazeta yoki jurnallar orqali to'ldiriladigan formalarga bo'linadi.

To'plangan ma'lumotlarga, odatda, statistik qayta ishlov beriladi yoki ular kompyuterlar yordamida analiz qilinadi.

Testlar psixologiyadan kirib kelgan usuldir, bu qiska sinov usuli bo'lib, ular yordamida u yoki bu ijtimoiy psixologik hodisa qiska muddat ichida bir texnik usul — testda tekshiriladi. Testlarni qo'llashning qulaylik tomoni — bir test yordamida bir ob'ektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta, takror-takror sinab ko'rish mumkin. Lekin ularni universal deb bo'lmaydi, chunki u yoki bu testni faqat qanday turdagi ob'ektda sinalgan bo'lsa, shunga o'xshash ob'ektlardagina qo'llash mumkin, qolaversa, bunda olingan ma'lumotlar nisbiy xarakterga ega bo'ladi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, testlar, ayniqsa hozirgi kunlarda hayotimizga keng kirib keldi. Shaxs xususiyatlarini tekshiruvchi testlardan tashqari, shaxsning muloqot sistemasidagi o'rnini, undagi muloqot malakalarining bor-yo'qligini sinovchi, shaxs aqliy sifatlarini tekshiruvchi testlar keng qo'llanilmoqda. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, testni tuzish, uni ob'ektlarda sinovdan o'tkazish, xattoki, tayyor testni moslashtirish yuksak bilimlarni, malakani, olimlik odobini talab qiladigan ishdir.

Testlar xususida yana shuni aytish mumkinki, har bir testning o'z "kaliti" bo'ladi va bu kalitning egasida maxsus litsenziyalar, ya'ni kelishuvga ko'ra ishonchli shaxslargagina sotish, berish huquqi bo'ladi. "Kalitchi" esa maxsus testlarni hech kim ishlata olmaydi.

Test - so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berish so'raladi.

Test - topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi ijodiylikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xoxlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreativligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatgich aniqlanadi. Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi - ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni soxtalashtirishi mumkinligidir.

Proektiv testlar. Bu usullar test usullarining bir ko'rinishi bo'lib, unda tekshiriluvchiga aniq tizim yoki ko'rinishga ega bo'lmagan, noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharxlash topshirig'i beriladi. Ya'ni, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo'lgan rasmlar, tugatilmagan hikoyalar, biror aniq ko'rinishga ega bo'lmagan buyumlar, yog'ochlar berilishi mumkin, ularga qarab tekshiriluvchi o'zining hissiy dunyosi, qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baho berishi mumkin.

Proektiv usullarga mashhur "Rorshaxning siyoh dog'lari" testini kiritish mumkin (1921 y.). Bu dog'lar ikki tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil dog'lardan iborat bo'lib, har bir dog' har xil buyoqli fonda ko'rsatiladi. Tekshiriluvchidan har bir "dog'" ning nimani eslatayotganligini aytish so'raladi. Uning fikridan va so'zlaridan, assotsiatziyalarga qarab (ularni kontent-analiz qilib) shaxs xususiyatlari haqida xulosa qilinadi.

Yana bir proektiv usul—bu S. Rozensveygning rasmiy assotsiatziyalar usulidir. Bunda hayotda tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan personajlar nimalarnidir gapirayotgan holda gavalantiriladi, unga qarshi tomondagi shaxs esa hali javob qaytarib ulgurmagan, tekshiruvchi tekshiriluvchidan tez, qisqa muddat ichida bo'sh kataklarga berilishi mumkin bo'lgan javobni yozishni so'raydi. Berilgan javoblarga qarab shaxsning yo'nalishni, uning ziddiyatlarga munosabati, agressiya-jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o'xshash muhim faktlar to'planadi.

Ijtimoiy psixologik eksperiment — bu ijtimoiy hodisalarni o'rganish maqsadida tekshiruvchi bilan tekshiriluvchi o'rtasidagi maqsadga qaratilgan muloqotdir. Bunday muloqotning bo'lishi uchun eksperimentator, ya'ni tekshiruvchi maxsus sharoit yaratadi va ana shu sharoitda aniq reja asosida faktlar to'playdi. Umumiy psixologiyada bo'lgani kabi, ijtimoiy psixologiyada ham tabiiy va laboratoriya eksperimenti turlari farqlanadi. Tabiiy eksperimentga misol qilib, rus pedagogi A.Makarenkoning jamoaning shakllanishi va uni uyushtirish borasida olib borgan tadqiqotlarini olish mumkin. Amerikalik psixolog M.Sherif esa guruhlararo munosabatlarga taalluqli fenomenlarni tabiiy sharoitlarda maxsus reja asosida tekshirib o'rgangan. Uning asosiy maqsadi vaqtinchalik tuzilgan jamoa — yozgi ta'til lagerlarida kooperatsiya hamda turli ziddiyatlarning paydo bo'lishidagi psixologik sabablarni o'rganishdan iborat edi.

Laboratoriya eksperimenti odatda maxsus sharoitlarda, maxsus xonalarda, kerakli asbob-uskunalar yordamida o'tkaziladi. Birinchi marta laboratoriya sharoitida ijtimoiy psixologik tadqiqotni rus olimi Bexterev o'tkazgan edi. U maxsus asboblarni yordamida idrokning aniqligini, xotiraning sifatini, kuzatuvchanlik xususiyatlarini yakka holda va guruh sharoitida solishtirib o'rgandi va guruhning borligi har bir guruh a'zosi psixik jarayonlariga bevosita ta'sir etishini isbot qildi.

Bundan tashqari, maxsus asbob-uskunalar yordamida guruh a'zolaridagi ishonuvchanlik — konformizm hodisalarini ham eksperimental tarzda o'rganish mumkin. Guruhdagi bunday hodisalarni o'rganish uchun maxsus moslamalardan foydalaniladi.

Modellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Shunday qilib, ijtimoiy psixologiya hozirgi kunda juda ko'p metodlarga ega, biz tanishib chiqqan metodlar ularning asoslari, bir qismi, xolos. Har bir xolatda o'z tadqiqot ob'ektining xususiyatlari, tadqiqot maqsadi va mavzuiga qarab kerakli uslubni tanlash mumkin. Shuning uchun ham metodlar to'plami bilan to'lig'icha tanishish uchun maxsus adabiyotlarni ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and*

humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.

5. Olimov, T. (2020). Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'nalishlari. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.

6. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]

Olimov Temur Hasanovich,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsenti,
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro, Dilodob-zafarobod-26
olimovtemir7@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0009-1783-8380>;



SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARI ASOSIDA TALABALARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI



Uzoqov Asliddin Mexriddinovich

Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

Annotatsiya.

KIRISH: ushbu maqolada hozirgi zamon jamiyat taraqqiyoti sharoiti tarbiya natijasida va samaradorligi inson tomonidan madaniy qadriyatlar hamda ijtimoiy tajriba qanchalik o'zlashtirilayotgani va qayta ishlab chiqarilayotgani bilan emas, balki jamiyat a'zolarining o'tmishdagi avlodlar tajribasida o'xshashi bo'lmagan vazifalarni qo'yish va hal etishiga imkon beradigan ongli faollik hamda mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligi bilan belgilanadi. Shunday ekan, sharq mutaffakkirlari asarlari asosida

talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning ahamiyati tahlil qilingan.

MAQSAD: Sharq mutaffakkirlari asarlari asosida talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning ahamiyati ochib berish, moddiy va ma'naviy boyliklarni yanada ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqishi, aniq, ilmiy asoslangan yo'llarni ko'rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Standart kompetensiya-ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati; Asosiy kompetensiya-ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati; Yetakchi kompetensiya-kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyatiga alohida e'tibor berilishi zamonaviy kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga asos bo'lmoqda.

XULOSA: sharq mutaffakkirlari asarlari asosida talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning ahamiyatini oshirish borasida maqsadli, manzilli ishlar amalga oshirilmoqda, biz ushbu maqolada uning ayrim jihatlarini imkon darajasida yoritib berdik. Uni kelajakda yaxlit fundamental tadqiqot sifatida o'rganish navbatdagi vazifalardan sanaladi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, Yangi O'zbekiston, ma'naviy faollik, vatanparvarlik, Vatan quvonchi, Vatan sevinchi, Vatan tuyg'usi, Vatan faxri, mazmun-mohiyat, vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, burch, mas'uliyat, faxr, iftixor.

ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ЧУВСТВА У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТРУДОВ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье условия развития общества сегодня являются результатом не образования и эффективности того, насколько культурные ценности и социальный опыт усваиваются и воспроизводятся людьми, а постановкой непохожих в опыте задач членов общества в прошлых поколениях и определяется сознательной активностью и готовностью к самостоятельной творческой деятельности, позволяющей решать проблемы. Поэтому важность формирования патриотических чувств у студентов была проанализирована на основе работ восточных мыслителей.

ЦЕЛЬ: раскрыть важность формирования патриотических чувств у студентов на основе трудов восточных мыслителей, разработать технологию дальнейшего приумножения материального и духовного богатства, показать ясные, научно обоснованные пути.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: стандартная компетенция – это способность выполнять обычные и рутинные задачи, связанные с деятельностью; Основной компетентность – способность выполнять инновационные задачи, связанные с данной деятельностью; Ведущая компетентность – это способность создавать новые виды профессиональной деятельности. особое внимание следует уделить конкурентоспособности современных кадров является основой предоставления.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: на основе трудов восточных мыслителей ведется целенаправленная и целенаправленная работа по повышению значимости формирования патриотических чувств у студентов. уровень. В будущем он будет использоваться в качестве комплексного фундаментального исследования. обучение является одной из следующих задач.

Ключевые слова: Независимость, Новый Узбекистан, духовная деятельность, патриотизм, радость Родины, радость Родины, чувство Родины, гордость за Родину, сущность, патриотизм, гражданское чувство, долг, ответственность, гордость, гордыня.

THE IMPORTANCE OF FORMING PATRIOTIC FEELING IN STUDENTS BASED ON THE WORKS OF EASTERN THINKERS

Annotation.

INTRODUCTION: in this article, the conditions for the development of society today are the result not of education and the effectiveness of the extent to which cultural values and social experience are assimilated and reproduced by people, but of the setting of tasks of members of society that are dissimilar in experience in past generations and are determined by conscious activity and readiness for independent creative activity that allows solving Problems. Therefore, the importance of developing patriotic feelings among students was analyzed based on the works of Eastern thinkers.

AIM: reveal the importance of forming patriotic feelings in students based on the works of Eastern thinkers, develop a technology for further increasing material and spiritual wealth, and show clear, scientifically based ways.

MATERIALS AND METHODS: standard competence is the ability to perform ordinary and routine tasks associated with an activity; Basic competence – the ability to perform innovative tasks related to this activity; Leading competence is the ability to create new types of professional activities. Particular attention should be paid to the competitiveness of modern personnel as the basis for provision.

CONCLUSION: Based on the works of Eastern thinkers, focused and targeted work is being carried out to increase the importance of the formation of patriotic feelings among students. level. In the future, it will be used as a comprehensive basic research. training is one of the following tasks.

Keywords: Independence, New Uzbekistan, spiritual activity, patriotism, joy of the Motherland, joy of the Motherland, feeling of the Motherland, pride in the Motherland, essence, patriotism, civic feeling, duty, responsibility, pride, pride.

XX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashab, ijod etgan mutafakkirlar o'z asarlarida yoshlar tarbiyasiga, vatanparvarlik, vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirishga alohida e'tibor berganlar. Alisher Navoiy, Abdurahmon

Jomiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Muslihiddin Sadiy, Imom Ismoil al-Buxoriy kabi buyuk zotlar Vatan obodligi, yurt farovonligi uchun tinmay jonbozlik ko'rsatganlar va o'z zamondoshlarini ham shunga da'vat qilganlar.

Istiqbol Yangi O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy takomilligining barcha sohalari rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga adabiyot va adiblar oldiga ulkan ma'suliyatli vazifalarni qo'ydi. O'sib kelayotgan yosh avlod elim, yurtim deb yashashi, vatanimizning gullab-yashnashi buyuk kelajakka ishonch ruhida tarbiyalanishi ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq. Ushbu ulkan ishlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonun va farmonlarga ko'ra ta'limning mazmuni va boshqaruvini milliy qadriyatlar, tarixiy, ma'naviy tarbiyaga mos tarzda tanlash va tashkil etish zarurati qo'yildi.

Ma'lumki, xalqimizning kelajagi, mamlakatning istiqboldagi taraqqiyoti farzandlarimizning qanday rivojlanishiga bog'liq.

O'zbek xalqining ardoqli farzandlari bo'lgan ajdodlarimiz o'zlarida vatanparvarlik tuyg'usini namoyon qila olgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning quyidagi so'zlarida milliy mansublikdan g'ururlanish, vatanparvarliktuyg'usi yaqqol namoyon bo'ladi: "Biz o'z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz ... mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq baxt-saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga haykal bo'ladi ...".

Abdurauf Abdurahmon o'g'li Fitrat ham o'z Vatani sevadi, u bilan faxrlanadi, uni har narsadan muqaddas tutadi va yoshlarni Vatanni sevishga, ardoqlashga chorlaydi. U "Sayha" to'plamidagi she'rlaridan birida shunday yozadi:

Vatanni ziyorat qilmoqqa
Erta tongda kel.
Hay-hay qanday Vatan bu!
U mening sajdagohim,
Osoyishim, izzatim, sharafim,
Ham ka'bam, ham qalbim,
Ham chamanimdir.

Bu misralar vatanparvarlikning yuksak namunasi bo'lib, yoshlarda vatanparvarliktuyg'usini shakllantirishda alohida qimmatga ega. Muallif Vatanning ravnaq topishi uchun yoshlarni dunyoviy ilmlarni egallashga da'vat etadi, bu yo'lda o'zi fidoyilik namunasini ko'rsatadi.

Fitratning fikricha, har bir inson hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun u sog'lom fikrli va pok axloqli bo'lmog'i kerak. Har millat o'z kelajagini o'ylar ekan, yoshlarga e'tiborini qaratmog'i, ularni muntazam jismoniy, aqliy, ruhiy tomonidan chiniqtirmog'i lozim.

Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li bolalarga atab yozgan asarlarida Vatanga sadoqat va mehr-muhabbat, insoniylik, to'g'rilik, mehnatsevarlik fazilatlarini

shakllantirishga e'tibor bergan. Uning fikricha, Vatanni sevish, uning gullab yashashi uchun mehnat qilish va ulg'ayish zarur. Shu sababli alloma bolalar qalbiga Vatan go'zalligini singdirib, ularni Vatan oldidagi fuqarolik burchini yuksak darajada bajaradigan kishilar qilib kamol toptirishni, Vatan o'z farzandlaridan najot kutib turganligini ta'kidlaydi. Tarbiya-juda keng ma'noli bo'lib, u ijtimoiy faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o'zaro harakat va hokazo tarzida tushuniladi. Ko'pgina tadqiqotchilar tarbiyaga keng ijtimoiy ma'noda qaraydilar. Unga insonni jamiyatning yaxlit holdagi ta'siri kiritiladi, ya'ni u tarbiyani amalda ijtimoiylashtirish bilan tenglashtiriladi; chuqur ma'noda-ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, aniq yo'naltiruvchi maqsadga qaratilgan, tor pedagogik ma'noda-bolalarda muayyan sifatlar,

qarashlar, etiqodlar tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ish sifatida; undan ham torroq ma'noda – aniq tarbiyaviy vazifalarni hal etish tarzida tushuniladi.

Hozirgi zamon jamiyat taraqqiyoti sharoiti tarbiya natijasida va samaradorligi inson tomonidan madaniy qadriyatlar hamda ijtimoiy tajriba qanchalik o'zlashtirilayotgani va qayta ishlab chiqarilayotgani bilan emas, balki jamiyat a'zolarining o'tmishdagi avlodlar tajribasida o'xshashi bo'lmagan vazifalarni qo'yish va hal etishiga imkon beradigan ongli faollik hamda mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligi bilan belgilanadi.

Tarbiyaning muhim natijasi – insonning o'zi o'zgartirish (o'zi qurish, o'zi tarbiyalash)ga tayyorligi va qadrligidir.

Vatan tushunchasining ilmiy, pedagogik, falsafiy, badiiy, jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, 1981 yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" da vatan tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; turar joy, boshpana, maskan, uy sifatida talqin etilgan.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa, vatan tushunchasiga shunday ta'rif keltiriladi: Vatan - kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmui. Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi". Har qanday ishda vatanparvarlik hissi namoyon bo'lishi kerak. Darhaqiqat, vatan bir kishining mulki emas, u o'tib ketgan ajdodlar yurti, o'sib-ulg'ayayotgan farzandlarimiz, kelajakda dunyoga keladigan avlodlarning mulki - vatan shu yurtda yashab turgan har-birimizning mulkimizdir. Demak, yer yuzida millat uchun vatan mavjud ekan, xalqda vatan tuyg'usi doimo, barcha davrlarda mavjud bo'laveradi. Bir

soʻz bilan aytganda vatanparvarlik oʻz ona Vatani uchun jonbozlik koʻrsatishidir. Bunday jonbozlik esa yoshlarda taʼlim jarayonida singdiriladi.

Darhaqiqat, bugungi kunga qadar yoshlar orasida vatanparvarlik hissini shakllantirish keyingi oʻrinlarga tushib ketgan edi. «2017 – 2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi»da ham bu masala alohida oʻz aksini topdi. Jumladan, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

Respublikamizdagi barcha taʼlim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlikka jalb etish;

Yoshlarning ijodiy – intellektual qobiliyatini rivojlantirish, qoʻllab-quvvatlash, yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismonaniy tarbiya va sportga keng jalb etish.

Yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirish davr talabi, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalay olmasak, ularda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirib boʻlmaydi. Yangi Oʻzbekistonda yoshlarning taʼlim-tarbiya olishi, har tomonlama rivojlangan yetuk inson boʻlib oʻsib-ulgʻayishi yoʻlida zamonaviy shart-sharoitlarni yaratib berish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, maʼnaviy yetuk, jismonan sogʻlom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga eʼtibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori boʻladi.

Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga, xalqlarning madaniyatiga va oʻzligiga boʻlgan tahdidlar, yod gʻoyalarni singdirishga boʻlayotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlam boʻlib qolayotganligi sababli bu yoʻnalishda qoʻshimcha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan biri boʻlib qolmoqda.

A.Avloniy oʻzining «Turkiy guliston yohud axloq» asarida, A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Joʻraevlarning “Vatan tuygʻusi” kitobida, mashhur tatar olimi Rizouddin Ibn Fahriddinni “Ilmi axloq” kitobida, Hamid Olimjonning “Oʻzbekiston”, Abdulla Oripovning “Oʻzbekiston Vatanim manim”, “Men nechun sevaman Oʻzbekistonni», Erkin Vohidovning “Oʻzbekim”, Barot Boyqobilovning “Xamsa”, “Oʻzbeknoma” asarida, Tursunoy Sodiqovanning “Mehr qolur” kitobida vatan tushunchasining mohiyatini ilmiy-nazariy hamda badiiy nuqtai nazardan talqin etganlarki, ulardagi vatanga eʼtiqod haqidagi gʻoyalar talabalarni vatanga eʼtiqod ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Olim Ulfat Mahkamov «Axloq-odob saboqlari» kitobida vatan tushunchasini quyidagicha ifodalaydi: “Vatan - har bir kishida oʻz uyiga, tugʻilib oʻsgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota-ona, aka-uka, opa-singillariga boʻlgan munosabatida aks etadi. Ona-Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon oʻzgarmaydi. Vatanga muhabbat tuygʻusi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuygʻuni ona allasi parvarish etadi, voyaga yetkazadi».

Vatan tuygʻusi haqida gapirar ekanmiz, avvalo uning insonda mavjud psixologik his-tuygʻu ekanini alohida taʼkidlab oʻtmoqchimiz. Vatan tushunchasini

pedagogik nuqtai-nazardan o'rganganda esa insonda mavjud bo'lgan bilish faoliyatining umumiylikdan xususiylikka tomon boradigan fikr yuritish nuqtai nazaridan yondashmoq lozim: demak, vatanning umumiy tushuncha ekani - bu insoniyat uchun yer kurrasining o'ziga makon etgani bo'lsa; millatning paydo bo'lishi va qaysi millat qaerni vatan deb bilgani esa bilishning xususiylik tomon boradigan yo'lidir.

Vatanparvarlik - umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikning asosiy tamoyillaridan biridir. «Vatan» arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «ona-yurt» degan ma'noni anglatadi. Vatanga muhabbat, yurtga muhabbat har bir millat kishisiga xos bo'lgan muqaddas va ulug' qadriyatdir. Vatanparvarlik har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yeriga, ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Vatanparvarlik - bu umuminsoniy qadriyat bo'lib, har bir kishining Vatanga bo'lgan sodiqligini, sadoqatini ifodalaydi.

Oliy ta'lim tizimi talabalarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda Sharq durdonalaridan Kaykovusning «Qobusnoma» asari muhim o'rin tutadi.

Sharq olamida ilmiy-tarbiyaviy va pedagogik tomondan kitobxonlar diqqatini jalb qilgan muhim asarlardan biri Kayqovusning 1082-1083 melodiy, 175 hijriy yillarda yaratilgan «Qobusnoma» asaridir. Kayqovus bu asarni o'g'li Gilonshoxga bag'ishlaydi.

«Qobusnoma» asarida ota-ona haqida aytilgan hikmatlar zamirida Vatanga bo'lgan muhabbat mujassamdir. Bu asar oradan necha yillar o'tsa hamki, xuddi kechagina yozilganday o'zining tarbiyaviy qiymatini yo'qotmagan.

Vatan, vatanparvarlik, vatanga e'tiqod so'zlari doimo biri-ikkinchisini to'ldirishi, ifodalashini inobatga olib, "vatanparvarlik" tushunchasining mazmuni, mohiyatini tushunib olish lozim. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da vatanparvarlik - kishilarning ona-yurtiga, o'z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

A.Erkaevning "Ma'naviyat millat nishoni" kitobida vatanparvarlik tuyg'usi haqida quyidagicha fikr bildirib o'tiladi: "vatanparvarlik"-eng avvalo, mustaqillikni mustahkamlashga ijobiy hissiy munosabatdir. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalari talabalariga vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ulkan va boy merosimizdan, jumladan, «Muhammad payg'ambar qissasi», «Hadislar»dan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda yuksak nafosat va mangu hikmat obidasi bo'lgan «Kalila va Dimna» asarining ahamiyati ham juda kattadir.

Eng qadimiy madaniyat beshigi bo'lgan mamlakatdan biri Hindistonda milodning I asrlaridayoq vujudga kelgan «Ramayana», «Mahabhorat», «Qural», «Megaduda», «Raxuvansha», «Qumarasambxava», «Dashakumacharita», «Panchataitra», «Xitopadesha», «Shakuntala», «Malyavika va Agnimtra», «Mudrarakshayasa» kabi mashhur va ma'lum asarlar qatorida yaratilgan «Kalila va Dimna»da vatanparvarlikka undovchi qimmatli epizodlar talaygina.

III-IV asrlarda yaratilgan bu qadimiy adabiy yodgorlik o'sha davrning saviyasiga va sharoitlari taqozo qilingan ba'zi g'oyaviy mahdudlik hamda ziddiyatlarga qaramay, uning asosida yotgan ilg'or fikrlar katta ahamiyatga egadir. «Kalila va dimna» dagi hikoyalar hayvonlar tilidan olib borilsada, ijtimoiy hayot, odamlar orasidagi munosabat ko'zda tutiladi.

O'z davrining haqiqiy manzarasini aks ettirgan bu asardan shunday xulosa chiqadi: «Xo'jayin va qirol, shox va qul bor joyda hamisha o'lim va jazo bo'ladi». Asarda bunday ko'rimsiz manzarani, bunday fojiali holatni qayd etish bilangina cheklanmasdan u qattiq qoralanadi.

Mana shu bir birini istisno etadigan olam, ular orasidagi keskin ziddiyat, ularning o'zaro olishuvi; birinchi olamga nafrat va ikkinchi olamga muhabbat; yomonlikni qoralash va yaxshilikni ulug'lash, shu yomonlikka qarshi kurashga undash, uni yo'qotishga intilish, shu yaxshilikning tantanasini ta'min etishga chorlash asarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu masalalarning barchasi yuksak badiiy go'zal hikoyatu rivoyatlar, ajoyib umumlashmalar va hayratomuz hikmatli iboralar orqali ochiladi, tasvir etiladi.

Buning ustiga asarda falsafa va ilohiyotga oid murakkab masalalar haqida juda ko'p fikrlar bayon etiladi. Chunonchi, garchi odamning baxti va yo baxtsizligi osmondan, taqdirdan bo'lsada, lekin asosan baribir, odamning o'z harakati va intilishiga, aqli va irodasiga, mehnatni va qobiliyatiga bog'liqdir, degan fikr ilgari suriladi va hayotiy misollar bilan tasdiqlanadi. Asarni o'qiganda shunday tasavur paydo bo'ladiki, uni yaratganlar zo'r faylasuf va ulkan so'z sa'natkor bo'lganlar. Ular o'zlarining g'oyat g'azabli ham yumshoq tabiatli ekanliklarini namoyon qilganlar, hazil- mutoyiba va o'tkir tilli haqiqiat himoyachilari ekanliklarini ko'rsatganlar.

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularning o'z yurtiga sodiq farzand ekanligini aks ettirish va shu asosida ularda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyyatini shakllantirish, o'z yurtining mustaqilligini mustahkamlash uchun fidoiy insonlar, bunyodkorlarni tabiyalashni nazarda tutadi. Shuningdek, o'zi yashayotgan mamlakat, jamiyat ravnaqi, istiqboli uchun ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan shaxs insonparvarligini tarbiyalovchi faoliyatni rivojlantirish, yuksak aql-zakovat egasi bo'lib, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, Vatani va xalqiga mehr-muhabbat, faxr va iftixor tuyg'ulari bilan yashash, axlokiy-huquqiy burchni, mas'uliyatni teran anglashi lozim.

Mustaqillik kabi oliy ne'matni mustahkamlash, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun yoshlarning siyosiy-ma'naviy faolligini oshirish, vatanparvarlik hoyalarini shakllantirish mazmunidan o'rin olgan Vatan quvonchi, Vatan sevinchi, Vatan

tuyg'usi, Vatan faxri kabi tushunchalarni ular ongiga singdirish lozim. Buning ta'lim muassasalarida o'qituvchi talabalarning o'quv-biluv faoliyatini tashki etishda mustaqillik g'oyasining mazmun-mohiyati tug'risida ma'lumot berar ekan, avvalo talabalarda vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, burch, mas'uliyat, faxr, iftixor birligini tarbiyalashga harakat qilmog'i zarur.

T.Qurbonovning "Milliy g'urur va madaniy meros dialektikasi" kitobida ham vatanparvarlikka to'xtalib o'tiladi, unda "vatanparvarlik"- vatan oldidagi mas'uliyat va burchni anglash tushuniladi. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko'p anglatilsa, kishilarda vatanparvarlik tuyg'usi shuncha baland bo'ladi. Har bir shaxsdagi vatanparvarlik tuyg'usi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Haqiqiy vatanparvarlik millat, vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida mehnat qilish hamda kurashishdir".

Vatanparvarlik tuyg'usi nasldan naslga o'tadigan, tug'ma his-tuyg'ular jamlanmasi emas, balki, tarbiya jarayonining mahsulidir. Vatanparvarlik vatan boyliklari-yu, go'zal tabiatidan faxrlanishgina emas, balki uni yanada mukammalroq his qilish, shu zamin uchun ter to'kish, xalqining farovon xayoti uchun o'z manfaatidan yurtdoshlari manfaatini yuqori qo'yish, vatan himoyasiga shay turish, xalq qadriyatlarini kelajak avlodlarga meros qilib qoldirishda o'z hissasini qo'shish bilan namoyon bo'ladigan hatti-harakatlar majmuasidir. Shu bilan birga vatanga e'tiqod vatanparvarlikni to'ldirib, mukammallashtirib boruvchi dunyoqarashning bir bo'lagidir. Chunki oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar jamiyatda o'zlarining munosib o'rinlarini topishlari, Vatan ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilishlari, fidoyilik ko'rsatishlari, safarbarlik xislatlarini namoyon qila olishlari uchun ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish nihoyatda zarur.

Ta'lim-tarbiyada faqat ta'lim muassasalarigina emas, balki jamoat tashkilotlarininig ham o'rni beqiyos.

- Yoshlar ittifoqi mamlakatimizdagi barcha yoshlarni qamrab olgan. Bularning ko'p qismi ta'lim muassasalarida ta'lim oladi. Lekin yoshlar tarbiyasida qator muammolar mavjud bo'lib, bular:

- yoshlarning siyosiy, xuquqiy, axlokiy, ekologik, estetik madaniyatini shakllantirish uchun tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali inson qadr-qimmatini yuqori qo'yuvchi o'zaro munosabatlar madaniyatini qaror toptirish sust ketayotgani, har qanday muammoni hal etishdan oldin u kelib chiqqan vaziyatni o'rganish masalalariga kam e'tibor berilayotgani;

- yoshlar tarbiyasiga oid ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytirish maqsadida ularda mustahkam e'tiqodni shakllantirish, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan diniy aqidaparastlik, ekstremizm, terrorizm kabi illatlarga qarshi targ'ibot ishlari talab darajasida emasligi;

Shu jihatdan oliy ta'lim muassasalari talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish muammosi dolzarblik kasb etadi.

Jamoat tashkilotlari faoliyati jamiyat hayoti, umuman olganda, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishi, birinchi navbatda, yoshlarning tarbiyasiga qaratmoq zarur. Chunki mustaqil O'zbekistonning yangi jamiyat qurish yo'lidagi barcha erishgan va erishayotgan yutuqlariga to'g'anoq bo'lib, yoshlarni turli usullar bilan to'g'ri yo'ldan chalg'itishga harakat qilayotgan zararli mafkuralar va oqimlar ish ko'rmoqda.

Yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash, shuningdek, tashkil etiladigan darsdan tashqari mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish, talabalarga vatanga, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg'otish, talabalarning faoliyatini tashkil qilishga yunaltirilgan darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga e'tiborni qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
5. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O'smirlarda stressli vaziyatlarda koping xulq-atvor strategiyalari namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Uzoqov Asliddin Mehriddinovich,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsenti,
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro, Dilodob-zafarobod-26

a.m.uzoqov@buxdu.uz

<https://orcid.org/0009-0009-1783-8380>;



YOSHLAR ONGIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Saidov Azamat Ismoilovich

*Samarqand davlat chet tillar instituti,
Samarqand*



Axmedov Anvar Diyor o'g'li

*Samarqand davlat chet tillar instituti,
Samarqand*

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida yoshlar ongida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirishining muhim jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek yoshlarda axborot qabul qilish va uni saralashning psixologik mexanizmlarini shakllantirish muammolari yoritib o'tilgan. Maqolada bugungi kunda yurtimizda yoshlar ongida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish vositalari va mexanizmlari tahlili keltirib o'tilgan.

MAQSAD: Yoshlarda axborotlarni saralash va ular ongida axborot-psixologik xavfsizlik xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, Kellerman-Plutchikning «Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish» so'rovnomasi, «Axborotni qabul qilishga bo'lgan

motivatsiyani aniqlash» mualliflik so'rovnomasidan foydalanildi.

XULOSA: O'rganilgan va tahlil qilingan ishlar bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, axborot-psixologik xavfsizlikni ilmiy-amaliy o'rganish uning ijtimoiy zarurat ekanligi, yoshlar ongiga milliy xususiyatlarni singdirish, ularda axborot iste'mol madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali ularning o'z millati va o'z xalqini tarixiy qadriyatlariga e'tiqod bilan qarashlariga erishiladi.

KALIT SO'ZLAR: axborot-psixologik xavfsizlik, yoshlar, g'oyalar, psixologik ta'sir, axborotlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, ong, globallashuv, ijtimoiy makon.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В СООБЩЕСТВЕ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье освещены важные аспекты формирования информационной и психологической безопасности в сознании молодежи в условиях современного процесса глобализации. Также освещены проблемы формирования психологических механизмов получения и сортировки информации у молодых людей. В статье представлен анализ средств и механизмов формирования информационной и психологической безопасности в сознании молодежи нашей страны сегодня.

ЦЕЛЬ: Сортировка информации у молодых людей и формирование в их сознании качеств информационно-психологической защищенности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В процессе исследования использовались интервью, анкетирование, наблюдение, методы, а также опросник Келлермана-Плутчика «Диагностика механизмов психологической защиты» и авторский опросник «Определение мотивации к получению информации».

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Если сделать вывод из изученных и проанализированных работ, научно-практическое изучение информационной и психологической безопасности является социальной необходимостью, путем привития национальных особенностей в сознании молодежи, формирования и развития у нее культуры потребления информации. что они с верой смотрят на исторические ценности своей нации и своего народа.

Ключевые слова: информационно-психологическая безопасность, молодежь, идеи, психологическое воздействие, информация, Интернет, социальные сети, сознание, глобализация, социальное пространство.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF INFORMATIONAL-PSYCHOLOGICAL SECURITY IN THE MINDS OF YOUNG PEOPLE

Annotation.

INTRODUCTION: This article highlights important aspects of the formation of information and psychological security in the minds of young people in the context

of the modern process of globalization. The problems of forming psychological mechanisms for obtaining and sorting information in young people are also highlighted. The article presents an analysis of the means and mechanisms for the formation of information and psychological security in the minds of the youth of our country today.

AIM: Sorting information among young people and forming in their minds the qualities of information and psychological security.

MATERIALS AND METHODS: During the research, interviews, questionnaires, observations, methods, as well as the Kellerman-Plutchik questionnaire "Diagnostics of psychological defense mechanisms" and the author's questionnaire "Determination of motivation to obtain information" were used.

CONCLUSION: If we draw a conclusion from the studied and analyzed works, the scientific and practical study of information and psychological security is a social necessity, by instilling national characteristics in the minds of young people, forming and developing a culture of information consumption in them. that they look with faith at the historical values of their nation and their people.

Key words: information and psychological security, youth, ideas, psychological impact, information, Internet, social networks, consciousness, globalization, social space.

APA (Axborot-psixologik xuruj) o'zining g'oyalarini asosan OAV orqali namoyish etadi. Har bir zararli g'oyalar oldindan rejali tartibda o'rganilib, belgilangan davlatning omma kayfiyatiga mos tarzda quyidagi turlari bo'yicha tasniflab yo'llanadi:

informatcion – psixologik ta'sir;
 psixogen ta'sir;
 psixoanalitik ta'sir;
 neyrolingvistik ta'sir;
 psixotron ta'sir;
 psixotrop ta'sir.

Axborot-psixologik xurujlarning bu turi so'z va ma'lumot orqali ta'sir etishdir. Bu ta'sir ko'pincha davlat boshqaruv organlari yoki ommaga yo'naltirilgan bo'ladi. Ta'sir asosan aholi orasida bir-biriga ishonchsizlik, adovat hissi, o'zi yashab turgan joyi va davlat boshqaruvi tizimiga nisbatan norozilikni uyg'otishga qaratilgan. Axborot-psixologik xurujlarning asosiy ta'sir qurollari qo'rqitish, emotsional bosim ostiga olish, agressiyani keltirib chiqarishdir. Unda insonga kuchli psixologik ta'sir etuvchi so'zlar tanlanadi va eng asosiysi yolg'on axborot berish bilan yakunlanadi.[2]

Psixogen ta'sir – bu insonga jismoniy (harorat, tovush, yorug'lik va boshqalar yordamida) va shok holatiga tushiruvchi ta'sir deyiladi. Masalan: internet orqali tarqatilayotgan ommaviy qirg'in rasmlar yoki ayrim davlatlarning maxsus uskunlari yordamida boshqa davlat telefon liniyalarida tovushni o'zgartirish, ranglar orqali

ta'sir etish kabilar kiradi.

Psixoanalitik ta'sir – insonning ong ostiga ta'sir deb aytiladi. Bu ta'sir buyruq beruvchi so'zlar, rasmlar, hidlar, tovushlar orqali sodir bo'ladi. Aytaylik, OAV orqali odamlarga tushunarsiz musiqa, tovushlar uning ong ostiga kirib borish orqali ularni boshqarishi mumkin. Aniqrog'i, bu tovushlar kodlangan tarzda tarqatiladi.

Neyrolingvistik ta'sir – lingvistik dasturlar yordamida yoshlarning motivatsiyasi o'zgartiriladi, bunda miya faoliyati buziladi.

Psixotron ta'sir – shaxslarning anglanilmagan idrokiga yoki ong ostiga ta'sir etish usuli deyiladi. Bu usullar yuqori va quyi chastotali generatorlar orqali sodir bo'lib, inson miyasini kodlab qo'yadi. "25-kadr fenomeni" virusi esa bunga yaqqol misol bo'la oladi yoki "ko'k kit o'yini" aynan bu virus insonning psixofiziologik sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Salbiy ta'sirlar insondagi barcha sezgi kanallarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Psixotrop ta'sir – insonning psixikasiga turli xildagi tibbiy preparat, kimyoviy va biologik moddalar yordamida ta'sir etish tushiniladi. Bundan tashqari poezd relslariga yuqori sirpanuvchan polimerlar to'kib qo'yish, samolyot uchish yo'llariga esa yuqori birikuvchan polimerlar to'kib qo'yish ham psixotron ta'sirni ifodalaydi.

Yoshlarimizning aksariyati globallashuv tufayli Yevropa va xorijiy ma'naviy-madaniy oqimlar ta'siriga ko'proq ishtiyoqmand bo'lib, milliy ma'naviyatimizning hayotbaxsh, yuksak axloqiylikka asoslangan tamoyillarga ixlosmandligi sust kechmoqda. Inson qadri, mas'uliyati, axloqiga bepisandlik ba'zi yoshlarning kiyinishi, fe'l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda. Bizning nazarimizda inson qadriyati uning axloqiylikka yo'nalgani bilan belgilanishi kerak. Darhaqiqat, bugun axborot chunonam ko'p va tez kirib kelayaptiki, ularni "hazm" qilish uchun teran tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Ayniqsa, internet olami farzandlarimiz e'tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o'yinlari haqida ham shunday misollarni keltirish mumkin. Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, internet orqali tarqatiladigan kompyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga yetishish uchun shunday zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o'yinlarda ana shu zo'ravonlik va yovuzlikning o'zi bosh maqsad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga mos bo'lmagan, ba'zan qahramonlik vahshiylikka o'tib ketadigan bu kabi o'yinlar farzandlarimiz axloqiy-estetik tarbiyasi va ruhiyatiga to'g'ri ta'sir ko'rsata oladi deya olmaymiz. Bir qarashda ular oddiy o'yindek ko'ringani bilan zo'ravonlik g'oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg'otishi juda ko'p salbiy oqibatlariga olib kelgani xususida hayotiy misollar ko'plab topiladi.

Internet saytlarida yoshlarga kuchli ta'sir etuvchi axborotlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Birinchi toifadagi axborotlar sirasiga yot, buzg'unchi g'oyalar (diniy ekstremizm va terrorchilik g'oyalari, millatchilik, irqchilik, sadizm kabilar)ni kiritish mumkin.

Ikkinchi toifadagi axborotlar esa g'arb hayot tarziga xos, o'zbek mentalitetiga zid odatlar va ko'nikmalarni targ'ib etadi. Bu ayniqsa, g'arb yoshlarining kiyinishi, odatlarini targ'ib qiluvchi maqolalar, kliplar, filmlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchinchi toifaga esa pornografik axborotlarni kiritish mumkin.

To'rtinchi toifaga esa hali tekshirilmagan, o'z isbotiga ega bo'lmagan turli hujumkor axborotlarni kiritish mumkin.

Iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalardagi axborotlar ta'sirlashuvi ijtimoiy hayotning mazmunan boyishi va takomillashuvining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda axborot almashinuvi insoniyat taraqqiyotining muhim shartiga aylandi, deyish mumkin.

O'z davrida og'zaki nutqning paydo bo'lishi bilan axborot uzatish imkoniyatlari kengaygan bo'lsa, yozma nutq rivoji bu borada o'ziga xos yangi bosqichni boshlab bergan edi. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti, integratsiya va globallashuv sharoitida esa axborot makonida tub sifatiy holat kechmoqda. Endilikda axborot uzatish nafaqat xilma-xil (radio, televidenie, matbuot, telefon, faks, pochta, internet va b.) shakllari, balki, o'ta tezkorligi bilan ham jamiyat taraqqiyotining oldingi davrlaridan keskin farq qiladi. Bunday sharoitda axborot iste'moli jarayonida ham yangi tendensiyalar kuzatilmoqda.

«Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi» degan fikrning paydo bo'lishiga ham axborotning yuqoridagi xususiyatlari sabab bo'lgan. Ijtimoiy makon - bu, ayni vaqtda, axborot makoni hamdir. Globallashuv sharoitida axborot hajmining kattaligi, ularning zamonaviy tezkor vositalar orqali tarqatilayotgani axborot sohasining ijtimoiy makonning boshqa shakllaridan tubdan farq qilishini ta'minlamoqda. Xususan, zamonaviy ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, internet tizimi) orqali tarqatilayotgan xabar va ma'lumotlarga turli siyosiy ta'qiqlar, davlat chegaralari to'siq bo'la olmaydi.

Axborot iste'moli ijtimoiy, aniqrog'i, ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisadir. Axborot iste'moli xizmatlar iste'molining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday xizmatni iste'mol qilishdan avval uning sifati, narxi, foydasi, qulayligi va boshqa shu kabi xususiyatlariga e'tibor beriladi. Bu jarayonda iste'mol qilinayotgan xizmatning talab-taklif xususiyatlari ham inobatga olinadi. Masalan, taklifi kamayib ketgan xizmatlarning iste'mol darajasi yuqori bo'lib, ularga talab kuchayadi. Mazkur xususiyatlar axborot iste'moli jarayoniga ham xosdir. Biroq, ma'naviy ne'mat bo'lgan axborotni iste'mol qilish o'ziga xos tamoyillari bilan ham ajralib turishini ta'kidlash joiz. Xususan, axborot - konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonidan iste'mol qilinadi, mazkur darajalarda iste'mol jarayonlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, biror shaxs uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumot, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin. Shuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga ham ega. Chunonchi, g'arbda o'ta ommabop bo'lgan axborotlar, sharq xalqlari tomonidan kam iste'mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir tarixiy davrda katta qiziqish bilan

kutib olingan ma'lumotlar, vaqt o'tishi bilan odatiy holga aylanishi va ijtimoiy hayotda bu tarzda in'ikos etmasligi mumkin.

Axborot iste'moli kim tomonidan iste'mol qilinishidan qa'tiy nazar, qabul qilish, tushunish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bosqichlarda amalga oshadi.

Bugungi kunda axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni taqozo etmoqdaki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur. Axborot iste'moli madaniyati globallashtiruv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan, internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi davr kishisi oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqoriki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zumda qiymatini yo'qotishi aniq. Bu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilardan tubdan farq qiladi.

Shubhasiz, zarur axborotlarga ega bo'lishga intilish - davr talabi. Biroq, bugungi kunda shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlatning o'zi haqida axborotlarni tarqatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning ikki asosiy jihati mavjud. Birinchidan, internet tarmog'ining imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda, ulardan mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini mustahkamlashda keng foydalanish zarur chunki, jahonga tanilish uchun nafaqat real dunyoda, balki, axborot dunyosi (virtual olam) da ham harakatlar olib borish zarur. Bizning zaif tomonimiz shundaki, internetda O'zbekiston bilan bog'liq ma'lumotlar juda kam, nega deganda, bizda bu jarayonning texnikasi va texnologiyasi talab darajasida emas. Milliy qadriyatlarimiz, tarix va merosimiz, bugungi fan, san'at va adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini internetga kiritish dasturi ishlab chiqilmagan. Ikkinchi muhim jihat shundaki, yurtimiz hayotiga doir ayrim noxolis, tor doiradagi manfaatlardan kelib chiqib tarqatilayotgan ma'lumotlarga javoban axborotlarni global miqyosda targ'ib-tashviq etish, tabiiyki, axborot xurujlariga qarshi o'ziga xos qalqon vazifasini bajaradi. Bu esa, turli geosiyosiy manfaatlar doirasidagi axborot xurujlari ta'sirini kamaytirish va milliy axborot makoni xavfsizligi ta'minlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Buning uchun kishilarda axborot iste'moli madaniyatini yuksak darajada shakllantirishga erishish zarur. Shundagina ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin etishning oldi olinadi. Eng muhimi esa axborot iste'moli madaniyatiga ega inson, jamiyat, xalq va millat g'arazli manfaatlar doirasidagi geoaxborotlar ta'siriga tushib qolmaydi. Albatta, axborot iste'moli madaniyatining shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tizimli ravishda sa'y-harakatlarni olib borishni taqozo etadi.

Axborot iste'moli madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Axborotni kommunikativ, regulativ tartibga solish, axborot, aksiologik (baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste'moli madaniyatining aksiologik funksiyasi alohida

ahamiyatga ega. Masalan, internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqi odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani tabiiyki, shaxs, ayniqsa, yoshlar g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish orqali bunday ta'sirlarning oldi olinadi.[3]

Boshqacha aytganda, tarmoqdan illat qidirish bilan ovora bo'lmasdan, uning imkoniyatlaridan yurtimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida keng yoyish yo'lida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, internet virtual, ammo, ob'ektiv hodisadir, uning hayotimizga kirib kelishini nazorat qilib bo'lmaydi. Odamlarimizni internet tizimidan uzoqroq tutishga intilish emas, balki, undan oqilona foydalanishga o'rgatish, axborot iste'moli madaniyatini yuksaltirishga harakat qilish to'g'ri bo'ladi. Zero, kishilarda axborot iste'moli madaniyati shakllangan bo'lsa, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarni baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o'z qarashlarida qadriyatlar tizimi sofliqi muhim rol o'ynaydi. Lekin, aksariyat hollarda, ayniqsa, baholanilayotgan hodisa o'zga madaniyatga tegishli bo'lsa, o'zimiz mansub bo'lgan madaniyat ruhan singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo'ladi va butun bo'y-basti bilan o'zligini namoyon qiladi. Madaniyatning baholash funksiyasi tufayli tanlash sodir bo'ladi, madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi o'ziga xoslik, ayni paytda, davomiylik, vorislik ta'minlanadi.

Internet saytlaridan tarqatilayotgan bu kabi yot g'oyalar va axborotlarni yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlari jahondagi barcha mamlakatlari xalqini ham tashvishga solmoqda.

Yoshlarimiz ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga rahna solishga, ma'naviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni bo'lgan tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan g'arazli kuchlarga qarshi doimo ogoh turishimiz darkor. Ana shundagina bizni hech kim, hech narsa o'z tanlagan yo'limizdan ortga qaytara olmaydi va biz ko'zlagan ulug'vor maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Yurtimizga olomoncha madaniyat asosan internet tarmog'i orqali kirib kelayapti. Bu hol odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat pasayishi kabi ko'plab noxushliklarni keltirib chiqaryapti. Yoshlarning hayosizlarcha kiyinishi, tanalariga rasm chizdirishi, quloq va burunlarini teshib, "zirak" taqib olishlari, qiz bolalarning o'g'il bolalarga o'xshab kiyinishi kabi "moda" unsurlari aynan internet orqali yoyilayotgani aniq.

Internetdagi g'oyaviy tuzoqlar go'yo madaniyatga o'xshashi va yoshlarga moydek yoqishi bilan ham xatarlidir. Insoniy axloqda ters olomoncha madaniyat ayrim yoshlar ongiga chang solib, ma'naviyat kushandasiga aylanmoqda. Achinarlisi, mazkur "madaniyat" ta'siriga berilib qolganini yoki uning qurboniga aylanayotganini ko'pincha yoshlar o'zlari sezmaydi.

Global axborot tizimidagi xabarlarini "filtrsiz" qabul qilish oqibatida yoshlar ongi zaharlanmoqda. Masalan, biror kerakli ma'lumotni olish maqsadida saytga kirgan yoshlarning "falonchi mashhur shaxs halokatga uchradi" kabi shov-shuvli e'longa



ko'zi tushadi va beixtiyor uni ochadi. U yerda esa yana bir sayt ochiladi va unda aldanchi xabarlarining davomini o'qiydi. Shu tariqa g'o'r yoshlar g'alamislarning tuzog'iga ilinadi.

Bunday jirkanch "madaniyat" ta'siriga berilgan o'spirin loqayd, hayotga yengil-yelpi qaraydigan, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo'lib ulg'ayadi. Shuningdek, olomoncha madaniyat tuzog'iga ilingan bolalar inson istagan ishini qilaverishi mumkin, deb biladi, ya'ni o'taketgan manqurtga aylanib qoladi.

Ijtimoiy tarmoqlarning oila va jamiyat barqarorligiga solayotgan eng katta tahdidlaridan yana biri – ulardagi muloqotlar sababli ko'plab tinch-totuv oilalar barbod bo'lib ketayotganidir.

Farzandining istiqbolini, yorqin kelajagini istaydigan har bir ota-ona tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bermog'i zarur. Bola tarbiyani turli kompyuter o'yinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo, ota-onalaridan, bobo-momalaridan, ezgulikka, poklikka va dinu diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblardan olsin.

Insonlar qalbi va ongi uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma'naviyat, odob-axloq tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir. O'sib kelayotgan yosh avlodni diniy – milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni har-xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda har bir voyaga yetgan yosh o'spirin o'z shaxsiy nuqtai nazari, o'z qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. O'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida shaxsiy munosabatini bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy extiyojidan kelib chiqib, o'ziga mos axborotni qabul qiladi, uni tahlil etadi. Uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi ana shu tahlillar asosida o'zining shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada o'z nuqtai nazarini shakllantiradi. Bu jarayon bevosita yoshga xos psixologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Demak, har qanday axborot mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan «shaxs-jamiyat-davlat» mutanosibligiga u yoki bu tarzda ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning roli yana ham oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Березкина О. П. Социально-психологическая воздействия СМИ. О.П. Березкина. - М.: Изд-й центр: «Академия», 2008. - 240 с.
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 199 с.
3. Воловик В.М., Вид В.Д. "Психологическая защита" как механизм компенсации и ее значение в психотерапии больных шизофренией

Психологические проблемы психогигиены, психопрофилактики и медицинской деонтологии / Ред. М.М. Кабанов. – Л., 1976. – 101 с.

4. Вохрышева М. Г. Информационная культура. Учебное пособие. - Самара, 2004. - 123 с.

5. Геген Н. Психология манипуляции и подчинения. – СПб. Питер, 2005.

**MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]**

Saidov Azamat Ismoilovich

(Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor)

Manzil: Samarqand shahar 29 dafa 25-uy 22- xonodon

saidovazamat@bk.ru.

Axmedov Anvar Diyor o'g'li

(Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))

Manzil: Samarqand vil. Pastdarg'om tumani Oqmang'it M.F.Y Kuzmunchoq
ko'chasi 39-uy

anvaraxmedov9614@gmail.com.



JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARI



Arzikulov Dilshod Ne'matovich
O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

Annotatsiya.

Kirish: maqolada sport faoliyatiga qisqacha tavsif berilib, unda sportdagi xissiy-emosional kechinmalarning xususiyatlari sport faoliyatining motivlari va uning g'oyaviy yo'nalishlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Maqsad: Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini oshirish, milliy o'yinlarini qayta tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo'yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash

Xulosa: Sport faoliyati ham inson faoliyat turlarilaridan biri sifatida u bilan shug'ullanish bir shaxsni emas, balki butun bir jamoani qolaversa, davlatni dunyoga tanituvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: faoliyat, hissiyot, iroda, irodaviy zuriqish, motiv, jismoniy sifatlar, ommaviy sport, yuqori natijalar sporti va professional sport, jismoniy rivojlanish, jismoniy rivojlanish dinamikasi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОРГАНИЗАЦИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ И СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье освещены своеобразные психологические факторы организации спортивной деятельности такие как, эмоциональные переживания, мотивы спортивной деятельности и идейная направленность спортивной деятельности.

ЦЕЛЬ: повысить популярность физического воспитания и спорта в нашей стране, восстановить национальные игры, сформировать здоровый образ жизни, подготовить талантливых спортсменов в современном виде спорта.

ВЫВОД: Спортивная деятельность как один из видов человеческой деятельности, занятие ею является одним из важнейших средств представления миру государства не одного человека, а целого сообщества.

ОПОРНЫЕ СЛОВА И ПОНЯТИЯ: деятельность, эмоция, воля, волевые усилия, мотив, физические качества, массовый спорт, спорт высших достижений и профессиональный спорт, физическое развитие, динамика физического развития.

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS OF ORGANIZING PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS ACTIVITY

Annotation.

INTRODUCTION: This article highlights the unique psychological factors in the organization of sports activities, such as emotional experiences, motives for sports activities and the ideological orientation of sports activities.

AIM: To increase the popularity of physical education and sports in our country, to restore national games, to create a healthy lifestyle, to prepare talented athletes in modern sports.

CONCLUSION: Sports activity as one of the types of human activity, engaging in it is one of the most important means of presenting to the world the state of not just one person, but an entire community.

Key words: activity, emotion, will, volitional efforts, motive, physical qualities, mass sports, elite sports and professional sports, physical development, dynamics of physical development.

Sport sohasidagi ulkan islohatlar va erishilayotgan yuksak natijalar mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan oqilona davlat siyosatining mahsulidir[1]. Yurtboshiimiz tomonidan 2017 yil 7 fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish deb nomlangan bandida “Jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat‘iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” masalasining alohida e’tirof etilishi jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat siyosati darajasida muhimligidan dalolat beradi[2].

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini oshirish, milliy o‘yinlarini qayta tiklash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo‘yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratlarini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda[3].

Har bir inson dunyoga kelibdiki, u qaysidir ma’noda birok bir faoliyat turi bilan shug‘ullanadi va unga bog‘lik holda shakllanadi va voyaga yetadi. Mutaxassislarning fikricha, shaxs shakllanishida eng muhim bo‘lib hisoblangan omillardan biri bu faoliyatdir.

Ma’lumki, inson hayoti davomida ko‘plab faoliyat turlari bilan shug‘ullanadi. Psixologiya fanida shaxs faoliyatini asosan uchta turga o‘yin, o‘qish va mehnat ajratilib o‘rganiladi. Faoliyat - insonning ehtiyoji tufayli yuzaga keluvchi, ongli tarzda boshqariladigan ichki va tashqi faolligidir.

Sport faoliyati ham inson faoliyat turlaridan biridir. Sport faoliyati bilan shug‘ullanish bir shaxsni emas, balki butun bir jamoani qolaversa, davlatni dunyoga tanituvchi eng muhim vositalardan biridir[5].

Tarixiy taraqqiyot jarayonida odamning harakat qilishga va jismoniy sifatlarini o‘stirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga doimo intilishi jismoniy mashqlarning asta – sekin zamonaviy sport turlariga o‘zgarib borishiga olib keldi.

Bugungi kunda zamonaviy sportni uch toifaga bo‘lish mumkin, ya’ni, ommaviy sport, yuqori natijalar sporti va professional sportdir. Shuni nazarda tutish kerakki, sportning har bir toifasi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadli yo‘nalishlariga ega bo‘ladi. Jumladan: ommaviy sport bilan shug‘ullanishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - shug‘ullanuvchilar salomatligini mustahkamlash, ularni jismoniy va psixologik jihatdan rivojlantirish, shuningdek, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishdan iborat bo‘lsa, yuqori ko‘rsatkichlar sportida esa turli-tuman jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida sportchilarni eng yuqori jismoniy va psixik imkoniyatlarini aniqlash va

qiyosiy baho berish asosiy vazifa hisoblanadi. Professional sport esa shou - tomoshaga, biznesning alohida sohasiga aylanib, katta pul topishning manbai bo'lib bormoqda, bunda ba'zan kishilar, sog'lig'iga zarar yetkazib bo'lsa-da, katta pul topishni maqsad qilib qo'ymoqdalar[4].

Bundan tashqari sport faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ekstremal vaziyatlardan ham holi emas. Ma'lumki, sportda, hamisha aniq va ramziy xavf mavjuddir. Masalan, boks, kurash, dyuz-do kabi sport turlarida raqibdan og'ir zarba olishning real xavfi bor. Bundan tashqari sportchini oldida yana bir shunday xavf borki, u ham bo'lsa, raqibiga yutqazish xavfidir. Bunday ramziy xavf barcha sport turlarida mavjuddir.

Sport faoliyatida ma'lum bir natijalarga erishish quyidagi jihatlar bilan o'zviy bog'liq[6].

birinchidan, maxsus jismoniy mashqlarni bajarish davrida turli shakldagi muskullar faolligi namoyon bo'lib, sport faoliyati mobaynida inson kerakli darajada jismonan chiniquadi, umumiy jismoniy tayyorgarlikga ega bo'ladi;

ikkinchidan, sportchini tanlagan sport turi bilan bog'liq bo'lib, sportchidan muayyan ko'nikma, malakalarini takomillashtirib borishga intilishi jismoniy mashqlarni bajarishda eng yuqori natijalarni ko'rsatishga yo'naltirilgandir;

uchinchidan, sportchini tanlagan sport turiga oid jismoniy mashqlarni bajarishda yuqori texnikasini egallash bilan bog'liq bo'lib, sportchidan maxsus va izchil tarzda davom etadigan uzoq vaqtli mashg'ulotlarni talab etadi, bu jarayonda sportchi muayyan harakat malakalarini o'zlashtiradi va takomillashtirib boradi, shu bilan birga ayni sport turi bo'yicha shug'ullanish uchun zarur bo'lgan kuch, chidamlilik, tezkorlik, harakatlanishdagi chaqqonlik, epchillik va xarakterdagi irodaviy sifatlarga mardlik, jasurlik, qat'iyyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqqillik, irodalilik, g'alabaga ishonch va hokazo ega bo'ladi;

turtinchidan, sport faoliyati sport kurashi bilan bog'liqligi ya'ni, bu holat sport musobaqasi jarayonida alohida harakterga ega bo'lib, sportchida jismoniy kuchlarini yuqori zo'riqtirishga, katta kuch va hissiy – irodaviy kechinmalarining chuqurligi, psixik jarayonlarning keskin faoliyatini rivojlantirishga yordam beruvchi, sport faoliyatining zarur tarkibiy qismi bo'lgan, sport musobaqalari jarayonida keskin tus oluvchi bellashuvlar bilan bog'liq;

beshinchidan, jismoniy va ma'naviy kuchlarni namoyon bo'lishi bilan bog'liqligi ya'ni, sport faoliyatini murakkab tuzilishga egaligini maxsus malaka va ko'nikmalarni maksimal darajada aniqlash, motor- harakatchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni doimiy ravishda yuqori darajada saqlab turish zarurligi. Shu nuqtai nazardan sport faoliyati nihoyatda murakkab tarkibga ega bo'lib, o'ziga nafaqat musobaqalarda ishtirok etishni, balki izchil ravishda olib boriladigan tayyorgarlik mashg'otlarini ham qamrab oldi;

oltinchidan; ongli ravishda bajarilishi bilan ajralib turuvchi juda katta mas'uliyat hissi, hamda eng yuqori va samarali natijalarini qo'lga kiritish istagi, ushbu harakatni bajarishda rekord natijalarini qo'lga kiritish istagi bilan mavjud. Sport faoliyati axborot va uni qayta ishlash jarayonlariga sportchining xotirasi va diqqatiga,

uning irodaviy xatti -haraktlari va emotional xolatiga nisbatan juda katta talablarni qo'yadi.

Ma'lumki, sezgi va idroklar harakat faoliyatining asosi bo'lib hisoblanadi. Harakatni faqat sezgilar orqali idrok etish mumkin. Shuning uchun ham sezgi organlarini rivojlantirish ayniqsa, muskul – harakat, muvozanat, kurish, eshitish, teri – tuyush sezgilarining ahamiyati kattadir.

Harakat faoliyati tasavvur, hayol, xotira ham o'ziga xos ahamiyat ega. Har qanday harakatni esda qoldirish ong jarayon hisoblanadi. Harakatni oldin tasavvur qilmasdan turib uni bajarish qiyin. O'quv – mashq jarayonidagi har bir harakatni umumiy tasavvur qilish tasodifan emas[7].

Kurash, boks, qilichbozlik, dzyu – do, futbol, basketbol, voleybol va boshqa sport turlarida yuqori taktik mahoratga ega bo'lish, turli vaziyatlardagi holatlarni tez anglab, izchillik bilan qaror qabul qilishda tafakkurning o'rni muhimdir.

Har qanday sport turida jismoniy mashqlar va sport mashg'ulotlarini uzoq muddatda bajarib borish natijasida ixtisoslashtirilgan idroklar rivojlanadi. Jumladan: yugurishda "vaqtni his qilish", suzishda "suvni his qilish", futbol va sport o'yinlarida "to'pni his qilish", siklik sport turlarida "makon va vaqtni his qilish", boksda "oralik masofani his qilish" va boshqalar.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, jismoniy mashqga o'rgatishda va sport mashqi jarayonida shaxsni psixik jarayonlarini va emotional irodaviy holatlarini hisobga olish muhimdir. Chunki,

1) kuch chidamlilik singari jismoniy sifatlarni shakllanishi va rivojlanishi ko'pincha, irodaviy sifatlarning tuzilishiga, qisman esa, maqadga intilish va sobitqadamlikka bog'liq;

2) yangi harakat malakalarini shakllantirish va qayta o'rganishning tezligi dinamik stereotipning tez shakllanishi, muskul-xarakat sezgilarini va idrokni anikligi, nerv sistemasining dinamikligi va ildamligiga bog'liqdir.

3) sportchining taktik faoliyati uning axborotlarini qabul qilish va qayta ishlashdagi individual xususiyatlariga, operativ tafakkur va boshqalarga bog'lik.

4) musobaqalarda sportchining yaxshi natijalar ko'rsata olmasligi ba'zan ularning yetarli jismoniy tayyorgarlikka ega emasliklaridan emas, balki o'z kuchini to'g'ri safarbar qilish ko'nikmalarini yo'qligi, psixik zo'riqishga bardosh bera olmasligidandir.

Har qanday ixtiyoriy xatti-harakat uni amalga oshirish uchun juda kam miqdorda bo'lsa-da, kishidan irodaviy zo'r berishni taqozo etadi. Odamning irodaviy intilishlari, ya'ni xatti-harakatlari uning mushaklari harakatlaridan farq qiladi. Albatta, har qanday irodaviy zo'r berishda ham, sezilar-sezilmas darajada muskul harakatlari mavjud bo'ladi. Biroq, bu harakatlar irodaviy zo'r berishlar uchun asosiy hisoblanmaydi, zero, irodaviy zo'r berishlardagi asosiy jihat bu, ichki zo'riqish holatidir. Irodaviy zo'r berishlar doimo ongli ravishda amalga oshiriladi, sababi bajariladigan xatti-harakatning maqsadi va undan kutilayotgan natijani u yoki bu tarzda aniq tasavvur qilish bilan bog'liqdir. Irodaviy zo'r berishlar, irodaviy hatti-

harakatni bajarishda duch keladigan to'siqlarda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Irodaviy zo'r berishning jadalligi, uni bajarishda duch kelinadigan qiyinchiliklarga to'g'ri proporsionaldir.

Irodaviy zo'r berish sub'ektiv jihatdan u yoki, bu qiyinchilikni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos ichki holat sifatida his qilinadi. Biror-bir qiyinchilikning mavjudligi, irodaviy zo'r berish namoyon bo'lishining asosiy va zaruriy shartidir.

Sport faoliyati kuchli va yorqin emosional kechinmalari bilan ajralib turadi. Sportni his tuyg'ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Sport faoliyatining kuchli his tuyg'ularga boyligi, ularning emosional jozibadorligi - bu sportning inson shaxsiyatiga ijobiy ta'sir qilishidagi eng muhim shartlardan biridir. Ammo sportdagi emosional kechinmalar boshqa his - tuyg'ular kabi stenik yoki astenik bo'lishi, ular insonning tabiiy jarayondagi xatti-harakatlariga xam ijobiy ham, salbiy ta'sir etishi mumkin.

Odamning nima qilmoqchi yoki nimaga erishishni belgilovchi faoliyat maqsadidan farqli ravishda motivlar u nima uchun aynan ana shu ishni bajarishni yoki shunga erishishni xohlashini tushuntiradi.

Motiv - bu o'ta murakkab psixologik birikma bo'lib, u mazmun jihatdan kishi tomonidan amalga oshiriladigan hatti-harakat va faoliyatning asosi bo'lib hisoblanadi. Ya'ni mazkur harakatlarga sabab bo'lgan asoslarni ifodalaydi.

Sport bilan shug'ullanishga undovchi motivlarning asosiy psixologik xususiyatlari, shaxsni ma'lum bir sport turi bilan shug'ullanishga yo'naltirib unda qanoatlanish hissini paydo qiladi va bu xislarni ayni sport faoliyatidan ajratib bo'lmaydi. Sport faoliyat motivlarini quyidagi bevosita va vositali[8] jihatlariga ajratish mumkin.

Sport faoliyatining bevosita motivlari:

a) sportchi muskullaridagi faollikning namoyon bo'lishidan o'ziga xos qanoatlanish hislarini boshidan kechirish;

b) o'z xarakterlarining aniqligi, go'zalligi, tezkorligi va chaqqonligidan estetik zavqlanish;

v) murakkab va xafli mashqlari bajarish vaqtida o'zini dadil, jiddiy va qat'iyatli ko'rsatishga intilish;

g) sportning muxim tarkibiy qismi bo'lgan sport musobaqalarida ishtirok etishda paydo bo'ladigan mamnuniyat;

d) rekord natijalariga erishish uchun intilishi, o'zining sport maxoratiga ega ekanligini isbotlash, har qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramasdan g'alabani qo'lga kiritish.

Sport faoliyatining vositali motivlari:

a) kuchli, baquvvat va sog'lom bo'lishga intilish ya'ni, "sport bilan shug'ullanaman, chunki u sog'liqni mustahkamlaydi, odamni tetik va g'ayratli qiladi" degan maqsadda;

b) sport bilan shug'ullanish orqali o'zini amaliy faoliyatga tayyorlash ya'ni, sport bilan shug'ullanish orqali mehnat faoliyati samaradorligini o'ttirishga intilish;

v) o'zida mas'uliyatni his qilish ya'ni, sport bilan shug'ullanishning sababi "Jismoniy tarbiya" fanini maktab dasturiga majburiy qilib kiritilganligi;

g) sport faoliyati bilan shug'ullanishni ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri anglash orqali ya'ni, sport orqali o'zini va yurtini butun dunyoga tanitish istagining paydo bo'lishi.

Sport faoliyati mativlari bir biridan nafaqat hilma xilligi bilan farlanadi balki, ularning rivojlanish dinamikasi sport faoliyati bilan uzoq va muntazam ravishda shug'ullanish natijasida o'rin alashinib o'zgarib boradi. Rus olimi A.TS. Puni[8] sport faoliyati motivlari ustida maxsus tadqiqotlar o'tkazishi orqali insonni sport faoliyati bilan shug'ullanishga undovchi motivlar rivojlanish dinamikasini quyidagi uchta bosqichga ajratgan.

1. Sport faoliyati bilan shug'ullanishning dastlabki bosqichi

2. Tanlagan sport turiga ixtisoslashuv bosqichi

3. Sport mahoratini egallash bosqichi

Har bir bosqich sportchidan ma'lum bir maqsadlarga erishishni talab etadi. Jumladan:

1. Sport faoliyati bilan shug'ullanishning dastlabki bosqichida dastlab sportchidan tanlagan sport faoliyat turining mazmun – mohiyatiga kirib borishni talab etadi. Bu faoliyatga undovchi motivlar quyidagicha xarakterga ega:

a) jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga bo'lgan turli xil qiziqishlar (o'smir ko'p hollarda bitta sport faoliyati turi bilan bir vaqtning o'zida bir nechta turlari bilan shug'ullanadi. Akasariyat hollarda ular o'zlarini sport mahoratni ko'rsata oladigan sport turi bilan emas, balki umuman boshqa sport turi bilan shug'ullanadi);

b) bevositaliligi ("jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishimga sabab men u darsni sevaman");

v) muayyan sport turi bilan shug'ullanish uchun ijtimoiy muhitning mavjudligi u bilan bog'liqligi ("Sirdaryo bo'yida yashaymanu nega suzishni yaxshi bilmasligim kerak?");

g) ma'lum darajada burchga nisbatan mas'uliyat hisini o'zida aks ettirishi bilan bog'liqligi ("Jismoniy tarbiya darsiga qatnashishim kerak edi").

2. Tanlagan sport turiga ixtisoslashuv bosqichi davridagi asosiy motivlar quyidagicha xarakterga ega:

a) muayyan sport turiga nisbatan ijtimoiy qiziqish o'yg'onish va ortadi;

b) muayyan sport turiga nisbatan qobiliyatlarni namoyon qiladi va ularni taraqqiy ettirishga itiladi;

v) sportdagi yutuqlar tufayli emotional kechinmalarni ortishi va mustahkamlashga intilishi;

g) maxsus bilimlarni kengaytirish, sport texnikasini takomillashtirish mashqlanish holatini yuqori darajasini egallash.

Ushbu sifat jihatidan yangi bo'lgan sport faoliyati motivlari o'zining bir nechta xususiyatiga ko'ra tavsiflanadi. Ular asosana sport ixtisosligi bilan bog'liqdir. Sportchi muayyan sport turi bilan shug'ullanish orqali shu soha egasiga aylanib boradi. Jumladan; shug'ullanadigan sport faoliyati turi bo'yicha uchinchi, ikkinchi va birinchi toifga ega bo'lish orqali sportchi gimnast, bokschi, futbolchi, mohir suzuvchi, kurashchi, basketbolchi va h.k. kabi sport malaka toifasiga ega bo'ladi.

3. Sport mahoratini egallash bosqichi davrida sport faoliyatining asosiy motivlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

a) qiyin va murakblashgan sport mahoratini yuqori natijalarini saqlab qolish va sport kurashi jarayonida yanada yuqori natijalarga erishish uchun intilish;

b) o'zining sportda erishgan yutuqlari bilan Vatanga xizmat qilishga va halqaro musobaqalarda yurtining sporti sha'nini saqlab qolish, dunyo rekordlarini qo'lga kiritishga intilish;

v) tanlangan sport turini rivojlantirishga intilish, uning taktik va texnik jihatdan boyitish, o'z tajribalarini yosh sportchilarga o'rgatish kabi ehtiyojlarini yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan motivlar.

Sport faoliyatining bu davrdagi motivlari o'zining aniq ijtimoiy yo'nalishlari bilan ajralib to'radi.

Insonni sport faoliyati bilan shug'ullanishga undovchi motivlar sport faoliyatining g'oyaviy yo'nalishini asosini belgilab beruvchi xususiyatga ega bo'ladi. Ma'lum ma'noda sport o'yin bilan umumiy o'xshashlikka ega, chunki sport faoliyatini motivlari aynan shularga kiradi.

Sport bilan shug'ullanish – faqat rekordlargina emas, sport bilan shug'ullanish bu insonni mehnatsevarlikka, o'z ustida tinimsiz ishlaga, o'z Vatani sha'nini himoya qilishga va har tomonlama taraqqiy etish uchun muxim vositalaridan biri sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslarni jismoniy taraqqiyoti masalasi bilan birga ma'naviy – axloqiy sifatlarini ham tarbiyalash imkonini beradi.

Sport tirik organizm faoliyati bo'lib, murakkab tuzilishga ega va bir biri bilan organik bog'lanib ketgan quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

a) jismoniy mashqlar texnikasi, jismoniy rivojlanishni;

b) jismoniy tarbiyaning tashkiliy shakllarini;

v) jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini;

g) jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga undovchi motivlarni.

Jismoniy rivojlanish vazifalarni jismoniy tarbiyani pedagogik jarayoni bilan cheklash mumkin emas, chunki insonni sport bilan shug'ullanishga asosiy undovchi bu motiv hisoblanadi.

Jismoniy tarbiyaning pedagogik jarayonida sport faoliyati bilan shug'ullanishga undovchi motivlariga ta'sir etmasdan turib, hech bir trener sportchini sport texnikasi va taktikasini puxta egallashga o'rgata olmaydi. Bu pedagogik jarayonni to'la qonli amalga oshirishda trener sportchini na faqat sport texnikasiga balki, uni ma'naviy – axloqiy qiyofasini ham shakllantirishga mas'uldir.

Yuqorida bayon etilganlardan, sportchilar shaxsining qaror topishi va shakllanishida sport faoliyati nihoyatda muhim rol o'ynaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Murabbiylar uchun sportchining talangan sport turi bilan shug'ullanishga majbur etadigan motivlarning xususiyatlarini aniq bilishlari o'ta zarur. Shuningdek, sportchilarning ehtiyojlarini qondira oladigan vaziyatlarni modellashtirish ham talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va halq faravonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : "O'zbekiston" NMIU, 2017.- 48 b.
3. Arzikulov D.N., Gapparov Z.G. Vaxabova D.B. Psixologiya va sport psixologiyasi jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun o'quv qo'llanma / Uz.R. Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: 2018. 280 b.
4. Арзикулов Д.Н. Развитие способностей к спортивно-педагогической деятельности как психолого-педагогическая проблема. – Фан-спорта № 2/2019
5. Родионов А.В. Практика психологии спорта. Ташкент, "Lider Press"-2008r.
6. П.А. Рудик. Психология. Физкультура и спорт. – М; 1974 г. 380-382с.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Arzikulov Dilshod Ne'matovich

Ijtimoiy fanlar fakulteti, Umumiy psixologiya kafedrasi professori v/b. psixologiya fanlari doktori, Rossiya Federatsiyasi Petrovskiy nomidagi Fan va san'at Akademiyasining muxbir a'zosi

<https://orcid.org/0009-0005-3082-2966>



IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK OMILLARI SHAKLLANISHINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI



Ganjiyev Feruz Furqatovich

Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridagi kompetentlik muammosiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirish uchun xorij, shu jumladan, Rossiya hamda O'zbekistonlik tadqiqotchilar ishlarining nazariy tahlili bayon qilingan. Kompetentlik tushunchasining ijtimoiy-psixologik mohiyati va uni tadqiq qilish bilan bog'liq ilmiy yondashuvlarning ilmiy-amaliy asoslari bayon qilingan.

MAQSAD: maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridagi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini aniqlash asosida amaliy tavsiyalar ishlab shiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Jahonda pedagogik kadrlar tayyorlashning zamonaviy innovatsion tizimlarini yaratish asosida so'nggi o'n yilliklarda ta'limning rivojlanishi ko'proq pedagoglarning uzluksiz kasbiy kamolotini takomillashtirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik kompetentligi rivojlanishini ta'minlovchi omillarga bog'liq bo'lishi masalalari dolzarblashib bormoqda. Evropa Kengashi mamlakatlarining 2020 yilga qadar ta'lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash sohasidagi «Hamkorlik strategiyasi», Oliy kasbiy ta'lim muassasalari Yevropa assotsiatsiyasining «EURASHE», «ENIC-NARIC» axborot-tizim markazlari, Ta'lim sohasidagi Xalqaro tashkilot «EDUCATION INTERNATIONAL» hujjatlarida pedagog kadrlarga alohida talablarning qo'yilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada pedagog-kadrlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos kreativ yondashuvlariga e'tibor berish, ularning professional, kommunikativ ta'sir kompetensiyalarini qaror toptirish orqali faoliyati natijadorligini ta'minlash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

XULOSA: Pedagogik-psixologik manbalarda ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining qator omillari, jihatlari tadqiq etilganligiga qaramay uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beruvchi izlanishlar yetarli darajada emas.

Tarbiyachilardagi kommunikativ moslashuvchanlikning ijtimoiy-psixologik kompetentlik omili sifatida namoyon bo'lishi natijasida muloqotdagi hamkorlik pozitsiyasini shakllanishi uchun psixologik qarama-qarshilikni muvofiqlashtirish, frustratsiyani yengishga yo'nalganlikning hissiy-bilish jihatiga ustuvorlik berish asosida kasbiy nizolarni prognozlash hamda ularning oldini olish ko'nikmasini tarkib toptirish mumkinligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-psixologik kompetentligi, iste'dod, mexanizm, psixologik xizmat, kompetensiya, eksperimental model.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФАКТОРОВ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ. В данной статье изложен теоретический анализ работ зарубежных, в том числе российских и узбекских исследователей с целью анализа и систематизации научных источников по проблеме компетентности воспитателей дошкольных образовательных организаций в соответствии с целями исследования. Изложена социально-психологическая сущность понятия компетентности и научно-практические основы научных подходов к ее исследованию.

ЦЕЛЬ: На основе выявления проявлений и развития факторов социально-психологической компетентности у воспитателей дошкольной образовательной организации разрабатываются практические рекомендации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: На основе создания современных инновационных систем подготовки педагогических кадров в мире в последние десятилетия становится актуальным вопрос о том, что развитие образования в большей степени зависит от факторов, обеспечивающих развитие социально-психологической компетентности педагогов, направленных на совершенствование непрерывного профессионального развития. Особое значение приобретает то, что особые требования к педагогическим кадрам предъявляются в документах «стратегии сотрудничества» стран Совета Европы в области образования и профессиональной подготовки кадров до 2020 года, информационно-системных центрах Европейской Ассоциации высших профессиональных учебных заведений «EURASHE», «ENIC-NARIC», Международной организации в области образования «EDUCATION INTERNATIONAL». В связи с этим актуальными проблемами остаются акцент на специфических креативных подходах к развитию социально-психологической компетентности педагогических кадров, обеспечению эффективности их деятельности путем отбора компетенций профессионального, коммуникативного воздействия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Несмотря на то, что в педагогико-психологических источниках исследован ряд факторов, аспектов проблемы социально-психологической компетентности, исследований, раскрывающих закономерности ее развития, недостаточно.

Установлено, что в результате проявления коммуникативной гибкости у воспитателей как фактора социально-психологической компетентности для формирования позиции сотрудничества в общении возможно формирование умения прогнозировать профессиональные конфликты и их предупреждение на основе координатции психологического противостояния, приоритетности эмоционально-познавательного аспекта ориентации на преодоление фрустрации.

Ключевые слова: sudebnyy psixolog-ekspert, sotcialno-psixologicheskaya kompetentnost, sudebno-psixologicheskaya ekspertiza, professionalnaya kompetentnost, kompetentnost, emotsionalnyy intellekt, professionalnaya deyatelnost.

THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF THE FORMATION OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE FACTORS

Annotation.

INTRODUCTION: This article describes the theoretical analysis of the work of researchers from abroad, including Russia and Uzbekistan, in order to analyze scientific sources on the problem of competence in Educators of preschool educational

institutions and systematize them in accordance with the purpose of the study. The socio-psychological essence of the concept of competence and the scientific and practical foundations of scientific approaches related to its research are described.

AIM: The preschool educational organization consists in drawing up practical recommendations based on determining the manifestation and development of socio-psychological competence factors in its educators.

MATERIALS AND METHODS: On the basis of the creation of modern innovative systems of training of pedagogical personnel in the world, the issues of the fact that the development of education in recent decades will depend more on factors that ensure the development of socio-psychological competence of educators, aimed at improving the continuous professional maturity of educators, are becoming more relevant. The "cooperation strategy" of the countries of the Council of Europe in the field of education and professional training of personnel by 2020, the "EURASHE" of the European Assoc of institutions of higher professional education, the information and system centers "ENIC-NARIC", the International Organization in the field of Education "EDUCATION INTERNATIONAL" documents place special requirements on pedagogical personnel. In this regard, it remains an urgent problem to pay attention to the specific creative approaches to the development of socio-psychological competence of pedagogical personnel, to ensure the effectiveness of their activities by making decisions on professional, communicative competencies of influence.

CONCLUSION: Despite the fact that a number of factors, aspects of the problem of socio-psychological competence are studied in pedagogical-psychological sources, the research that reveals the laws of its development is insufficient.

As a result of the manifestation of communicative flexibility in educators as a factor of socio-psychological competence, it was found that it is possible to coordinate psychological confrontation for the formation of a cooperative position in communication, to predict professional conflicts on the basis of prioritizing the emotional-cognitive aspect of orientation towards overcoming frustration, as well as to structure the.

Key words: Социально-психологическая компетентность, одаренность, механизм, психологическая служба, компетентность, экспериментальная модель.

*R*espublikamizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yilgan talablarni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlashga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilanib, ularni amalga oshirish asoslari yaratilmoqda: «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari: bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi; pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart» ekanligi ustuvor yo'nalishlarning biri sifatida belgilanib, ushbu mas'uliyatli vazifalarning amaliy

jihatdan bajarilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va uni bevosita amaliyotda qo'llash yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni, 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida», 2018 yil 5 apreldagi PQ-3651-son «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi kunda kompetentlik asosan, inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunda "qobiliyat" tushunshasi talqiniga turlisha yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvshi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivatsion, xulq-atvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvshi "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunshalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridagi kompetentlik muammosiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirish uchun xorij, shu jumladan, Rossiya hamda O'zbekistonlik tadqiqotchilar ishlarining nazariy tahlili bayon qilingan. Kompetentlik tushunchasining ijtimoiy-psixologik mohiyati va uni tadqiq qilish bilan bog'liq ilmiy yondashuvlarning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari bayon kilingan. Binobarin, ijtimoiy-psixologik kompetentlik masalasi qadimdan sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan durdona asarlarining asosini tashkil qilib kelgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Donish, Abdulla Avloniylar tomonidan yozilgan asarlarda muammo atroflicha talqin qilingan.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlarini G.M.Andreeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, A.JI.Yujaninova, D.Mayers, V.A. Labunskaya, Ye.S.Mixaylova, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, A.V.Petrovskiy, V.A.Kruteskiy kabi taniqli psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyachilarining kompetentligi muammosi faoliyat va shaxsning uyg'unligi jihatdan ham alohida tadqiq etilgan. Umuman kompetentlik muammosi va uning ijtimoiy-psixologik tamoyillari respublikamiz olimlari tomonidan ham o'rganilmoqda. Bunda shaxslararo

munosabat, pedagogik muloqotga qobiliyatlilik, o'zaro bir-birini tushunish va idrok etish, pedagogik hamkorlik va faoliyatni boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Binobarin, respublikamizda amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlarning umumiy tavsifiga murojaat qiladigan bo'lsak, eng avvalo professorlar M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, F.B.Shoumarov rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda shaxsning muloqotmandlik, muomalaning o'quv faoliyatini boshqarishdagi roli, hamkorlik faoliyatini yoritishga qaratilgan tadqiqotlarini alohida qayd etish mumkin. Chunonchi, E.G'. G'oziev ta'lim beruvchining va ta'lim oluvchining hamkorlik faoliyatini izchil tashkil etish mexanizmini tizimlashtirgan bo'lsa, M.G.Davletshin o'z izlanishlarida ta'lim beruvchi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan unumli foydalanish malakasiga ega bo'lishi zarurligi haqidagi ilmiy mulohazalarni asoslab beradi. B.R.Qodirov tadqiqotlarida ta'lim oluvchilarning individual psixologik imkoniyatlariga mos ta'lim tarbiya jarayonlarni tashkil etish malakasini shakllantirish orqali kompetentlikka baho berilsa, Sh.R.Baratov rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etish orqali tarbiyachilarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. A.X.Mahmudov tadqiqotlarida kompetentlikning doimo o'zgarib borayotgan sharoitlarda mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifat ekanligi asoslab beriladi. N.A.Muslimov tomonidan kompetentlik insonning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyati mahsuli sifatida tadqiq qilinadi. Olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, shaxsning u yoki bu insonlar bilan o'zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, yoxud o'ziga xos ijtimoiy-psixologik kompetentligi yuqori darajada muloqotmandlik, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, xatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridagi shaxslilik xususiyatlarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning ob'ekti, eksperimental modeli, metodikalari va ularni qo'llash tartibi, shuningdek, metodlarning o'zaro korrelyatsion bog'liqliklari haqida o'tkazilgan empirik tadqiqotlar natijalari bayon qilingan. Xususan, tarbiyachilardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi kommunikativ omillardan kommunikativ moslashuvchanlik (konformizm)ning o'ziga xos jihatlarni aniqlab olish uchun N.P.Fetiskin, V.V.Kozlovlarining «Социально-коммуникативная компетентность» metodikasi qo'llanildi.

1-jadval.

Tarbiyachilardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon bo'lish xususiyatlari (n=576)

№	Omillar	O'rtachadan yuqori (% hisobida)	O'rtachadan past (% hisobida)
1	Kommunikativ-passivlikni yengishga yo'nalganlik	45.1	54.9
2	Kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik	52.1	47.9
3	Kommunikativ konformizmga yo'nalganlik	71.2	28.8
4	O'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik	60.8	39.2
5	Kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik	51.4	48.6
6	Kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik	41.7	58.3

Endi bevosita jadvalda keltirilgan raqamlar tahliliga o'tamiz. Mazkur jadvalda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kommunikativ omillarini tarbiyachilar kasbiy faoliyatida namoyon bo'lishidagi o'ziga xos differensial xususiyatlari aks etgan. Xususan, tarbiyachilarning 71,2%ida «kommunikativ konformizm (moslashuvchanlik)», 60,8%ida «o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik»ning yuqori darajada, 58,3%ida «kommunikativ frustratsiyani yengishga» va 54,9%ida «kommunikativ passivlikni yengishga yo'nalganlik»ning past darajada rivojlanganligi kuzatilgan. Kommunikativ omillarning qolgan ko'rsatkichlari, ya'ni «kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirish», «kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik» bo'yicha ahamiyatli darajadagi natijalar kuzatilmagan.

Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida ahamiyatli natija ko'rsatgan «kommunikativ konformizmga (moslashuvchanlik) yo'nalganlik» omili aslida shaxsning boshqalarni fikr-mulohazalariga to'liq qo'shilishini nazarda tutadi. Bizga ma'lumki, shaxslararo munosabatlarga shaxsning kommunikativ moslashishi suhbatdoshiga yon berish yoki uni chin dildan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash asosida kechadi. Buni «inson – inson» munosabatlari tizimida «ijtimoiy kutuvlar»ga moslashish hamda guruh qadriyatlarni ustun bilish xususiyati bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Biz mazkur omilni kasbiy nizolarni oldini olish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ijtimoiy-psixologik kompetentlikni namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi mezon sifatida ko'rib chiqar ekanmiz, tarbiyachilar faoliyatining o'ziga xos tomonlariga e'tibor qaratmasak bo'lmaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritadigan tarbiyachilarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi bolalar, ota-onalar, hamkasblar jamoasi bilan muloqotidagi o'ziga xoslikda namoyon bo'ladi. Tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida kommunikativ moslashuvchanlikka

yoʻnalganlikni kuzatilishi bolalarga tarbiyaviy taʼsir etishda optimal usullarni tanlay olish, kasbiy nizolardan qochish, shaxslararo munosabatlardagi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishda muhim oʻringa ega. Biroq, tarbiyachi faoliyatiga kommunikativ moslashuvchanlikning mutloq dominant shaklda taʼsir etishi ijtimoiy-psixologik kompetentlikni shakllanishiga teskari taʼsir etishi ham mumkin. Shu boisdan, tarbiyachilarning psixologik savodxonlik darajasini oshirib, kommunikativ koʻnikmalarni rivojlantirib borish va eng asosiysi oʻziga adekvat baho hamda pedagogik jamoda har bir mutaxassisning ijtimoiy mavqeini tan olinishini taʼminlashga erishish muhimdir.

Navbatdagi ahamiyatli darajada yuqoriligi aniqlangan koʻrsatkichimiz «oʻz mavqeini oshirishga yoʻnalganlik»dir. Mazkur holat tarbiyachilarimiz bugungi kunda shaxslararo muloqotni muvaffaqiyatli tashkil etishda koʻproq hollarda muloqot davomida oʻz mavqelarini oshirish uchun astoydil harakat qilishlaridan dalolat beradi. Qolaversa, shaxsning «Men»i tan olinish istagi ularni atrofdagilar bilan muloqotda «intelektual persepsiv taʼsir» usullaridan samarali foydalanishga undaydi. Agar «kommunikativ konformizm (moslashuvchanlik)ga yoʻnalganlik» omili boʻyicha ham yuqori natija qayd etilganligini hisobga oladigan boʻlsak, bunda tarbiyachilardagi oʻziga xos tarzda oʻz «Men»i tasdiqlash bilan bogʻliq liderlikka intilish mehribon, muloyim mutaxassis obrazini yaratish negizida namoyon boʻlayotganligini koʻrishimiz mumkin.

Kommunikativ omillar orasida tarbiyachilarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikni namoyon boʻlishiga taʼsir darajasi juda sust boʻlgan mezonlar ham mavjud. Shulardan biri «kommunikativ frustratsiyani yengishga yoʻnalganlik»dir. Aslida kommunikativ frustratsiya shaxslararo munosabatlardan koʻzlangan maqsadga erisha olmaslik hamda muloqotdagi psixologik toʻsiqlar natijasida kelib chiqadigan emosional holat. Tarbiyachilar faoliyatidagi muloqot jarayonining «tarbiyachi–bola–ota-ona» va «tarbiyachi–pedagogik jamoa–rahbar» munosabatlari triadasida kommunikativ strategiya va taktikani toʻgʻri tanlash bilan bogʻliq yuzaga keladigan oʻziga xos vaziyatli (bir vaziyatni har ikki tomon oʻz dunyoqarashi asosida tahlil qilishi va munosabat bildirishi) va motivatsion (bir holatni har ikki tomonning oʻz qadriyatlari tizimi nuqtai nazaridan tahlil qilishi) psixologik toʻsiqlar kasbiy kompetentligi past boʻlgan mutaxassislarda kommunikativ frustratsiya holatini keltirib chiqarishi tabiiy holdir. Shu boisdan, muloqotdagi frustratsion holatni yengish motivatsiyasi tarbiyachilar uchun bir muncha qiyin va murakkab jarayon hisoblanadi. Tarbiyachilarda kommunikativ frustratsiyani yengishga yoʻnalganlikni kuchaytirish uchun oʻz-oʻzini boshqarish, emosiyalarini nazorat qilishni oʻzida mujassamlashtirgan impunitiv reaksiya tipini shakllanishiga imkoniyat yaratilishi lozim. Shundagina tarbiyachilarda suhbatdoshiga nisbatan kommunikativ tolerantlik rivojlanadi.

Kommunikativ omillar orasida ahamiyatli darajada past koʻrsatkichga ega boʻlgan mezonlardan yana biri «kommunikativ passivlikni yengishga yoʻnalganlik»dir. Kommunikativ passivlikni yengish murakkab vaziyatlarda

muloqotni samarali ishlata olishi, kommunikativ vaziyatlarda o'zaro suhbatni davom ettirish yo'llarini adekvat tarzda qo'llay olishi xususiyatlarini faoliyatda namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Bizga ma'lumki, tarbiyachilarning kasbiy faoliyati doirasidagi muloqot o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Afsuski natijalarning o'rtachadan past darajada namoyon bo'layotganligi respondentlarimizning aksariyatida turli toifadagi insonlar bilan konstruktiv muloqot qilish ko'nikmasi yetishmasligidan dalolat beradi. Bu holat tarbiyachilardagi hissiy xavotirlanishning, qarama-qarshi reaksiyalarning kuchliligi bilan belgilanishi mumkin. Chunki, muloqot jarayonida suhbatdoshiga ta'sir etishdan ko'ra passiv holatni afzal biluvchi shaxslarda o'ziga beradigan bahosining pastli hisobiga shaxslararo munosabatlardagi xavotirlanish darajasi yuqoriroq bo'ladi. Natijada shaxs muloqotda mutloq «passiv tinglovchi»ga aylanadi.

Har bir omil bo'yicha olingan natijalarni qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, «kommunikativ konformizm (moslashuvchanlik)ga yo'nalganlik» yuqori bo'lgan shaxslarda «kommunikativ passivlikni yengishga yo'nalganlik»ning past darajada, «o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik» yuqori bo'lganlarda «kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlikni» sust darajada bo'lishi tabiiy holatdir. Biroq, bizning dissertatsion tadqiqotdan ko'zlangan maqsadimiz kommunikativ omillarning ijtimoiy-psixologik kompetentlikni namoyon bo'lishiga ta'sirini aniqlash orqali kasbiy nizolarni oldini olish ko'nikmasini rivojlantirish qonuniyatlarini izohlashdan iboratdir. Buning uchun esa mazkur kommunikativ konformizmning ratsional ko'rinishda, ya'ni shaxslararo munosabatlardagi hamkorlik pozitsiyasini saqlab qolish uchun konstruktiv-tanqidiy tafakkur asosiga qurilgan sintonik muloqotni namoyon bo'lishi talab etiladi. Tarbiyachilardagi konstruktiv-tanqidiy tafakkur asosiga qurilgan sintonik (hamkorlikdagi do'stona) muloqot esa kommunikativ passivlikni yengib, shaxslararo munosabatlarda faollikni namoyon qilishda anglanganlik, maqsadga yo'nalganlik, tashabbuskorlik, empatiya, emosional turg'unlik, frustratsion tolerantlikning dominantligini ta'minlab beradi. Olib borgan ilmiy izlanishimiz natijasida hamkorlikdagi do'stona muloqotni shakllanishi uchun kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlikni hissiy-bilish jihatiga ustuvorlik berishning o'ziga xos tomonlari aniqlandi. Xususan, kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlikni hissiy-bilish jhati insonni o'z-o'zini emosional qabul qilishi, reallikni «Men» bilan bog'lagan holda konstruktiv idrok qilish, tahlil qilish va taqqoslash, divergent tafakkur bilan belgilanadi. Shunday ekan, aynan mana shu jihatlarga ustuvorlik berish orqali muloqotda hamkorlik pozitsiyasini shakllanishiga erishish kasbiy nizolarni prognozlash hamda ularni oldini olish imkoniyatini beruvchi kommunikativ moslashuvchanlikning anglangan rolli identifikatsiya mexanizmini kuchaytirib, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni namoyon bo'lish tendensiyasini oshiradi.

Biz respondentlarimizning «tarbiyachi – ota-ona», «tarbiyachi – tarbiyachi» munosabatlaridagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun mualliflik ijtimoiy psixologik so'rovnomasini tuzdik va o'tkazib,

natijalarni tahlil qildik. Tarbiyachilarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikni namoyon bo'lishida muhim o'ringa ega bo'lgan sotsial-perseptiv kompetentlikni rivojlantirishda autopsixologik omilning o'z-o'zini anglash (refleksiv) komponenti ta'siridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik. Buning uchun esa avvalo, «tarbiyachi – ota-ona», «tarbiyachi – tarbiyachi» munosabatlari tizimida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining differensiallashuvini tahlil qilishni lozim topdik. Ota-onalar va tarbiyachilarning hamkasblarini ekspert baholashi natijasida olingan ko'rsatkichlar quyidagi 2-jadvalda aks ettirildi. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, tarbiyachilardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon bo'lish darajasi ota-onalar hamda hamkasblar tomonidan ekspert baholanganda ayrim differensial statistik ahamiyatli farqlar kuzatildi. Xususan, sotsial-perseptiv kompetentlik ($t=-1,72$; $p\leq 0,05$) «tarbiyachi – tarbiyachi» munosabatlari diadasida «tarbiyachi – ota-ona» munosabatlari tizimiga nisbatan muhimroq omil sifatida baholangan.

2-jadval

Tarbiyachilarda ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon bo'lish darajalarini differensial xususiyatlari

№	Shkalalar	Ota-onalar (M1)	Hamkasblar (M2)	t- statistik farq ko'rsatkichi
1.	Sotsial-perseptiv kompetentlik	14,35	15,73	-1,72*
2.	Kommunikativ kompetentlik	15,02	14,56	0,54
3.	Kognitiv kompetentlik	13,11	15,06	-1,78*
4.	Autopsixologik kompetentlik	13,74	14,24	-1,05

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

Ushbu natijalar hamkasblar orasida shaxslararo munosabatlarda o'zaro ta'sir, bir-birini tushunish istagining yuqoriligiga ehtiyoj kattaligini anglatadi. Tarbiyachilarning hamkasblari bilan shaxslararo munosabatlarida ijtimoiy mas'uliyat, konstruktiv muloqot o'rnatishda bir-birini tushunish, qo'llab-quvvatlash, affilyatsiya ehtiyojini qondirilishi orqali ijtimoiy «Men»ni refleksiv darajada namoyon bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Ota-onalar esa ekspert sifatida tarbiyachilarning «pedagog-bola-ota-ona» munosabatlari triadasidagi muomala madaniyati, so'zning motivatsion imkoniyatlaridan foydalana olish hamda konstruktiv muloqot qilish ko'nikmalarini pedagogik faoliyatning asosi deb hisoblaganliklari bois, sotsial-persepsiyadan ko'ra kommunikativ ta'sir usullaridan foydalanish qobiliyatini yetakchi omil sifatida ko'rsatganlar.

Ekspertlar guruhidan olingan ko'rsatkichlar orasida ahamiyatli natijalar kognitiv kompetentlik ($t=-1,78$; $p\leq 0,05$) omili bo'yicha ham aniqlangan. Natijalarga

e'tibor qaratadigan bo'lsak, ota-onalar tarbiyachilarning kognitiv kompetentligini pastroq, hamkasblar esa aksincha yuqoriroq darajada baholaganlar. Bu esa ota-onalar tarbiyachilar o'zlarining kasbiy funksional vazifalarini mukammal bilishlari, professional nizolarni bartaraf etish yoki faoliyatdagi motivatsion to'siqlarni yengib o'ta olish ko'nikmalarini yetarlicha darajada baholamaganliklaridan, hamkasblar esa ekspert sifatida tarbiyachilarning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar auditoriyasi bilan ishlashi, didaktik ma'lumotlarni bolalarning tafakkur darajasida qayta tahlil qilib, yetkazib bera olishlari, tafakkuridagi egiluvchanlik hamda kreativlikni kasbiy muhim sifat deb hisoblaganliklaridan dalolat beradi. Tarbiyachilardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikni namoyon bo'lish va rivojlanganlik darajasini ekspert baholash natijasida olingan ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, ayrim ma'lumotlar psixologik izohni talab etadi. Xususan, tarbiyachilarda autopsixologik hamda kommunikativ kompetentlikning yuqori darajada namoyon bo'lishi ularning o'z ustida ishlashi, o'zini anglashini konstruktiv muloqot o'rnatishdagi ahamiyatini kuchaytirsa, sotsial-perseptiv hamda kognitiv kompetentlik konstruktiv muloqotning anglangan hissiy-baholovchi xususiyatini kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun ratsional qo'llash imkoniyatini yaratishi mumkin. Mazkur yondashuvimizni asoslashda kommunikativ va sotsial kompetentlikning ikki psixosotsial ko'rsatkichlarini ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillari bilan bog'liqlik jihatlarini tahlil qildik. Natijalar 3-jadvalda aks ettirildi.

3-jadval

Tarbiyachilarda ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixosotsial mezonlar (n=576)

№	Mezonlar	Ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillari			
		Sotsial-perseptiv kompetentlik	Kommunikativ kompetentlik	Kognitiv kompetentlik	Autopsixologik kompetentlik
1	Muvaffaqiyatga erishish motivi	0,309*	-0,058	-0,011	0,918**
2	Muloqotdagi refleksiya	0,593**	-0,074	-0,006	-0,135
3	Ego kompetentlik	-0,009	-0,018	-0,054	0,323*

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, sotsial-perseptiv kompetentlikni rivojlanishi muvaffaqiyatga erishish motivi ($r=0,309$; $r \leq 0,05$), muloqotdagi refleksiya ($r=0,593$; $r \leq 0,01$), autopsixologik kompetentlik esa muvaffaqiyatga erishish motivi ($r=0,918$; $r \leq 0,01$), ego kompetentlik ($r=0,323$; $r \leq 0,05$) bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlangan. Tarbiyachilarda sotsial-perseptiv kompetentlikning rivojlanishi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivi hamda muloqotdagi refleksiya bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikka egaligi shaxslararo munosabatlar tizimida konstruktiv muloqot o'rnatish ko'nikmasini shakllanishiga olib kelishini anglatadi.

Navbatdagi bosqichda tarbiyachilardagi emosional barqarorlikning xavotirlanish darajasini pasayishiga teskari proporsional bog'liqligi natijasida kommunikativ va sotsial kompetentlik omillarining ijtimoiy-psixologik kompetentlikni shakllanishiga ta'sirini aniqladik.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida «tarbiyachi – ota-ona», «tarbiyachi – tarbiyachi» munosabatlaridagi refleksiya kabi ta'sir mexanizmi konstruktiv muloqot o'rnatishga olib kelib, uning hissiy-baholovchi xususiyatini muvaffaqiyatga erishish motivi bilan uyg'un holda kuchaytirish orqali sotsial-perseptiv kompetentlikni rivojlantirish mumkinligi kuzatilgan.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilaridagi emosional barqarorlikning xavotirlanish darajasini pasayishiga teskari proporsional bog'liqligi tufayli ularda ijtimoiy vaziyatga yo'nalganlik, muloqotda noverbal ta'sirlardan maqsadli foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ijtimoiy-psixologik kompetentlikni shakllantirish mumkinligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ганжиев Ф.Ф., Қодирова М.Д. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari ijtimoiy-psixologik moslashuvining oziga xos xususiyatlari. //Педагогик маҳорат. Илмий журнал. – Бухоро. 2020. №2. – Б. 109-111. (19.00.00. №7).
2. Ганжиев Ф.Ф., Тўлаев Ҳ.О. Researching the scope of the professional competence within activities. //International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor ICV = 6. 630 Philadelphia, USA. 2019. –Б. 388-391.
3. Ганжиев Ф.Ф., Қосимова С.Б. Heads Of Competence In Psychologically School Education. International journal of scientific & Technology research volume 9, issue. 2020. -Б. 2787-2789.
4. F.F. Ganjiev. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. Journal for psychologists, 59-64.

5. Ф.Ф. Ганжиев. Особенности психологической защиты человека в экстремальной ситуации. Лазаревские чтения Лики традиционной культуры в, 2018. С. 117-118.

6. Sh.Sh.Abirqulova. O'smirlarga xos agressivlik va uning ko'rinishlari// <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/> –Б. 150-158.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]

Ganjiyev Feruz Furqatovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

feruzganjiyev@gmail.com

ORCID: 0000-0002-6574-5412



YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI



Payziyeva Masturaxon Negmatullayevna

Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada oilaviy munosabatlar, oila psixologiyasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga oid muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarni mukammal bajarishdagi jihatlari o'rganilgan va shuningdek, oilada umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishning dolzarb masalalari, farzand tarbiyasiga doir tartib, odob – axloq qoidalarini sinovdan o'tkazuvchi va amalda tadbiq qiluvchi ota-onaning faoliyati tahlil etilgan.

MAQSAD: Darhaqiqat, asrlar davomida o'z e'tirofini topgan va diniy-axloqiy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy munosabatlarda halol yashash, mehnat qilish, farzand tarbiyasi ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbaidir. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishi asosi oiladan boshlanadi. Oila–nikoh munosabatlarini, urug' ichi munosabatlari va urug'lararo munosabatlarni tartibga solish

MATERIALLAR VA METODLAR: Sharq va g'arb oilalari xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilganimizda ovro'pa oilalariga xos xususiyat–nikohsiz erkin yashashning keng tarqalishi, ajralishlarning ko'payishi, tug'ilishning kamayishi bilan izohlanadi. Zamonaviy oilalarga xos ikkinchi xususiyat ularning nuklearligidir (Nuklear – lotincha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi "yadro" demakdir. Er-xotin va bolalardan iborat). Hozirda G'arb tsiivilizatsiyasi ta'sirida oilaning bu xili ko'payib bormoqda. Bunday oilalarda qaynona va kelin yoki kelinlar alohida yashaganliklari uchun ular orasidagi nizoli munosabatlarning oldi olinadi, turmush tarzida ular bir-birlari bilan qadrliroq, mehr-shafqatliroq madaniy munosabatda bo'lishadi. Bu masalaning ijobiy tomoni bo'lib, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishiga olib keladi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Oilaning maishiy-xo'jalik faoliyatini ko'ngildagidek o'tishi er-xotinlarning munosabatlarini, shuningdek, uning barqarorligini ta'minlovchi markaziy omillar sirasiga kiradi. Ammo oiladagi maishiy-xo'jalik faoliyatini boshqarishda kim yetakchilik qilishi kerak? degan savol ko'ndalang turadi. Oilaning maishiy-xo'jalik faoliyatini ko'ngildagidek o'tishi er-xotinlarning munosabatlarini, shuningdek, uning barqarorligini ta'minlovchi markaziy omillar sirasiga kiradi.

Kalit so'zlar: Oila. Jamiyat. Oilaviy munosabatlar. Oiladagi maishiy-xo'jalikni yuritish. Oilaviy munosabatlarda er-xotinning bir-birlariga munosabati.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматриваются аспекты семейных отношений, семейной психологии в условиях безупречного выполнения приоритетных задач важной государственной политики общества в сфере воспитания личности, а также актуальные вопросы формирования общечеловеческого мировоззрения в семье, анализируется проверка и практическая реализация порядка, манеры и этики воспитания ребенка деятельностью родителя.

ЦЕЛЬ: Действительно, честная жизнь, труд и воспитание детей в семейных отношениях, признанные веками и поднявшиеся на уровень религиозно-нравственных ценностей, являются источником развития общественной жизни.

В восточном воспитании основа формирования универсального мировоззрения человека начинается с семьи. Регулирование семейно-брачных отношений, внутрисемейных и межродовых отношений.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Когда мы проводим сравнительный анализ характеристик восточных и западных семей, то особенность европейских семей объясняется широким распространением свободного проживания без брака, ростом разводов, снижением рождаемости. Вторая характеристика современных семей — их нуклеарность (нуклеар происходит от латинского слова, означающего «ядро». Состоит из мужа и детей). В настоящее время под влиянием западной цивилизации этот тип семьи увеличивается. В таких семьях, поскольку свекровь и невестка или невестка живут раздельно, конфликты между ними предотвращаются, а в образе жизни они имеют более ценные и сострадательные культурные отношения друг с другом. Это является положительной стороной вопроса и приводит к формированию общекультурного мировоззрения человека в семейных отношениях.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В заключение на семью возложена огромная и необходимая социальная миссия. Понятно, что воспитание ребенка — сложнейшая социальная задача. Личный и положительный пример отца и матери — залог взросления праведных и праведных детей. Налаженное ведение хозяйственной деятельности семьи является одним из центральных факторов, обеспечивающих отношения супругов, а также их стабильность. Но кто должен взять на себя руководство хозяйственными делами в семье? вопрос поперечный. Налаженное ведение хозяйственной деятельности семьи является одним из центральных факторов, обеспечивающих отношения супругов, а также их стабильность.

Ключевые слова: Семья. Общество. Семейные отношения. Управление хозяйством в семье. Отношения супругов друг к другу в семейных отношениях.

PSYCHOLOGICAL BASIS OF PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE

Annotation.

INTRODUCTION: This article examines aspects of family relationships, family psychology in conditions of impeccable implementation of the priority tasks of important state policy of society in the field of personal education, as well as topical issues of the formation of a universal worldview in the family, analyzes the verification and practical implementation of the order, manners and ethics of raising a child by activities parent.

AIM: Indeed, honest life, work and raising children in family relationships, recognized for centuries and raised to the level of religious and moral values, are the source of the development of social life. In Eastern education, the basis for the formation of a person's universal worldview begins with the family. Regulation of family and marital relations, intra-clan and inter-clan relations.

MATERIALS AND METHODS: When we conduct a comparative analysis of the characteristics of Eastern and Western families, the peculiarity of European families is explained by the widespread prevalence of free living without marriage, an increase in divorces, and a decrease in the birth rate. The second characteristic of modern families is their nuclear nature (nuclear comes from the Latin word meaning “core.” Consists of a husband and children). Currently, under the influence of Western civilization, this type of family is increasing. In such families, since the mother-in-law and daughter-in-law or daughter-in-law live separately, conflicts between them are prevented and they have a more valuable and compassionate cultural relationship with each other in their lifestyle. This is the positive side of the issue and leads to the formation of a person’s general cultural worldview in family relationships.

CONCLUSION: In conclusion, the family has an enormous and necessary social mission. It is clear that raising a child is a complex social task. The personal and positive example of a father and mother is the key to the growth of righteous and righteous children. Well-established management of family economic activities is one of the central factors ensuring the relationship of spouses, as well as their stability. But who should take charge of the household affairs of the family? The question is cross-cutting. Well-established management of family economic activities is one of the central factors ensuring the relationship of spouses, as well as their stability.

Key words: Family. Society. Family relationships. Family management. The relationship of spouses to each other in family relationships.

Oila ijtimoiy hayotning abadiylikini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydigan, kelajak nasl qanday bo’lib yetishishiga o’z ta’sirini ko’rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o’taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 yil 20 sentyabrdagi yalpi yig’ilishida 1994 yildan boshlab 15 mayni “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlashga kelishilganligini o’zi ham bu masalani xalqaro miqiyosida qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat berib turibdi. Barcha davrlarda ham davlat va jamiyat g’amxo’rliги oilalarning mustahkamligi va tinchligiga asos bo’lgan. SHu bois mamlakatimizda 1998 yil “Oila yili”, 2012 yil “Mustahkam oila yili”, 2016 yil “Sog’lom bola va ona yili” deb e’lon qilinganligi hamda Respublikamizda oila institutini mustahkamlash kontseptsiyasi qabul qilinishi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018 yildagi PQ-3808-son qarori bilan uning ustuvor vazifalari va amalga oshirish bo’yicha chora-tadbirlar tadiqlanishi, shuningdek, 2019 yildan boshlab har yili 15 mayda mamlakatimizda Xalqaro oila kuni nishonlanishi davlatimizdagi oilaviy muhit va uni mustahkamlash uchun qilinayotgan amaldagi sa’y-harakatlarning yaqqol na’munasidir.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustaxkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur".

Oila, oilaviy tarbiya haqidagi tarixiy manbalarni quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

SHu jihatdan, millatimiz va xalqimizning 3000 yil avvalgi ko'hna madaniyati va boy ma'naviyatidan saboq beruvchi, ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal ulug'langan «Avesto» yozma yodgorligining ilg'or g'oyalari haqida alohida fikr yuritishga to'g'ri keladi. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi».2

Zardo'shtiylik dini ta'limoti bayon qilingan mazkur asarda dunyoni falsafiy idrok qilish, ma'naviy-ruhiy poklanish, inson ma'naviy-axloqiy olamiga chuqur kirib borish, inson burchi, go'zallik va ezgulikni anglash singari masalalar bosh mavzu darajasiga ko'tariladi. Bir qasidada Zardo'sht shunday savol beradi: «Kim oyning ham chiqib, ham so'nishini yaratgan? Kim yerni va tushib ketmasin deb bulutlarni ushlab turadi? Kim suv va daraxtlarni yaratgan? Kim shamol tezligini bulutlar bilan qovushtirgan? Qaysi musavvir nur va zulmatni, tush va bedorlikni yaratgan? Kim ertalab, tushki payt va kechaga itoat etuvchining ruhini boshqaradi? Kim otaning yuragiga o'g'il ko'rish orzusini solgan?

Buning hammasini Axura Mazda bunyod etgan. Uni o'z ruhidan, odamni jonli, ongli, o'zini o'zi anglaguvchi qilib yaratgan»

Turkiy xalqlarga xos urf-odatlarga ko'ra, nikoh meroslari qat'iy qonun-qoidalar asosida tashkil etilgan, marosim davomida oila, qarindosh-urug', oqsoqollar, kekcha chol-kampirlar maslahati va yo'l-yo'riqlariga rioya etilgan. Zardo'shtiylik tartib-qoidalariga ko'ra, o'z hayotini uylanmay yoki turmushga chiqmasdan o'tkazish qoralangan.

Faylasuf olimlarimiz masalaning mohiyatini ochib berishda shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati haqidagi umumaksiologik qonuniyatga suyanagan holda, shaxs ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat degan nazariy kontseptsiyani o'rta tashlaganlar. Xuddi shu kontseptsiyadan esa oilada farzand tarbiyasi ijtimoiy xarakterga ega degan boshqa bir nazariy xulosa kelib chiqishi tabiiydir. Madaniyatshunoslar oilaviy munosabatlar madaniyatining yosh avlod tarbiyasiga ta'sirini tahlil qilib kelmoqdalar.

SHuni alohida ko'rsatib o'tish kerakki, Markaziy Osiyo mutafakkirlari va ma'rifatparvarlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf xos Xojib, Kaykovus, Devoni, Alisher Navoiy, Bobur, Munis Xorazmiy, Bedil, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Qori Niyoziy, Cho'lpon, Fitrat va boshqalarning asarlarida oila va oilaviy munosabatlar haqida qimmatli fikrlar mavjud. Ularning ko'plarida mazkur masalaga oid qarashlar muayyan tartibga tushirilgan va ta'limot darajasiga ko'tarilgan. Xususan, Abu Ali ibn Sinoning "Axloq", "Oila xo'jaligi", Alisher Navoiy "Hayrat-ul abror" va "Mahbub-ul

qulub" asarlarida oilaga alohida e'tibor bilan qarab, uni inson kamolga erishuvida asosiy makon deb bilganlar.

XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatining asoschilaridan biri Fitratning "Oila" asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi." deb yozadi.

Oiladagi o'zaro munosabatlar madaniyati malakasi tasavvuf falsafasida ham alohida o'rin tutadi. Bu falsafaning yirik vakillari bo'lgan Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ota va onalar o'zaro munosabatlarining farzandlar kamolotidagi roli, farzandlarning ota-onalarga bo'lgan munosabati mavzui alohida ta'kidlab o'tilganligini ko'ramiz.

SHuningdek, ulug' ulamolar bo'lmish Al-Buxoriy, At-Termiziylarning hadis to'plamlarida, asarlarida ham mazkur mavzuga katta e'tibor berilgan. Qur'ondan keyingi diniy manba – hadislarda Payg'ambarimiz Muxammad (s.a.v.) aytdilar: "Alloh taoloning rozi bo'lishi ota-onaning rozi bo'lishiga va Allohning g'azabi ham ota-onaning g'azabiga bog'liqdir" (Imom Buxoriy rivoyati). Haqiqatdan ham ota-onaga ozor bermaslik, ularning dilini vayron qilmaslik, muloyimlik bilan suhbatda bo'lish, ko'nglini ko'tarish aytganlarini vaqtida bajarish, farzandning ota-ona oldidagi burchidir.

Mustaqillik davrida oila-nikoh munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi masalalarini F.Otaxo'jaev, o'zbek oilalari ma'naviyatining tarixiy asoslari, ma'naviy ruhiyati, an'analari, farzandlar tarbiyasi muammolarini istiqlool mafkurasi nuqtai nazaridan O.Safarov, M. Mahmudovlar tahlil etsalar, oilaning jamiyatda tutgan o'rni, oilaviy tarbiya, oila a'zolarining oiladagi o'rni, oilada milliy va umuminsoniy tarbiya masalalarining pedagogik nuqtai nazardan O.Musurmanova, oilaning mohiyati, ota-onalarning bola tarbiyasidagi mas'uliyati, farzandlik burchiga oid ba'zi milliy diniy an'alarimizni E.Yusupov, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga oid masalalarni M. Xalmatovalar tahlil qilganlar.

Oilada har tomonlama sog'lom muhitni qaror toptirishda quyidagi ijtimoiy pedagogik-psixologik, ma'naviy-madaniy mezonlarga amal qilishni tavsiya sifatida maqsadga muvofiq deb yondashishimiz mumkin:

- Yoshlarni sportga, jumladan, oilaviy sportga ijobiy munosabatini shakllantirishga erishish;
- Farzandlarda hayotiy faoliyatni oqilona tashkil etish va reproduktiv madaniyatni shakllantirishga erishish;
- Oilada sog'lom turmush tarzini asosiy omil sifatida xalqimizning o'ziga xos an'analari va qadriyatlarini o'rganish va keng targ'ib etish;
- Ota-onalarning farzand tarbiyasi yuzasidan mas'uliyatini, salohiyatini, savodxonligini, ota-onaning pedagogik-psixologik layoqatini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya birligini ta'minlash;

- Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish;

- Oilaviy munosabatlarda farzandlarning umumadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish.

"Turmush musht", "Oiladagi bir gap ko'p, bir gap kam" degan shakldagi fikrlarni ko'plab uchratamiz. Oilaviy munosabatlarda er-xotinning yoki kelin-kuyovlarning to'yga qadar bir-birlariga muvofiq kelishi ("yulduzi yulduziga" mos kelishi tarzda badiiy tus berishi), o'zaro sevgi-muhabbat va yoqtirish asosida turmush qurish ancha ijobiy holat sifatida qaraladi. Navbatdagi "Er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqliklarini aniqlovchi shkala nikohdagi sheriklarning maslaklari, qiziqishlari, manfaatlari, qadriyatlar yo'nalishi, vaqtni o'tkazishlari bilan bog'liq bir qator ustanovkalarni mujassamlashtirgan.

Oilada er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik, nizolar oqibatida esa yuqoridagi tarzda ish tutib bo'lmaydi. Er-xotinning shaxs sifatida bir-birlarini qabul qilishlari xalq orasida qo'llaniladigan "er-xotinning urishi doka ro'molni qurishi" naqli hojat qoldirmaydi. SHunday ekan, natijalarga murojaat etib ko'raylik, erlar $6,26 \pm 0,61$ va ayollar $8,63 \pm 0,85$ ball ($r < 0,05$ ga teng bo'ldi) bilan qanoatlanganlar. Olingan miqdoriy ko'rsatkichlar, erlarni turmush o'rtog'iga muvofiq kelishi to'g'risida o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori ekanligidan dalolat bermoqda. Bu esa erkaklar uchun ayollarning manfaatlari, qiziqishlari, qadriyatlar orientasiyasiga ular tomonidan belgilanishga ishtiyoq yuqoriligini aytish mumkin. Milliy madaniy muhitimizda ham xotin doimo erni tushunishi, uning fikrlariga qarshilik bildirmasligi, norozilik qilmasligi va so'zsiz bo'ysunishi lozim degan pozisiyada turish yetakchilik qiladi.

Diniy-falsafiy nuqtai nazarda ham er-xotinga nisbatan bir pog'ona yuqori bo'lishi lozim deyilsa-da, ammo bu talqin erkakning tabiiy imkoniyatlarini, (jismonan baquvvat, xo'jalik ishlarini boshqarishga moyil) inobatga olib aytilgan. Erkaklarning natijasi nisbatan avtonomiyaga, ya'ni turmush o'rtoqlarining ularni xohish-irodasi, qiziqishlariga muvofiqlashishlaridan dalolat beradi.

Xotinlarning natijalari esa erlarinikiga nisbatan anchagina yuqori. Bu esa ayollarning (qizlarni) o'zlariga turmush o'rtoq tanlashda oqilona yondashishga moyil ekanligini anglatadi. Ayollar o'zbek etnosidagi xotinning eriga tobe bo'lishi, uning manfaatlarga muvofiq xulq-atvori va qiziqishlarini moslashtirish kerak degan an'anaviy tamoyilga amal qilsalar-da, lekin bunday holat kuchli hissiy zo'riqish, frustrasiyaga moyillik, noroziliklar bildirib turish, ajralish xohishining paydo bo'lishiga olib keladi.

Ayollarning natijalari erlariga nisbatan ancha yuqori ekanligi ularni umumiy qiziqishga ega ekanligi, ehtiyojlar, qadriyatlar yo'nalishi, vaqtni o'tkazish usullariga ega bo'lishi lozim deb hisoblaydilar. Metodikaning ushbu shkalasidagi xususiyatlarga ayollar ancha ijobiy qarar ekanlar. Ammo ayollar turmush o'rtoqlari (erlar) ko'pincha yuqoridagi xususiyatlarning hammasiga ham ahamiyat bermasligini bildiradilar degan nuqtai nazarni ilgari sursak bo'ladi. CHunki zamonaviy oiladagi inqirozlarni aynan er-xotin o'rtasidagi shaxslilik identifikasiyasining mujassamlashtirmaganlik

oqibati deb qarash mumkin. Bu esa oilalarda quyidagi holatlarni e'tibordan chetda qolayotganligini ifodalaydi:

- Er bilan xotinlar o'rtasidagi shaxslilik muvofiqlashuvi doimo ham oila qurish jarayonida inobatga olinmayapti;

- Erlarda turmush o'rtoqlari bilan umumiy manfaat va qiziqishlar hosil qilishga intilish yetarli emas;

- Qizlarning (ayollarning) er bilan identifikasiyalashuvlari ideal rejada bo'lib, reallikka oshmasligi ko'p kuzatiladi.

- Erlarni xotinlari bilan bo'sh vaqtni birga qiziqarli, maroqli o'tkazish to'g'risidagi faoliyatlari shakllanmagan.

Aytish joizki, shaxslilik identifikasiyasi oiladagi shaxslararo munosabatlarning me'yorida bo'lishini ta'minlashda boshqa omillarni ham inobatga olishga chorlaydi. Maishiy-xo'jalik yuritish. "Bo'sh qop tik turmaydi", "Avval iqtisod, keyin siyosat" shakldagi naqlarni tez-tez takrorlaymiz. Metodikaning xususiyatiga ko'ra, shkala bo'yicha yuqori natijalar er-xotinlarning bir-biriga nisbatan maishiy-xo'jalik yuritishga nisbatan talab yuqori ekanligini bildiradi.

Ushbu shkaladagi natijalarga ko'ra, erlar $6,35 \pm 0,54$, xotinlar $7,12 \pm 0,83$ ballni (r-farqlar ishonchliligi kuzatiladi) namoyon qildilar. Milliy an'analarimiz hamda islom dini tamoyillariga ko'ra, nikoh o'qitilayotgan vaqtda yigit kishiga (kuyov bolaga) ijtimoiy buyurtma sifatida xotinni yolg'iz qoldirmaslik, asosiy xo'jalik ta'minotini ta'minlash talablarini qo'yadilar. Ammo zamonaviy oilalarda er-xotinlarning maishiy-xo'jalik yuritishdagi rollarini o'zgarayotganligi ham muayyan nizoli vaziyatlarga olib kelmoqda.

Er-xotinlarni maishiy-xo'jalik yuritishga tayyorliklari an'anaviy hodisadir.

Chunki, o'ylanayotgan har qanday yigit:

- xo'jalikdagi jihozlarni tuzata olish;
- duradgorlik, elektr, qurilish yumushlarini uddalash;
- ba'zi bir taomlarni tayyorlay bilish;
- uy hayvonlarini parvarishlash;
- o'simliklarga ishlov berish va boshqa yumushlarni bajarish malakalariga ega bo'lishi joiz.

Uzatilayotgan qiz esa:

- uyni saranjom-sarishtalash;
- pishiriqlar va mazali taomlar tayyorlay olish;
- oshxona idishlarini toza-ozoda saqlash;
- mehmon kutishni uddalash va shu singari ishlarni mohirona bajarish talab etiladi.

Sanab o'tilgan jihatlar nikohdagi sheriklarning maishiy-xo'jalik faoliyatini psixomotorik tomonidan amalga oshirishni ifodalaydi. Bu xususiyatlarga qo'shimcha ravishda er-xotinlarga shaxslilik sifatleri ham kamol topganligi shart hisoblanadi: xushmuomalalik, sabr-toqatlik, estetik did, sezgirlik, talabchanlik, samimiylik, hamjihatlik, saranjomlik, bag'rikenglik, va mehmonnavozlik.

Natijalarimiz er-xotinlarning javoblariga ko'ra, maishiy-xo'jalik yuritish faoliyatida hali nisbatan nomutanosiblik hukmronlik qilayotganligini ko'rsatadi. Natijada er bilan xotinlarning xo'jalik faoliyatidagi rollari o'zgarishiga olib keladi.

SHu sababli, o'zbek etnosidagi "avlodlar estafetasi" tamoyiliga o'g'il-qizlarning oiladagi maishiy-xo'jalik faoliyatini yuritish ustanovkalari ta'siri ostida shakllantirish ma'quldir.

Ota-ona ta'limchilik funksiyasi. Bu shkala er-xotinlarning ota-onalik majburiyatlariga munosabati, farzandlar shakllanishdagi shaxsiy pozitsiyalari, ota-onalik funksiyalariga taalluq tasavvurlarini ifodalaydi.

Bu shkala bo'yicha er-xotinlar nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni, ya'ni $7,14 \pm 0,82$ ball. (erlar) va $7,85 \pm 0,96$ ball (xotinlar) (1 ilovaga qaralsin) bilan qanoatlanganliklari guvohlik bermoqda. Ota-onalik va Ta'limchilik funksiyasiga ularning ijobiy tasavvurga egaligi o'zbek xalqi-ning azaldan "bolajon"ligi natijasidir.

Natijalar er-xotinlarning ota-onalik, Ta'limchilik ustanovkalari bo'yicha tasavvurlari ijobiy bo'lsa-da, lekin real muhitda bu majburiyatlar "begonalashayotganga o'xshab qolmoqda".

Er-xotinlarning ushbu doiradagi tasavvurlari dastlabki uchala shkala bilan navbatdagi uchta shkalani birlashtiruvchi bo'lib hisoblanadi. SHu bois, shkala er-xotinlarning ota-onalik rollari oilaning bir butun jips tizim sifatida o'z atrofida birlashtiruvchi qadriyat ekanligini unutmaslik kerak. Oilaning tanazzuli va undagi shaxslararo munosabatlar ham mazkur rollarning buzilishi zahirida yotadi.

Ijtimoiy faollik. Mazkur shkala er-xotinlarning tashqi ijtimoiy faolligini, ya'ni kasbiy va jamiyat hayotidagi oilaviy munosabatlar barqarorligini belgilovchi ustanovkalarni aks ettiradi. Erkak kishi oilani moddiy ta'minlash uchun qandaydir ishning boshini tutgan bo'lishi kerak.

Er-xotinning oiladan tashqari qiziqishlari shaxslararo ta'sirlashuv jarayonining asosiy qadriyati hisoblanadi. Natijalarda esa quyidagicha manzara kuzatiladi, ya'ni erlar $6,43 \pm 0,56$ ball, ayollar $7,08 \pm 0,58$ ball to'pladi. Bu esa ayollarda turmush o'rtoqlarining kasb-kori, mavqei, ularning qiziqishlari muayyan ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. Erkaklarga ayollarini qanday faoliyat mazmuniga ega bo'lishi (so'zsiz o'zgarishlarga olib keladi) unchalik ahamiyat kasb etmas ekan. Insoniyatning tarixiy-madaniy tajribasida ham er oilani moddiy jihatdan ta'minlashning asosiy kuchi hisoblanadi.

Emotional-psixoterapevtik. Bu shkala er-xotinlarning oiladagi emotional-psixoterapevtik funksiyalari ahamiyatini belgilovchi hisoblanadi. SHkala-mazmuniga ko'ra, ikki xil jihatli ma'noga ega. Birinchidan, er-xotinlarning oiladagi emotional liderlikni, psixologik muhitni, axloqiy va hissiy qo'llab-quvvatlash hamda "psixoterapevtik muhitni" shakllantirish masalasini aks ettirsa, ikkinchidan, er-xotinlarning oila "psixoterapevti" rolini bajarishga intilishini belgilaydi. Natijalarning umumiy mazmuni er-xotinlarning o'zaro axloqiy va hissiy jihatdan oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashi, uni ardoqlashi, unda psixologik xotirjamlik va barqarorlikni muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Bizning tadqiqotimizda "emotional-psixoterapevtik" shkalasi bo'yicha tekshiriluvchilar quyidagi ko'rinishdagi ma'lumotlarni namoyon qildilar. Erkaklar $5,36 \pm 0,23$ ball, ayollar $6,10 \pm 0,55$ ball ($r < 0,05$ ga teng bo'ldi). Natijalarimiz bir tomondan ajoyib ma'lumotlar berishga, ikkinchidan, ancha taajjubli holatga olib kelmoqda. Chunki erkaklarda natijaning o'rtacha miqdorini namoyon qilganligi, oiladagi liderlik funksiyasini ayollarga berib qo'ymayotganmikanlar degan mulohazaga imkon yaratmoqda. "Ijtimoiy-faollik" shkalasidagi natijalar ham buni tasdiqlamoqda..

Ayollarning natijalari o'rtachadan ancha yuqori $6,10 \pm$ ball. Bu ayolning oiladagi liderlikni, hissiy-psixologik muhitni stabillashtiruvchi unda psixoterapevtik rol bajarayotganligidan dalolat bermoqda. Oila a'zolarining ma'naviy va hissiy qo'llab-quvvatlashda ayolning o'rni yuqori ekanligini tasdiqlasakda, ammo jiddiy hayotiy masalalarda va nizoli vaziyatlarda ayolning hissiy xulosalarga kelishini e'tibordan chetda qoldirmaslik ma'qul. Mabodo, ota va onaning farzandlariga nisbatan mehr-muhabbatlari ham oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitning belgilovchi omillaridan biri deb qaraydigan bo'lsak, klassik psixologiya vakili E.Frommning quyidagi fikriga e'tibor qaratish joiz: "Otaning farzandlariga muhabbati majburiyat doirasidan, onaning bolalariga sevgisi esa tabiiydir". E.Fromm fikrining o'ziga xos (jihati) tomoni bor. Agar ushbu mulohazani ayolning faoliyati bilan bog'laydigan bo'lsak, uning oilada "psixoterapevtik" funksiyani amalga oshirish uchun mas'ul shaxs sifatida sanash mumkin. Farzandlar kamoloti, oiladagi ozodalik-sarishtalik, erga e'tibor qaratish, a'zolar o'rtasida mehr-muhabbatni tarkib toptirishda ayolning rolini oshirish tabiiy holdir. Ammo oiladagi ayol bilan erkakning funksiyalarini keskin ravishda taqsimlab qo'yish maqsadga muvofiq bo'lmasa kerak. Funksiyalar tengligiga erishishga qaraganda vazifalar uyg'unligini ta'minlash ma'quldir (Psixoterapevtik muvofiqlik bo'yicha III-bobda batafsil to'xtalib o'tiladi). Tashqi jozibadorlik. Mazkur shkala er-xotinlarning tashqi qiyofalari va ularning kiyinishlarini zamon talablari darajasiga mosligi ahamiyatini belgilovchi ustanovka hisoblanadi. SHkaladan ko'rinib turgandek er-xotinlarning eng yoqimtoy juftlik bo'lishi tashqi jozibadorlikka egalik, bejirim va zamonaviy kiyinishga intilishi masalasi oilaviy munosabatlarning muhim shartidir. Oilaviy munosabatlarda er-xotinning bir-birlariga nisbatan yoqtirish va yoqtirmasliklarida didga mos kiyinish, go'zal qiyofaga va husnga egalik, o'zaro ta'blarini hisobga olgan holda kiyim tanlashlari, kiyimlarning orastaligini e'tiborga olishlari ham muhimdir. Erkak ham, ayol ham tabiatan tashqi jozibadorlik, go'zallikka da'vogar. Ammo bu da'vogarlikni kim qanchalik darajada amalga oshirishi shaxs kamolotiga bog'liq. "Tashqi" jozibadorlik shkalasiga ko'ra erlar ham, ayollar ham shaxsiy yoqimtoylik, zamonaviy va orasta kiyinishga intilishlaridan dalolat bermoqda. Deyarli, har ikki jins vakillari shkala bo'yicha ancha yuqori natijani namoyon qilishgan, chunonchi, erlar $8,20 \pm 0,68$ ball, ayollar esa $8,61 \pm 0,81$ ball to'plashgan. Natijalarning bunday yuqori darajada bo'lishi tekshiriluvchilarning tasavvur timsollari mahsuli hamdir. Tasavvur va xohish istaklarni ruyobga chiqarish esa ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit, madaniy muhit, shaxsning dunyoqarashi va his-tuyg'ulariga bog'liqdir. Ammo qanday bo'lishidan qat'i nazar er-xotinlar "tashqi

jozibadorlikka" da'vogar ekanlar. Agar ushbu holatni shaxsning o'zini o'zi hurmatlash modelini bog'laydigan bo'lsak, o'zini o'zi hurmatlashning

$$= \frac{\text{муваффакият}}{\text{даъвогарлик}}$$

(U.Djems) ko'rinish olishi ijtimoiy psixologiyada haqchilikka da'vogarlik deb baholangan. o'ylaymizki, er-xotinlar "tashqi jozibadorlikka" erishish uchun o'zlarini hurmatlashlari va unga erishishga intilishlari lozim. Buning uchun oilaning moddiy ta'minotini yaxshilash, shaxs sifatida identifikasiyalashgan, ijtimoiy faollikka egalik shart.

Biz metodika natijalarini uch bosqich bo'yicha tahlil qilishni mo'ljallagan edik. Shu sababli, ikkinchi bosqichdagi ko'rsatkichlar qo'yidagi 2-jadvalda keltirib o'tilgan.

2-jadval

	Jinsiy Intim	Shaxsiy identifikasiya	Xo'jalik maishiy	Ota-ona Ta'limchi	Ijtimoiy Faollik	Emotional psixoterapevtik	Tashqi jozibadorlik
Oqsh.e	4	8	7	5	5	5,5	6
Oqsh.a	3	6	6,5	8	8	6	7
Oqm	1	2	1,5	0,5	3	0,5	1

Er-xotinlarning oilaviy qadriyatlar shkalalari bo'yicha ko'rsatkichlar qo'yidagi hulosani keltirib chiqardi:

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, er-xotinlar juftligining oilaviy qadriyatlar bo'yicha muvofiqligi ma'lum darajada ekan. Er-xotinlarning oilaviy turmush faoliyatining muhim sohalari bo'yicha farqlari belgilangan me'yordan oshib ketgan (belgilangan me'yor-3 balldan oshmasligi kerak). Er-xotinlar oilaviy munosabatlarida ota-onaning Ta'limchi sifatida, ehtiyojlar, tasavvurlar, ularning turmush maqsadlari muhim o'rin tutar ekan.

Oilaviy munosabatlar attraktsiyasi. Oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab va serqirrali o'zaro munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, O'zbekistonlik olimlar (M.Davleshin, G.Shoumarov, E.G'oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inov, F.Akramova, G.Yadgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov va boshqalar) tomonidan o'rganilgan. Ularda ko'proq o'zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an'analar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan.

Gozmanning ta'kidlashicha, juftlik munosabatlarida attraktsiyaga turtki bo'luvchi omillarning eng muhimi – bu sherikning tashqi, jismoniy jihatdan yoqimtoyligi va uning ijtimoiy-demografik xususiyatlaridir. Ya'ni, bir ko'rishda yoqtirib qolish, uning xusniga rom bo'lish kabilar attraktsiyaning dastlabki bosqichi

bo'lib, bu aslida odamlar ongidagi bir bid'atga, ya'ni chiroyli odam aqlli va ahloqli bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlarga bog'liqdir. Ayniqsa, bunday tasavvur xotin-qizlarga nisbatan qo'llanilishi isbotlangan. Buni muallif grafik shaklida U – simon egrilik tarzida tasavvur etadi (4.1-rasm).


4.1–rasm. Yoqtirib qolishning tashqi yoqimtoylikka bog'liqligi



Yoqtirib qolishga turtki bo'luvchi ijtimoiy-demografik xususiyatlarga eng avvalo insonning jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy maqomi, ma'lumoti darajasi, kasb-kori, moddiy ta'minlanganligi, millati va diniy e'tiqodi, qaerda, kimlar bilan yashashi kabilar kiradi. Ko'pincha ayni shu belgilar yoki xususiyatlar bilan yaqin bo'lgan insonlar o'zaro bir-birlarini tezroq yoqib qoladilar, chunki o'xshash belgilar yoki ko'ngildagi sifatlarining sherikda, tanishda mavjudligi unga nisbatan ijobiy fikr-mulohazalarning shakllanishiga, stereotiplarning yaxshi ma'noda uyg'unlashishiga zamin yaratadi.

Bir ko'rishda yoqtirib qolish jarayonining jiddiyroq munosabatlarga a tushuntirish uchun olimlar "uch filtr nazariyasi"ni ilgari suradilar (4.2 – ras....).

4.2 – rasm. SHeriklik munosabatlarining dinamikasini ifodalovchi "uch filtr" nazariyasi



1-filtr bir insonning boshqa bir insonni bevosita o'ziga qaratishi bilan bog'liq jarayon bo'lib, bunda yangi tanishning tashqi jozibasi, bir qarashda ko'zga

tashlanadigan sifatlari (masalan, qiz bolaning sochi uzun, ko'zi moviy, yigitning bo'yi uzun, alp qomat kabi) asosiy rol o'ynaydi. Bunday munosabatlar ko'pchilikka xos, ya'ni aksariyat odamlar turli vaziyatlarda boshqa bir odamni yoqtirib qolaveradi. Agar bir-birini o'zaro yoki bir tomonlama yoqtirish mobaynida sherikning ijtimoiy-demografik xususiyatlari ham kutishlarga mos, ma'qul kelib qolsa, munosabatlar 2-filtrga o'tadi. Agar yangi tanishlarning ijtimoiy-psixologik, shaxsiy xususiyatlari va hayotiy maqsadlari ham bir-birlariga ma'qul kelsa, uyg'un munosabatlar 3-filtrga ham o'tadi. Har bir filtrdan o'tishda sheriklar bir-birlari uchun o'zlarining yangidan yangi qirralarini ochaveradilar. Uchinchi yo'nalish ikkinchiga yaqin, ya'ni, yangi tanishda o'zidagi mavjud sifatlarning qarama-qarshisini izlash, masalan, yigit kamgap bo'lsa, shaddot, sergap qizni yoqtirib qoladi. Bu kabi kemptiklarni sherigi orqali to'ldirishga intilish, ularga kelajakdagi munosabatlarda anchagina egiluvchan bo'lish va har biridagi yaxshi sifatlarni qadrlashni o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik-T:Fan va texnologiya 2008.152b.
2. Fayzieva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. - T.SHarq 2007.
3. Dobroslovich V.L. Lyubov ili vlyublennost'? Moskva. Akademiya 1999g.
4. Shoumarov G'.V. taxriri ostida. «Oila psixologiyasi», T.: «SHarq, 2009 - 272 b.
5. Oilani o'rganish psixodiagnostika metodikalari. /Tuzuvchilar: Sog'inov N.A. Xabibullaeva F.A. - Toshkent. - 1996. -38 b.II
6. Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti":– T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Payziyeva Mastura Negmatullayevna (katta o'qituvchi)

Manzil:, Andijon, Universitet ko'chasi 129-uy

payziyeva1979@gmail.com



XXI ASRDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA YUZ BERUVCHI HISSIY-EMOTSIONAL ZO'RRIQISHLARNI PSIXOLOGIK ASPEKTLARINI O'RGANISH VA KORREKSION USULLARI



Kozimova Nigora Abduqahorovna

Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada bugungi asrda yuz berayotgan jaddalashuv jarayonida shaxslarda yuzaga kelayotan emotSIONAL zo'riqishning aspektlarini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik korreksion usullari haqida

fikr yuritilib, shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va hissiy zo'riqlashlarning oldini olish usullari ochib berilgan.

MAQSAD: Hozirgi zamonaviy fan va amaliyotda moslashuv tushunchasi shaxslarni tayyorlash samaradorligini oshirish hamda malakali kadrlarni tayyorlash asosiy o'rinlarni egallaydi. Shaxslarning moslashuvi ta'limning bir qator fundamental masalalariga kiritilgan: raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, shaxsiy rivojlanish, kasbiylashtirish, shaxslarni ijtimoiylashuvini oshirish yuzasidan tadqiqot natijalari asosida tavsiya ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Shaxsni uning uchun yangi ishlab chiqarish muhitiga kiritish, unga ko'nikish, kasbiy rolni, ishlab chiqarish standartlarini, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Ushbu yo'nalishning tashkiliy psixologiya va boshqaruv nazariyasiga muvofiq yanada rivojlanishi mahalliy mualliflarni kasbiy moslashuv kontseptsiyasini ishlab chiqishga olib keldi va shu ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonida shaxsdagi hissiy – emotsional zo'riqlashlarni bartaraf etish usullari ishlab chiqildi.

XULOSA: O'rganilgan empirik natijalar asosida shaxslarning ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida emotsional – hissiy zo'riqlash jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik omillar (o'z tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida shaxslarining hissiy – emotsional zo'riqlashlarini oldini olish usullari va muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Kalit so'zlar: hissiy - emotsional zo'riqlash, shaxs, ijtimoiy-psixologik aspektlar, ijtimoiylashuv, kasbiy faoliyat, ko'nikma va malakalar, korreksiya, psixologik xususiyatlar, individuallik

МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ НАПРЯЖЕНИЙ, ВОЗНИКАЮЩИХ В МЕЖПЕРСОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЯХ В XXI ВЕКЕ, И МЕТОДЫ КОРРЕКЦИИ

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматриваются аспекты эмоционального стресса, возникающие у личности в период ускорения процесса нынешнего столетия, и рассматриваются конкретные методы его социально-психологической коррекции.

ЦЕЛЬ: В современной науке и практике концепция адаптации повышает эффективность обучения личности и подготовки квалифицированных кадров. Адаптация личности входит в ряд фундаментальных вопросов образования: подготовка конкурентоспособных специалистов, развитие личности, профессионализация, разработка рекомендаций на основе результатов исследований по повышению социализации личности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Оно рассматривается как процесс знакомства человека с новой производственной средой, привыкания к ней, овладения профессиональной ролью, нормами производства и социальных отношений. Дальнейшее развитие этого направления в соответствии с теорией организационной психологии и управления привело отечественных авторов к разработке концепции профессиональной адаптации, а в процессе адаптации к данной социальной среде были разработаны методы устранения эмоционального и эмоционального напряжения у личности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: На основании изученных эмпирических результатов замечено, что психологические факторы, влияющие на процесс эмоционально-эмоционального напряжения (в зависимости от собственного опыта), могут быть различными в процессе адаптации личности к социальной среде. На основе выявления этих факторов проводится определенный уровень психологического анализа способов предотвращения эмоционального напряжения личности и устранения проблем, и по результатам этого анализа выявляются очередные задачи оказания им психологической помощи. определенный.

Ключевые слова: эмоциональное напряжение, личность, социально-психологические аспекты, социализация, профессиональная деятельность, навыки и компетенции, коррекция, психологические особенности, индивидуальность.

METHODS OF STUDYING THE PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF EMOTIONAL AND EMOTIONAL TENSIONS OCCURRING IN INTERPERSONAL RELATIONS IN THE 21ST CENTURY AND CORRECTION METHODS

Annatation.

INTRODUCTION:

This article examines the aspects of emotional stress that occur in individuals during the acceleration process of today's century and discusses its specific socio-psychological correction methods.

AIM: In today's modern science and practice, the concept of adaptation increases the efficiency of training individuals and training qualified personnel. Adaptation of individuals is included in a number of fundamental issues of education: preparation of competitive specialists, personal development, professionalization, development of recommendations based on the results of research on increasing socialization of individuals.

MATERIALS AND METHODS: It is considered as a process of introducing a person to a new production environment, getting used to it, mastering a professional role, production standards, and social relations. The further development of this direction in accordance with the theory of organizational psychology and management led local authors to develop the concept of professional adaptation, and

in the process of adaptation to this social environment, methods were developed to eliminate emotional and emotional stress in the individual.

CONCLUSION: Based on the studied empirical results, it was observed that psychological factors influencing the process of emotional-emotional stress (depending on one's own experience) may be different in the process of adaptation of individuals to the social environment. Based on the identification of these factors, a certain level of psychological analysis is carried out on ways to prevent the emotional stress of individuals and to eliminate problems, and based on the results of this analysis, the next tasks of providing psychological services to them are determined.

Key words: emotional stress, personality, socio-psychological aspects, socialization, professional activity, skills and competencies, correction, psychological characteristics, individuality

Har bir inson vaqti-vaqti bilan stressni boshdan kechiradi. Hech bo'lmaganda stressli voqealarga duch kelmasdan butun hayotingizni bosib o'tishning iloji yo'q. Ishoning yoki ishonmang, bizning tanamiz aslida stress omillariga javob berish uchun yaratilgan. Bu nima uchun stressning ham jismoniy, ham ruhiy belgilari borligini tushuntiradi. Har xil turdagi stresslar odatda vaqtinchalik bo'lsa-da, ular kundalik hayotingizga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hissiy stress nima? Amerika Psixologik Assotatsiyasi (APA) ma'lumotlariga ko'ra, bu kimdir tashvish, qo'rquv, umidsizlik, xavf yoki qayg'u kabi his-tuyg'ularni boshdan kechirganda kuchli va salbiy stress reaksiyasini keltirib chiqaradigan stress turi. Agar stress terapiyasi bilan davolanmasa, hissiy stress nosog'lom bo'lishi mumkin, bu sizning dam olishingiz, sog'lom munosabatlarni saqlashingiz va kundalik vazifalarni bajarishingizni qiyinlashtiradi.

Hissiy stress belgilari

Ta'kidlanganidek, hissiy stressning ham ruhiy, ham jismoniy belgilari mavjud. Hissiy stress misollari quyidagilardan ba'zilari yoki barchasini o'z ichiga olishi mumkin.

O'zini haddan tashqari ko'targandek his qilish.

Agar siz doimo stress alomatlarini boshdan kechirayotgan bo'lsangiz, hayotingiz o'zini juda og'ir his qilishi mumkin. Hissiy stress sizni chalg'itishi yoki chekinishiga olib kelishi mumkin. Ishlar rejalashtirilganidek ketmasa, bu sizning haddan tashqari munosabatda bo'lishingizga olib kelishi mumkin. Bu sizning fikrlaringizni tartibga solish yoki muammolarga yechim topishni qiyinlashtirishi mumkin.

Diqqatni jamlashda qiyinchilik.

Stress chalg'itishi mumkin va diqqatni jamlashga xalaqit berishi ma'lum. Stressda bo'lganingizda, har safar e'tiboringizni biron bir vazifaga qaratishga harakat qilganingizda, fikringiz tashvishlaringizga aylanib ketishi mumkin. Odamlar nima deyayotganiga va atrofingizdagi voqealarga e'tibor berish qiyin bo'lishi mumkin.

Anksiyete va depressiya

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, depressiya ham, tashvish ham stress darajasi yuqori bo'lgan odamlarda keng tarqalgan. Hissiy stress sizni kuchli, bezovta qiluvchi va doimiy qo'rquv, qo'rquv va qayg'u tuyg'ulariga olib kelishi mumkin. Bu his-tuyg'ular sizning stressingizni kuchaytirib, simptomlarni yomonlashtirishi mumkin.

Kayfiyat o'zgarishi

Stress noqulay. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, stress ruhiy holatga bevosita ta'sir qiladi. Bu sizning kayfiyatingizni bir zumda o'zgartirishi mumkin. Bir lahzada siz o'zingizdan zavqlanishingiz mumkin, ikkinchisida esa haddan tashqari qayg'u, qo'rquv yoki boshqa his-tuyg'ularni boshdan kechirishingiz mumkin.

Bosh og'rig'i


Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, uzoq muddatli stressga duchor bo'lgan odamlar surunkali bosh og'rig'idan aziyat chekishadi. Ko'p hollarda stressor to'g'ridan-to'g'ri bosh og'rig'ini keltirib chiqaradi. Xuddi shu tadqiqot, shuningdek, hissiy stress migren va kuchlanish bosh og'rig'i xavfini oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Og'irlikni yo'qotish yoki kilogramm ortishi

Stress ovqatlanish odatlariga bevosita ta'sir qilishi mumkin. Ba'zi odamlar stress holatida yuqori kaloriyali, yog'li ovqatlarga murojaat qilishadi, boshqalari esa umuman ovqatlanmasligi mumkin. Vaqt o'tishi bilan, hissiy stress, ko'pincha qisqa vaqt ichida sezilarli darajada vazn yo'qotishi yoki ortishiga olib kelishi mumkin. Ko'plab tadqiqotlar stressni kilogramm ortishi bilan bog'laydi.

Hissiy stressning sabablari

1-rasm



Ba'zi stress omillari, masalan, tirbandlik yoki qo'shnining baland ovozda musiqa o'ynashi, faqat vaqtinchalik. Ammo hissiy stress odatda davom etayotgan vaziyat tufayli yuzaga keladi, masalan:

Zaharli, nosog'lom yoki haqoratli munosabatlar

Ish

Moliyaviy masalalar

Yechilmagan hissiy og'riq yoki travma

Ota-onalik

Yo'qotish va qayg'u

Ruhiy salomatlik holati

Tibbiy tashxis yoki sog'liq muammosi

Emotional stressni boshdan kechirayotgan odamlar o'zlarini stressli vaziyatga tushib qolgandek his qilishlari mumkin, bu esa nosog'lom kurashish mexanizmlariga olib kelishi mumkin.

Stressli muhitdan xalos bo'lish stress darajasini pasaytirishning bir usuli bo'lsa-da, biz buni har doim ham mumkin emasligini tushunamiz. Emotional stress bilan kurashishning eng yaxshi usuli bu vaziyatlarga munosabatingizni qanday o'zgartirishni o'rganishdir. Stress belgilari bilan kurashganmisiz? Samarali yechim hayotingizdagi hissiy stress misollarini aniqlash va sog'lom kurashish mexanizmlari va stressni boshqarish usullarini ishlab chiqish bo'lishi mumkin.

Ko'pincha stressli vaqtlar yaxshilanadi yoki butunlay o'tib ketadi. Siz munosabatlardan chiqib ketishingiz, ishdan ketishingiz, do'stingiz bilan tuzatishingiz yoki hayotingizda tinchlik topishingiz mumkin.

Agar u hal bo'lmasa ham, sog'lom kurashish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim, shunda siz hissiy farovonligingizni mustahkam ushlab turishdan oldin stressni engishingiz mumkin. Quyidagi 6 ta maslahat emotional stress bilan samarali kurashishning ekspertlar tomonidan tasdiqlangan usullaridir.

"Hissiy stress jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'sir qilishi mumkinligi sababli, kundalik hayotingizdagi hissiy stress belgilariga e'tibor berish juda muhim. Stress darajasi pastroq bo'lganda o'zingizga g'amxo'rlik qilish, vaqt o'tishi bilan hissiy stresslarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Agar hissiy stress sizni jiddiy tashvishga solayotgan bo'lsa yoki kundalik vazifalarni bajarishni qiyinlashtirsa, mutaxassislardan yordam so'rash vaqti keldi. Terapevt hissiy stress alomatlarini kamaytirish va sog'lom kurashish mexanizmlarini topish uchun siz bilan birga ishlashi mumkin. Terapiya, shuningdek, stressingiz manbasini aniqlashga va uning hayotingizga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

"Asboblarni qutingizda turli xil vositalarga ega bo'lish hissiy stressni boshqarish uchun kalit bo'lib, kerak bo'lganda turli strategiyalardan foydalanishingiz mumkin. Oddiy nafas olish mashqlari, ishonchli do'stingiz bilan suhbatlashish, sayr qilish, kundalik yozish, sevimli teleko'rsatuvni tomosha qilish yoki musiqa tinglash - bularning barchasi stressni boshqarishga qo'shilishi mumkin bo'lgan oson usullardir.

Shuni ham yodda tutish kerakki, litsenziyalangan ruhiy salomatlik bo'yicha mutaxassis bilan suhbatlashish juda foydali bo'lishi mumkin. Vaziyat og'ir bo'lganda, o'zingiz kurashishingiz shart emas."

2. Chalg'itadigan narsalarni toping

Agar biror narsa haqida stressni his qilsangiz, tashvishlaringizni to'g'rilashni boshlashingiz mumkin. Afsuski, bu qor to'pi ta'siriga ega bo'lib, tashvish va tashvishingizni yanada kuchaytiradi. Stress haqida o'ylashning o'rniga, chalg'itadigan narsalarni topishga harakat qiling. Mashq qilish, film tomosha qilish yoki do'stlar bilan vaqt o'tkazish - bu sizning e'tiboringizni stressdan olib tashlashga yordam beradigan va natijada alomatlarini engillashtiradigan ajoyib usullardir.

3. Dam olish uchun vaqt ajrating

Dam olish sog'lom ong, tana va ruh uchun zarurdir. Har kuni dam olishga vaqt ajratishga harakat qilishingiz kerak. O'zingizga g'amxo'rlik qilish davrida siz uxlab qolishingiz, yolg'iz qolishingiz, his-tuyg'ularingiz haqida jurnalga yozishingiz yoki hatto ko'pikli vanna olishingiz mumkin. Hatto har kuni dam olish uchun atigi 5 yoki 10 daqiqa vaqt ajratish ham hissiy holatingizga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

4. Stressni kamaytirishni mashq qiling

Stressni kamaytirish usullarini hayotingizga kiritishga harakat qiling, masalan, meditatsiya yoki yoga. Ushbu yengillik usullari siz his qilayotgan zaharli stressning bir qismini muvozanatlashi mumkin. Buni amalda qo'llashga vaqt topa olmayotganga o'xshaysizmi? Bu ruhiy salomatlik kuni uchun vaqt bo'lishi mumkin. Hayotingizda stressni butunlay yo'q qila olmasangiz ham, unga bo'lgan munosabatingizni o'zgartirishingiz mumkin. Sizning hissiy qayg'u va stressingiz sizga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymaslik uchun maqsadli qadamlar qo'yish yaxshi birinchi qadamdir.

5. Uyqu odatlaringizni yaxshilang

Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, siz etarlicha uxlamasangiz, tanangiz stressni boshqarishda muvaffaqiyat qozonishi qiyin bo'lishi mumkin. Har kecha kerakli dam olishingiz uchun uyqu odatlaringizni yaxshilashga harakat qiling. Kechki tartibni yarating va har kecha bir vaqtning o'zida yotishga harakat qiling.

6. Nosog'lom kurash mexanizmlarini aniqlang

Xulosa qilib aytganda odamlar stress alomatlarini kamaytirish uchun foydalanadigan ko'plab kurashish mexanizmlari zarar yetkazishi mumkin. Agar siz kun davomida sizni kofein, alkogol yoki nosog'lom oziq-ovqatlarga tayansangiz, bu moddalar aslida stressingizni yomonlashtirishi mumkin. Ushbu nosog'lom kurash mexanizmlarini aniqlaganingizdan so'ng, siz eski odatlaringizni yangi, sog'lomroqlari bilan almashtirishga harakat qilishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kozimova, N. A. (2023). Techniques and methods used in the process of psychological counseling. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 338-341.



2. Kozimova, N. A. (2023). PERSONALITY TYPES. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 372-377.
3. Kozimova, N. A. (2023). Psixologik konsultatsiya bosqichlari. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 90-95.
4. Kozimova, N. A., & Ulugova, S. M. (2022). Classification of a Group of Staff for Psychological Conseling and Referral to It. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 7, 175-177.
5. Kozimova, N. A. (2024). OTA-ONALIK PSIXOLOGIYASI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 119-125.
6. Kozimova, N. A. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL TENSION IN ADAPTATION TO STUDY ACTIVITY OF FIRST LEVEL STUDENTS. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 311-317.
7. Kozimova, N. A. (2024). Psychological aspects of emotional stress in adaptation to educational activities. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 136-140.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]

Kozimova Nigora Abduqahorovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi assisenti

Manzil: O'zbekiston 200100, Buxor shahri

nigorakozimova80@gmail.com

ORCID: 0000-0001-9437-9741



O'SMIRLARDA IJTIMOYIY TASAVVURLARNING SHAKLLANISHIDA KICHIK REFERANT GURUHLARNING O'RNI



Allakov Ilhom Okmurodovich
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada o'smir-yoshlarda shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarning tarkibiy tuzilishi va bugungi o'zgarish dinamikasi juda tez zamonaviy jamiyatda zamonaviy bilimlar yoshlarda shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarning perefonik qobiq qismi bo'lsa, referant kichik guruhlar, ya'ni oila va maktablarda qadryatlar va an'analarga asoslangan bilimlar va axborotlar bu tasavvurlarning o'zagi bo'lishi kerakligi xaqida fikr yuritiladi. Jamiyat kontekstining

xar o'zgarganida o'zgaradigan ijtimoiy tasavvurlarning perefonik qismi o'zgarib, o'zagi o'zgarmay qolishi kerak. Bu xar qanday zamonda oila va maktablarda beriladigan ta'lim va tarbiyaning qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

MAQSAD: Xar xil muhit, turli axborot vositalari resurslarini, ta'lim muassasidan olgan bilim va axborotlarini, oilada va maktabda olgan ko'nikmalarining konstruktiv muvozanati maqsadga erishishning eng samarali yo'li ekanligini ko'rsatish. Zamonaviy bilimlar va tendensiyalar ta'sirida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlar o'zagini an'anaviy qarashlar va milliy qadryatlarga asoslangan bilim va axborotlar tashkil qilishi kerak ekanligi va bunda oila va maktablarda berilayotgan bilim va axborotlarning ahamiyani aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: Fransuz psixologi Moskovici ijtimoiy tasavvurlarni tarkibiy tuzulishi va rivojlanish dinamikasi nuqtai nazaridan qarashni taklif qiladi. Ya'ni u nafaqat yaxlit tushuncha, balki tushuncha xosil bo'lish jarayoni, xodisa, fenomen ekanligini ta'kidlab, shu jixatdan nazar solishni taklif qiladi. Uning maktabi davomchisi J.K. Abrikom tasavvurlar tuzulmasi markaziy yadro va preferik tizimni o'z ichiga oladi, deydi. Bunda yadroning asosiy vazifasi tasavvurlarning shakllanishida unga ma'lum bir ma'no berish ekanligini ta'kidlaydi.

XULOSA: O'takazilgan kuzatuvlar va tadqiqotlar natijasida ma'lum ma'noda zamonaviy axborot vositalaridan, ta'lim muassasasidan va oilada olayotgan bilim va axborotlarining konstruktiv muvozanati kuzatildi. Ularda axloq normalari va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq tasavvurlari o'zagida oilada oladigan bilim va axborotlarining ahamiyati yuqori ekanligi kuzatildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tasavvurlar, o'smirlar, Serg Moskvici, axborot va bilimlar, ijtimoiy tasavvurlar strukturasi, ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi, oila va maktab

РОЛЬ МАЛЫХ РЕФЕРЕНТНЫХ ГРУПП В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ ИДЕЙ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье обсуждается структурная структура и динамика социального воображения, формируемого подростками в очень быстро развивающемся современном обществе. Если оно является частью перифонической оболочки социальных представлений, формируемых молодежью, то считается, что ядром этих представлений должны быть знания и информация, основанные на ценностях и традициях в референтных малых группах - семьях и школах. Перефоническая часть социального воображения, которая меняется всякий раз, когда меняется контекст общества, должна меняться, но ядро должно оставаться неизменным. Это показывает важность образования и воспитания в семье и школе в любое время.

ЦЕЛЬ: Показать, что конструктивный баланс различных сред, различных медиаресурсов, знаний и информации, полученных из образовательных учреждений, навыков, приобретенных в семье и в школе, является наиболее

эффективным способом достижения цели. Определить важность знаний и информации, основанных на традиционных взглядах и национальных ценностях, а также важность знаний и информации, предоставляемых в семье и школе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Французский психолог Московичи предлагает взглянуть на социальные восприятия с точки зрения их структурной структуры и динамики развития. То есть он подчеркивает, что это не только целостное понятие, но и процесс создания понятия, события, явления, и предлагает взглянуть на него с этой точки зрения. Преемник его школы Дж.К. Согласно Абрикому, в структуру воображения входят центральное ядро и периферийная система. Он подчеркивает, что основная задача ядра - придать ему определенное значение в формировании воображения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В результате проведенных наблюдений и исследований в определенном смысле был соблюден конструктивный баланс знаний и информации, полученных из современных СМИ, образовательного учреждения и семьи. Было замечено, что важность знаний и информации, которые они **получают** в семье, лежит в основе их представлений, связанных с моральными нормами и социальными отношениями.

Ключевые слова: социальное воображение, подростки, Серж Московичи, информация и знания, структура социального воображения, формирование социального воображения, семья и школа

THE ROLE OF SMALL REFERENT GROUPS IN THE FORMATION OF SOCIAL IDEAS IN ADOLESCENTS

Annotatsion.

INTRODUCTION: In this article, the structural structure and dynamics of social imaginations formed by adolescents are discussed in a very fast modern society. if it is a part of the periphonic shell of social imaginations formed by young people, it is thought that knowledge and information based on values and traditions in referent small groups - families and schools should be the core of these imaginations. The perephonic part of the social imagination, which changes whenever the context of the society changes, should change, but the core should remain unchanged. This shows the importance of education and upbringing in families and schools at any time.

AIM: To show that a constructive balance of different environments, different media resources, knowledge and information received from educational institutions, skills acquired in the family and at school is the most effective way to achieve the goal. To determine the importance of knowledge and information based on traditional views and national values, and the importance of knowledge and information provided in families and schools.

MATERIALS AND METHODS: The French psychologist Mosquivisi proposes to look at social perceptions from the point of view of their structural structure and developmental dynamics. That is, he emphasizes that it is not only a holistic concept,

but also a process of creation of a concept, an event, a phenomenon, and offers to look at it from this point of view. His school's successor, J.K. According to Abricom, the structure of imagination includes a central core and a peripheral system. He emphasizes that the main task of the nucleus is to give it a certain meaning in the formation of imagination.

CONCLUSION: As a result of the conducted observations and researches, in a certain sense, the constructive balance of knowledge and information received from modern media, educational institution and family was observed. It was observed that the importance of the knowledge and information they receive in the family is at the core of their imaginations related to moral norms and social relations.

Key words: social imagination, teenagers, Serg Moskvici, information and knowledge, structure of social imagination, formation of social imagination, family and school

Ijtimoiy tasavvurlar - odamlar tomonidan bayon etilgan va ijtimoiy o'zaro munosabatlarda, axborot almashinuvi vositalari ta'sirida shakllanadigan g'oyalar, fikrlar, tasvirlar, qadryatlar, bilim va ko'nikmalar. Bu bitta markaziy ma'no atrofida tashkil etilgan va sub'ektning ijtimoiy muhitdagi ramziy faoliyatidan ajralmagan xolda aniq tushunchalar yordamida ob'ekt xususiyatlarini o'zicha tushunib munosabat bildirishidir

Ijtimoiy tasavvurlar narsa, xodisa, g'oya, taklif, munosabatlarni kundaliylik darajasiga, oddiy xayotiy sog'lom fikrlar yo'sinida vujudga keltiriladi. Ular bir vaqtning o'zida o'zaro munosabatlar natijasi bo'lishiga qaramay, turli ijtimoiy munosabatlar va guruhlarining o'ziga xosligining asosi bo'lib xisoblanadi.

Inson ijtimoiy dunyoni yolg'iz o'zi anglay olmaydi, u doim o'z bilimini boshqa bilimlar yoki boshqalar bilimlari bilan solishtiradi, ya'ni munosabatlar jarayoni tabiiy xolatda bilish protsessining ichida sodir bo'ladi. Ijtimoiylashuvning boshlang'ich etaplarida olam xaqidagi tasavvurlar boshqa bir inson qarashlaridan shakllanadi. Ya'ni atrof-muhitga nisbatan bo'lgan munosabat, insonlarning jamiyatdagi, oiladagi roli va ularga nisbatan munosabatlarning shakli, narsa va xodisalarning mohiyati bolada ota-onasi va kattalar tomonidan shakllantiradi. Ba'zi muayyan submadaniyat va diniy oilalarda xatto olam va odam xaqidagi tushunchalar bolarga yoshligidan quydirilib ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida kuchli ta'sir ko'rsatiladi. Vaqt o'tishi bilan bolada atrof muxitni idrok etish natijasida sub'ektiv qarashlar shakllana boshlaydi. Bunda bola atrof muhitni xuddi rasmga olgandek tasviran idrok etmaydi, balki kuzatuvlari, qabul qilgan ma'lumotlari natijasida xuddi konstruktor yig'gandek bo'lakchalardan to'liq tasavvur tashkil qiladi.

Tashqaridan bolaga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, uning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari, o'zida shakllangan ijtimoiy tasavvur nuqtai nazardan turlicha sub'ektiv tarzda idrok etiladi.

Shuning uchun xam bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar bola tomonidan turlicha xarakatlarni va munosabatlarni keltirib chiqaradi

Ijtimoiy tasavvurlar qanday shakllanishi bizni ijtimoiy bilimlar xosil bo'lishininng ikkita muhum va o'zaro bog'liq tomoniga: shakllanishning genezis va konteksti muammosiga ro'baru qiladi. 1925-2014-yillarda yashyaab o'tgan Frantsuz psixologi Serj Moskovicing 1960 yillarda frantsuz jamiyati turli qatlamlarinig psixoanaliziga bag'ishlangan ijtimoiy tasavvurlar to'g'risidagi chop etilgan dissertatsiyasida ilk bor "ijtimoiy tasavvurlar" termini qo'llagan. Moskovici ijtimoiy tasavvurlar tushunchasi asosida Dyurkgeymning "jamoaviy tasavvurlar" g'oyasi yotadi. Dyurgeym individual tasavvurlarni jamoaviy tasavvurlardan ajratishn taklif qiladi, lekin ularning integrativ xususiyatlarini ochib bermaydi.

Individual tasavvurlarning bilimlarga aloqasi yo'q, ular fiziologik xodisa, ular psixologik analiz predmeti xisoblanadi. Faqatgina individual tasavvurlar bilan cheklanadigan insonlarning xayvonlardan farqi yo'q, - deydi Moskovici.

O'z-o'zidan jamoaviy tasavvurlar – obrazlar, tasvirlar, e'tiqod, tushuncha kabi ijtimoiy tuzulmalardan tashkil topgan. Moskovici Dyurgeym jamoaviy tasavvurlar bilan individual tasavvurlarni o'rganish ob'ekti sifatida aniqladi-yu, lekin ularinig o'zaro munosabatlari muammosini xal qilmadi,- deydi. Dyurgeym uchun tasavvurlar - ular bo'linmas yaxlit va shu bilan birga tushunturuvchi tamoyilga ega. Moskovisi esa ijtimoiy tasavvurlarni tarkibiy tuzulishi va rivojlanish dinamikasi nuqtai nazaridan qarashni taklif qiladi. Ya'ni u nafaqat yaxlit tushuncha, balki tushuncha xosil bo'lish jarayoni, xodisa, fenomen ekanligini ta'kidlab, shu jixatdan nazar solishni taklif qiladi.

Jamoaviy tasavvurlar butun bir jamiyat, jamoalar tomonidan shakllantiriladi va ushlab turiladi, ular vaqt jixatdan barqaror va shu bilan birga fan, din, afsona, rivoyat, makon va zamon xususiyatlari kabi intellektual formalarni o'zida mujassamlashtiradi. Moskovici uchun esa ijtimoiy tasavvurlar tushunish, anglash va muloqot-munosabatning o'ziga xos usuli bo'lib, u real borliq va sog'lom fikrni namoyon etadi. Ular an'anaviy jamiyatga xos turg'un jamoaviy tasavvurlardan farqli o'laroq, zamonaviy jamiyatda shakllanadigan va faoliyat ko'rsatadigan, doimiy rivojlanish dinamikasiga ega shakldir.

Dyurgeym tomonidan ta'riflangan jamoaviy tasavvurlar va Moskovici tomonidan taklif qilingan ijtimoiy tasavvurlar o'rtasidagi farqni Dyurgeym va Moskovici o'rgangan va tushunishga xarakat qilgan ijtimoiy kontekslarni sinchkovlik bilan baholash orqali izohlash mumkin. Jamoaviylikdan ijtimoiy tasavvurlarga o'tish aniq ijtimoiy konteksning o'zgarishi bilan bog'liq. Moskovicing o'zi bu borada Yevropa Ijtimoiy Psixologiyasi jurnalida Gustav Jaxodega bergan javobida kuchli bayonot beradi. Bunda u, nima uchun bu kontseptsiya jamoaviy tasavvurlardan ijtimoiy tasavvurlarga o'tganlini tushuntiradi:

"Shunday ekan, bugungi kunga kelib jamoaviy tasavvurlar, avvaldan ta'riflanganidek umumiy kategoriya emas, balki ko'pchilik ichida turli xil xususiyatlarga ega o'ziga xos tasavvurlarning o'zgacha turidir. Nima bo'lganda xam, tasavvurlarni bir xil yoki butun bir jamiyat tomonidan tasdiqlangan bo'lishi noto'g'ri bo'ladi. "Jamo" so'zidan

voz kechib, biz tasavvurlarning ko'pligini va ularining guruh ichidagi xilma-xilligini ta'kidlamoqchi edik. ... Aslida, biz o'ylagan narsa har doim amalda bo'ladigan, o'zaro munosabatlar va xatti-xarakatlar konteksida bo'lgan tasavvurlar edi." – deydi.

Yana Moskovici deydi: "Men faqat "ijtimoiy" so'zini ishlatishni ma'qul ko'raman, chunki bugungi kunda madaniyat, urf-odat va qadryatlar dindand, e'tiqoddan ajratilgan xolda jamiyatda mavjud bo'lishi, jamiyatga singdirilishi mumkin. Bunday jamiyatlarda an'anaviy jamiyatlardan farqli o'laroq insonlar o'rsatidagi o'zaro muloqot va munosabatlar tarixan muhim va ahamiyatlidir"

Moskovici ikkala iqtibosida xam, xar qanday dunyoqarash va amallar tanqid va muxokamaga uchraydigan, o'zgaras qotib qolgan, ko'r-ko'rona singdirilgan qarashlarga joy qolmagan, rivojlanish, o'zgarish dinamikasi juda tez zamonaviy jamiyatga shama qiladi. Moskovici zamoaniy jamiyatda muxum tus olayotgan plyuralizm muammosi va shiddat bilan o'sayotgan kommunikativ jarayonlarga asolanib "Ijtimoiy"ni tanlab, "jamoaviy"ni rad etadi. Uning ta'kidlashicha bugungi kunda umumjamiyat tasavvurlari xaqida o'ylash chekinish, ortga qadam bo'ladi. Jamiyatlar o'zgardi va Dyurgeym ta'riflagan an'anaviy tasavvurlarga ega jamiyatlar juda kam qoldi, deydi Moskovici.

Xar qanday shakllangan ijtimoiy tasavvurlar muloqot, munosabatlarda, cheksiz dialoglarda tug'iladi. Bunda ular kommunikativ jarayonini osonlashtirish funktsiyasini bajaradi. Bundan tashqari ijtimoiy tasavvurlar shaxs xulq-atvorini belgilash, ijtimoiy munosabatlarni tushuntirish, ijtimoiy shaxsiyatni shakllantirish va ushlab turish vazifalarini xam amalga oshiradi.

Ba'zi tasavvurlar bir-biriga qarama-qarshi elementlarni o'z ichiga oladi, lekin bu bizga kundalik hayotda qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki biz bir dunyoda emas, balki ko'plab turli dunyolarda yashaymiz. Bu dunyolarning xar biri o'zining o'ziga xos muloxaza va fiklarigi ega. Bunday qarama-qarshi elementlarning mavjudligi aql-bilim xaqidagi tasavvurlarni o'rganish jarayonlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Misol uchun, ota-onalar farzandining bilim-aql saloxiyatini qandaydir bir in'om deb aytishlari va xuddi shu ota-onalarning o'zi boshqa tomondan bu narsani qunt bilan ta'lim, o'rganish va mehnat natijasi degan tasavvurga xam ega bo'lishlari mumkin. Bu ikki qarama-qarshi tushuncha birgalikda mavjud bo'lishi mumkin, chunki ularning xar biri ma'lum bir alohida vaziyatda, ya'ni oilada yoki ta'lim muassasida kabi, qo'llaniladi. Ijtimoiy tasavvurlar nazariyasida to'g'ri yoki noto'g'ri tasavvurlar bo'lmaydi, deyiladi. Inson va uning atrof muhit o'rtasidagi munosabatlariga mos keladigan turli xil bilimlarning uyushgan xolatda shakllanish dinamikasi kognetiv polifaziya xolatini belgilaydi.

Ba'zi tasavvurlar bizga do'stlarimiz yoki oilamiz a'zolari bilan munosabatlarni o'rnatishda kerak bo'lsa, boshqalari siyosiy, iqtisodiy va shunga o'xshash boshqa vaziyatlarda, ya'ni yaqinlariimz bilan o'zaro munosabatlarimizdan tashqarida muhim xisoblanadi. Bundan kelib chiqadi-ki, ma'lum bir kontekst yoki o'ziga xoslikda ishlatiladigan bir xil madaniyatda uyushgan xolda mavjud bo'ladigan turli xil fikrlash usullari mavjud.

Serj Moskovici maktabi davomchilaridan J.K. Abrikom tasavvurlar tuzulmasi markaziy Yadro va pereferik tizimni o'z ichiga oladi, deydi. Bunda yadro jamoaviy xotira, guruh o'tmishi, qadryatlari, normalari bilan bog'liq tasavvurning barqaror va mustahkam qismi. Bu yerda ildizi madaniyatga borib taqaladigan elementlarni ko'rish mumkin. Yadroning asosiy vazifasi tasavvurlarning shakllanishida unga ma'lum bir ma'no berish. Yadro guruh ichidagi fikrlar umumiylikni, birdamligini ta'minlaydi, qaysidir ma'noda me'yor, mezon, norma vazifasini o'tab, qaror va munosabatlarda xal qiluvchi muhim rol o'ynaydi. Tasavvurlar yadrosining barqarorligi bu – ob'ektivlashtirish jarayonining natijasidir. Pereferik tizim tasavvurlar yadrosining tasavvur shakllantirilayotgan konkret bir xodisaga nisbatan ahamiyatini aniqlab ular o'rtasida bog'lovchi vazifasini bajaradi. Pereferik tizim doimiy o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Aynan shunday xususiyati tufayli u tasavvurlarga o'zgaruvchan ijtimoiy kontekstga moslashashga imkon beradi.

Bu qaysidir ma'noda tasavvurlar yadrosining "ximoya tizimi", shu bilan birga butun bir tasavvurning ximoyasi deyishimiz mumkin. Chunki yadro o'zgarsa, tasavvur butunlay o'zgaradi. Tasavvurning o'zgarishi u yoki bu darajada madaniyat bilan sodir bo'ladigan o'zgarishlarda xam seziladi. Aytish mumkin-ki, jamiyatlar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni shu jamiyat va madaniyat ishtirokchilarining borliqga, realikka munosabatlarini shakllantiruvchi ulardagi ishonch, axloqiy me'yorlari, e'tiqodlariga aynan tasavvurlarning qanchalik kirib borganligida ko'rish mumkin. Tasavvurlar hayot bo'ladi, toki guruh a'zolar unga ishonar ekan. Ular o'zgarishi bilan borliqni, kundalik hayotdagi voqea-xodisalarni tushuntirish, amal va xatti-xarakatlarni oqlash xususiyatini yo'qotadi.

Bugungi zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar yoshlarimizni tarbiyalash, ularni namunali sog'lom komil insonlar bo'lib yetishishida qanchalik qiyinchiliklar tug'dirayotgani xech kimga sir emas. Xali o'zini ximoya qila omaydigan, yaxshi va yomonni ajrata olmaydigan farzandlarimiz axborot vositalari domiga tushib qolayotganidan va ulardan ximoyalash kundan kunga murakkablashayotganidan xavotirga tushyapmiz. Insonning kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishi uning aynan yoshlik, o'smirlik davrida olgan bilimlaridan shakllangan ijtimoiy tasavvurlari bilan bog'liq. Jamiyatga, shu jamiyatdagi insonlarga, sodir bo'layotgan xodisalarga, kirib kelayotgan yangiliklarga munosabatlar, xulq-atvor asosida ijtimoiy tasavvurlar yotadi. Taraqqiyot mevasi bo'lmish zamonaviy axborot vositalari sezilarli darajada bu tasavvurlarning shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatyapti. Zamonaviy axborot ilmi asoschilaridan bo'lgan mashhur Marshal Maklyuen o'tgan asrning 70-yillarida "Har bir yangi axborot vositasi o'sha zamon kishilarini imtixonidan, sinovdan o'tqazadi" deganida hali kompyuter, internet, mobil telefonlar odamzot xayoliga kelmagan edi. Bu axborot vositalari bugun xayotimizning ajralmas bir bo'lagiga aylanib boryotgan ekan, ulardan voz kechish, ularni taqiqlash choralari xaqida emas, balki yoshlarimizda ulardan to'g'ri, foydali, samarali foydalanish madaniyatini, ko'nikmalarini shakllantirishimiz kerakdir. Avvallari farzandlarimiz ma'lumot olishda faqatgina maktabda o'qib o'rgangan, oilada eshitib-ko'rgan bilimlari yoki oddiy tv ko'rsatuvlar,


radio eshtirishlar, badiiy asarlar bilan cheklanishgan. Albatta bularni nazorat qilish o'tonalarga va pedagoglarga kuchli qiyinchilik tug'dirmagan. O'smirlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga oila davrasida yoki maktabda oladigan bilimlaridan javob topishgan va shu bilimlar asosida ularda shakllangan ijtimoiy tasavvurlar o'z-o'zidan oila, millat qadryatlari, an'analari ruhida bo'lgan. Bu bir oila, maktab, xudud miqyosidagi o'zga xos jamoaviy tasavvurlar edi. Lekin bugungi kunda zamonaviy axborot vositalari orqali jamiyatimizga kirib kelayotgan yangiliklar, bilimlar yoshlarimizning olam va odamlar, jamiyat va ijtimoiy munosabatlar haqidagi tasavvurlariga bir muncha ta'sir ko'rsatdi. Bugun kichik jamoalar bir oila, maktab, xudud vakillarida ijtimoiy xayot bilan bog'liq turli tasavvurlarni kuzatish mumkin. Xar kim o'zi olgan bilim va axborotlarga asoslanib shaxsiy tasavvurlarini shakllantira boshladi. Bunda dunyo bilimlari, xabarlar, yangiliklari, turli g'oya va mafkuralar bilan tanishish imkonini bergan zamonaviy axborot vositalarining roli katta. Frantsuz olimi Moskovici aynan mana shunday jamiyat konteksi o'zgarishida jamoaviylikdan ijtimoiyga o'tish davrida kichik jamoalar ya'ni oila va maktabda beriladigan bilim va ko'nikmalarining roli katta deydi. O'smirlarda zamonaviy bilimlar ularda shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarning perefonik qobiq qismi bo'lsa, oila va maktablarda qadryatlar va an'analarga asoslangan bilimlar bu tasavvurlarning o'zagi bo'lishi kerak deydi. O'zgarish dinamikasi juda tez zamonaviy jamiyatda xar qanday dunyoqarash va amallar tanqid va muxokamaga uchraydi, ko'r-ko'rona singdirilgan va o'zgarmas qarashlarga joy qolmaydi. Jamiyat konteksining xar o'zgarganida o'zgaradigan ijtimoiy tasavvurlarning perefonik qismi o'zgarib, o'zagi o'zgarmay qolishi kerak. Bu xar qanday zamonda oila va maktablarda beriladigan ta'lim va tarbiyaning qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Xar xil muhit, turli axborot vositalari resurslarini, ta'lim muassasidan olgan bilim va yangiliklarini, oilada va maktabda olgan ko'nikmalarining konstruktiv muvozanati maqsadga erishishning eng samarali yo'li bo'lishi mumkin. O'smirlarining manba tafakkuri bunda turli zaxiradagi ma'lumot va axborotlarni solishtirish, chuqurlashtirish, aniqlashtirish orqali samarali va ishonchli xulosaga kelish va qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu uchun o'smirlarda zamonaviy axborot vositalaridan qanday samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ularining barcha foydali imkoniyatlari haqida tushunchalar berish, bu bilan bog'liq amaliy va ko'rgazmali mashg'ulotlar o'tqazish muhim xisoblanadi.

Shahrimiz umumta'lim maktablarining birida o'tkazgan so'rovnomamizda o'smirlarda bugungi kunda zamonaviy jamiyat kontekstida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlar struktura jihatdan asosida kichik referent guruhlarda, oila va maktabda olgan axborot va bilimlarning o'rnini aniqlashga yo'naltirilgan edi. So'rovnomada shaxs shakllanishidagi axloq, ijtimoiy munosabatlar, sog'lik-salomatlik va jamiyatdagi yangilik va o'zgarishlardan boxabarlik darajasini ko'rsatuvchi turli xil 20 savol berilgan. Respondentlardan nafaqat savollarga javob berish, balki bu bilim va axborot ularda qayerdan shakllanganligini ko'rsatish belgilangan. Bunda ishtirokchi uchta manba, maktab, oila va axborot vositalari (internet, televideniya)dan bittasini

ko'rsatishi kerak. So'rovnoma natijalari o'smirlarda shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarning asosida oila va maktablarda olinadigan an'anaviy tarbiya bilan bog'liq bilim va axborotlar tashkil etishi farazini ko'rsatib berishi ko'zda tutilgandi. So'rovnomada ishtirok etgan 70 ta respondent bergan javoblar quyidagicha natijalarni berdi: savollar yuqorida aytganimizdek 3 asosiy kategoriyaga: axloq va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq, shaxs shakllanishi bilan bog'liq va jamiyatdagi yangilik va o'zgarishlardan boxabarlik bilan bog'liq savollar.

1-jadval



Natijalardan ko'rinib turibiki o'smirlarimizda shakllanayotgan ijtimoiy tasavvurlarda zamonaviy axborot vositalari jamiyatimizga kirib kelayotgan yahgiliklar, zamonaviy bilimlar va qarashlar orqali ta'sir darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, axloqiy va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarda oila va ta'lim muassasalari o'rnini hali xam juda kattaligini ko'rsatdi. Ya'ni misol qilib aytganda yoshlarimizda feministik qarashlar, teng xuquqlilik xaqida axborotlar, bilimlar mavjud va shu bilan birga ularda oilada ayol kishining o'rnini, kattalarga hurmat degan tushunchalar ularning ijtimoiy tasavvurlarining shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лабунька А.Ю. "Формирование социальных представлений посредством телевизионной рекламы." // Современные наукоемкие технологии. 2013.

2. Йовчелович, Сандра "Социальные представления, общественная

жизнь и социальное строительство" . : <http://eprints.lse.ac.uk/2649>

3. Grushina, A. A. "Ommaviy axborot vositalarining o'smir shaxsiga ta'siri"
Yosh olim. - 2018 yil - 3-son (189). — S. 162-164.

**MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]**

Allakov Ilhom Okmurodovich
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
Manzil:, O'zbekiston 200100, A.G'ijduvoni ko'chasi
allakoff.85@gmail.com



KOMIL INSON – IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK JARAYONNING O'ZIGA XOS NATIJASI SIFATIDA



Najmidinova Guzal Axlitdinovna
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada komil inson ijtimoiy psixologik jarayonning natijasi ekani va uning yuzaga kelishida o'ziga xos jihatlar nazariy hamda amaliy tadqiqi ochib berilgan bo'lib, talabalarda komil inson fazilatlarini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, bunda psixologning kommunikativ, emosional va shaxsiy sifatlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; komil insonni tarbiyalash bevosita uzluksiz ta'lim tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

MAQSAD: Ta'lim jarayonida komil insonni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlarini baholash orqali psixolog faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishini aniqlash va ularning o'zaro mutanosib rivojlanishi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Islom psixologiyasida tasavvuf, komil inson g'oyasi alohida o'rin tutadi. Komil inson ijtimoiy-psixologik jarayonning natijasi ekanligi va u bilan bog'liq muammolarni o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi tasavvuf tarixi, tasavvufda ayollarning o'rni va eng asosiysi komil insonni tarbiyalashga aloqador bo'lgan ko'plab ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak, komil inson ijtimoiy-psixologik jarayonning natijasi ekanligini izohlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ishimiz mumkin.

Komil inson ijtimoiy-psixologik jarayon natijasi ekanini nafaqat ijtimoiy va islom psixologiyasi, balki ko'pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Ilmiy adabiyotlarda komil inson g'oyasi va u bilan bog'liq masalalar ko'p bora o'z ifodasini topgan bo'lib, komil insonni tarbiyalash samaradorligi uzluksiz ta'lim vositasidagi yangi soha sifatidagi ijtimoiy-psixologik mezonini baholash uchun mukammal darajadagi ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Komil inson ijtimoiy-psixologik jarayonning o'ziga xos natijasini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot mavzusiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili tasavvuf, tariqatlar, naqshbandiylik, xojagon, nafs, nafs tarbiyasi bosqichlari, komil inson mavzulari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Komil inson ijtimoiy-psixologik jarayonning o'ziga xos natijasi deganda shuni tushunishimiz to'g'ri bo'ladi: har qanday jamiyatda barkamol avlod, komil inson g'oyasi ulug'lanadi. Bu bevosita jamiyatning har sohasiga bog'liq ravishda shakllanadi. Xususan, ta'lim tizimining bu boradagi ahamiyati juda yuqori.

XULOSA: Komil inson avvalo jamiyatning, ya'ni ijtimoiy muhitning zarurati va shuningdek, u jamiyatning ruhiy-psixologik manzarasini ham ko'rsatib turadi. Bu bir – biriga zanjirdek bog'langan. Ya'ni, ta'lim tizimida tasavvuf ilmi g'oyalaridan foydalangan holda o'qitish jarayonini tashkil etilsa, komil insonni tarbiyalash shunchalik samarali bo'lishi mumkin. Va bundan jamiyatning ham ijtimoiy, ham psixologik muhiti yaxshilanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida Sharq va G'arb olimlarining tasavvuf, tariqatlar, komil inson haqidagi ilmiy asarlaridan foydalangan holda turli metodologik qo'llanmalar, yangi ishlanmalar, noan'anaviy dars shakllari tashkil qilinishida komil inson ijtimoiy-psixologik jarayonning o'ziga xos natijasi ekani isbotlanadi.

Kalit so'zlar: komil inson, tasavvuf, tariqat, naqshbandiylik, xojagon, nafs, nafs tarbiyasi bosqichlari.

ИДЕАЛЬНЫЙ ЧЕЛОВЕК КАК СОВЕРШЕННЫЙ РЕЗУЛЬТАТ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье раскрывается, что совершенная личность является результатом социально-психологического процесса и уникальные аспекты ее возникновения раскрываются в теоретических и практических исследованиях, выявляя социально-психологические факторы, развивающие качества совершенной личности у студентов, в которых коммуникативные, эмоциональные и личностные качества психолога проявляются в процессе роста и развития; Выявлено, что образование совершенного человека напрямую связано с системой непрерывного образования.

ЦЕЛЬ: Он заключается в определении проявления факторов социально-психологической компетентности в работе психолога путем оценки конкретных аспектов воспитания совершенной личности в образовательном процессе и разработки практических рекомендаций на основе их взаимного развития.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Суфизм и идея совершенного человека занимают особое место в исламской психологии. Анализируя научно-исследовательские работы, направленные на изучение того, что совершенный человек является результатом социально-психологического процесса и связанных с ним проблем, история суфизма, роль женщины в суфизме и, самое главное, многие социально-мы особое внимание уделял теоретической интерпретации психологических особенностей. На основе анализа ряда научной литературы мы видим, что существуют разные подходы исследователей к объяснению того, что совершенный человек является результатом социально-психологического процесса.

Мы видим, что совершенный человек является результатом социально-психологического процесса не только в социальной и исламской психологии, но и в практике многих психологических наук. В научной литературе идея идеальной личности и вопросы, связанные с ней, выражаются во многом, а оценка социально-психологического критерия эффективности воспитания совершенной личности как нового направления в средствах непрерывного образования – это еще не признанный совершенный уровень научно-методического развития.

Наши наблюдения и анализ фундаментальной литературы, связанной с темой изучения уникального результата социально-психологического процесса совершенного человека, затрагивают темы суфизма, сект, накшбанди, ходжагона, нафса, стадий самосовершенствования. совершенствование и темы совершенного человека требуют особого внимания к взглядам ученых.

Когда мы говорим, что совершенный человек – это уникальный результат социально-психологического процесса, правильно понимать, что: в любом обществе прославляется идеал совершенного поколения и совершенного

человека. Оно формируется в непосредственной зависимости от каждой сферы общества. В частности, значение системы образования в этом плане очень велико.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Совершенный человек прежде всего показывает потребность общества, то есть социальной среды, а также показывает духовно-психологический ландшафт общества. Они связаны друг с другом, как цепь. То есть, если учебный процесс организован с использованием идей суфизма в системе образования, то воспитание совершенного человека может быть настолько эффективным. А это улучшит как социальную, так и психологическую среду общества.

В системе непрерывного образования с использованием научных трудов суфизма, сект и совершенного человека восточных и западных ученых организуются различные методические пособия, новые разработки, нетрадиционные формы уроков, а также о том, что совершенный человек – это уникальная личность. результат социально-психологического процесса.

Ключевые слова: совершенный человек, суфизм, Тарикат, Накшбандия, Ходжагон, Нафс, этапы нафсового образования.

THE PERFECT PERSON AS THE PERFECT RESULT OF THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROCESS

Annotation.

INTRODUCTION: This article reveals that the perfect person is the result of a social-psychological process and the unique aspects of its emergence are revealed in theoretical and practical research, identifying social-psychological factors that develop the qualities of a perfect person in students, in which the communication, emotional and personal qualities of a psychologist are manifested. study of growth and development; it is revealed that the education of a perfect person is directly related to the continuous education system.

AIM: It consists of determining the manifestation of factors of socio-psychological competence in the work of a psychologist by assessing specific aspects of the upbringing of a perfect personality in the educational process and developing practical recommendations based on their mutual development. It consists of determining the manifestation of factors of socio-psychological competence in the work of a psychologist by assessing specific aspects nurturing a perfect personality in the educational process and developing practical recommendations based on their mutual development.

MATERIALS AND METHODS: Sufism and the idea of a perfect person occupy a special place in Islamic psychology. Analyzing the scientific research works aimed at studying the fact that a perfect person is the result of a socio-psychological process and the problems related to it, the history of Sufism, the role of women in Sufism and, most importantly, many social- we paid special attention to the theoretical interpretation of psychological characteristics. Based on the analysis of several

scientific literature, we can see that there are different approaches by researchers to explain that a perfect person is the result of a socio-psychological process.

We can see that a perfect person is the result of a socio-psychological process, not only in social and Islamic psychology, but also in the practice of many psychological sciences. In the scientific literature, the idea of the perfect person and the issues related to it have been expressed in many ways, and the evaluation of the socio-psychological criterion of the effectiveness of educating the perfect person as a new field in the means of continuous education is a perfect level of scientific methodological development not yet accepted.

Our observations and the analysis of the fundamental literature related to the topic of the study of the unique result of the socio-psychological process of the perfect human being deal with the topics of Sufism, sects, Naqshbandi, hojagon, nafs, stages of self-cultivation, and the topics of the perfect human being. requires paying special attention to the views of scholars.

When we say that a perfect person is a unique result of a socio-psychological process, it is correct to understand that: in any society, the ideal of a perfect generation and a perfect person is glorified. It is formed directly depending on every sector of the society. In particular, the importance of the education system in this regard is very high.

CONCLUSION: A perfect person first of all shows the need of the society, that is, the social environment, and also shows the spiritual and psychological landscape of the society. It is connected to each other like a chain. That is, if the teaching process is organized using the ideas of Sufism in the educational system, the education of a perfect person can be so effective. And this will improve both the social and psychological environment of the society.

In the system of continuing education, using the scientific works of Sufism, sects, and the perfect man by Eastern and Western scientists, various methodological manuals, new developments, non-traditional forms of lessons are organized, and that the perfect man is a unique result of the socio-psychological process. is proved.

Key words: perfect person, Sufism, Tariqat, Naqshbandiyyah, Khojagon, Nafs, stages of Nafs education.

*O*zbekistonda so'nggi yillarda ma'naviyat sohasida ko'pgina islohotlar olib borilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash maqsadi ta'lim, pedagogika, psixologiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarga katta mas'uliyat yuklaydi. Buning psixologiya bilan bog'liqligi shundaki, komil insonni tarbiyalash tasavvufga oid masala bo'lib, bu bevosita islom psixologiyasi sohasi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 19- yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha jonli efirda videoselektor yig'ilishida "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning

joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" degan fikrlari orqali mamlakatimizdagi ma'naviy islohotlarga yo'l ochib berdi go'yo. Undan so'ng ham ko'pgina tadbirlar, yig'ilishlarda bu kabi chaqiruvlar jarangladi. Masalan, 2023 yil 22 dekabrda bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida jumladan shunday deyiladi: "Tarixdan ma'lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur". Prezident 9 ta yo'nalishda o'z fikrlarini bildirib, muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Avvalo, ma'naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyani rivojlantirish bo'yicha alohida dastur-hujjat ishlab chiqish lozimligi ta'kidlandi. Ba'zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi qo'yish, dunyoviy qadriyatlarni harom deb bilish holatlari afsus bilan qayd etildi. Prezident bu o'rinda Ibrat domlaning «Ulamo g'ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur», degan hikmatli so'zlarini yodga oldi. Ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelgan yurtdoshlarimiz ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerakligi aytiladi.

Ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor izchil davom ettiriladi. Bu borada ham tenglik ta'minlanishi, xususan, qiz bolalarning o'qishi va kasb-hunar egallashi jamiyat rivojida muhim ekani alohida ta'kidlandi. Bundan bilishimiz mumkinki, ma'naviy islohotlar, komil insonni tarbiyalash umummilliy maqsadga aylanib ulgurdi. Bu maqsadni amalga oshirishda esa biz yurtboshimiz aytganlaridek, boy tariximizga, mutafakkir ota bobolarimizning qoldirgan ilmiy merosiga, muqaddas dinimiz Islom qanotlarida ostida yuzaga kelib, insonlarga har tomonlama ko'makchi bo'lgan Tasavvufga suyansak bo'ladi.

Tasavvuf islomning poklanish, ravshanlik va ichki g'alabaga erishish maqomidir. U maktab, tafakkur, adabiyot, san'at, axloq va tarbiya kabi tushunchalar bilan o'zaro bog'langan.

Tasavvuf Sharq ma'naviyati tarixida muhim o'rin egallab kelgan tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko'rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrati Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon razyallohu anhu zamonlarida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfar bilan qarindosh-urug'lar, yaqin do'st-birodarlarni siylash rasm bo'ladi. Ummaviya xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj

oldi. Ya'ni diniy mashg'ulotlar, Xudo yo'lidagi toat-ibodat o'rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular orasida hadis to'plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo'lib, uy-joy, mol-mulkka e'tibor qilmagan sahobalar ham bor edi. Bularning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga o'tlangan bo'lsalar, ikkinchi qismi esa, qanoat va zuhdni («zuhd» so'zidan «zohid» so'zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va sarvatdorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanganlar. Kufa, Bag'dod, Basra shaharlarida tarkidunyo qilgan zohid-lar ko'p edi, aytish kerakki, ularning obro'-e'tibori ham xalq orasida katta bo'lgan. Chunonchi, Uvays Qaraniy (VII asr), Hasan Basriy (642–728) kabi yirik so'fiylar aslida zohid kishilar edilar, shuning uchun bu zotlarning nomi shayxlar va so'fiylar haqidagi tazkiralarda zohid sifatida tilga olinadi, ba'zi mualliflar esa ularni so'fiylar qatoriga qo'shmaganlar ham.¹³⁴

Tasavvuf jozibali, serqirra va sirli bir ta'limotdir. Tasavvuf-Allohni har on zikr qilish, zuhd sohibi bo'lish, gunohlardan saqlanish, zohiriy tashqi ko'rinish bilangina emas botiniy jihatdan, qalban ham har jihatdan go'zal, ham so'zda, ham amalda bir xil bo'lishdir. Tasavvufning boshdan oxir odob-axloq, qalb pokligi, ma'rifat sohibi, chin insoniy go'zallik deb ta'riflanishida ham katta ma'no bor. "Tasavvuf xudbinlik emas, insoniyatga g'amxo'rlik, rahmdillik, muhabbat va xizmatdir. So'zamonlik emas, samimiyat, ixlos va hikmatdir. Ko'ngil pokligi, ma'rifat yuksakligi va amali solih ishlab chiqarish korxonasidir. Razil emas, go'zal holdir. Toshga gul, zaharga asal, ko'zlarga nur, ko'ngillarga sururdir. Tasavvuf dallini valiy qilar, yaramasni yuvosh qilar, toshbag'irni mehriy qilar, rahmsizni mehribon qilar, g'ofilni zulmatdan nurga chaqirar, daryoda cho'kayotganni salomatlik sohiliga eltar, johilni tarbiyalar, cho'li-biyobonlarni irfon soylari ila jo'shtirar, yashartirar, insonni xalqqa marg'ub va maqbul qilar, haqqa ham mahbub qilar, oqibat tuproqdan paydo bo'lgan insonni malak darajasiga ko'tarar, rahmonning huzuriga layoqatli qilar. Tasavvuf soyasida banda g'aflatdan xolos bo'lur, mo'minlarning basirat ko'zi ochilgay, dunyo sevgilisi tufayli harob bo'lgan qalblar Alloh sevgisi bilan tirilgay. Ma'naviy zulmatlar tarqalib inson botini va zohiri nurga to'lgay. Mo'minga zindon hukmidagi bu ko'hna dunyo haqiqiy gulistonga aylanadi". Tasavvuf falsafiy ta'limotining mohiyati insonga xizmat qilish, uning mafaatlarni yoqlashdir. Unda aytilishicha, insonni tashqi faoliyati (mehnati) ichki ruhiyatiga salbiy ta'sir etmaydi, ya'ni xudoga bo'lgan e'tiqodini o'zgartirmaydi yoki unga to'sqinlik qilmaydi.

Tasavvuf ta'limotiga ko'plab xorijiy islomshunos va tasavvufshunos olimlar turlicha ta'riflar berishga harakat qilganlar. Jumladan, taniqli ingliz olimlari A.Arberri va J.Trimingemning tasavvuf tushunchasini yoritib berishga uringanligi ilm ahliga ma'lum. A.Arberri tasavvuf va islom diniga oid bir qancha yirik asarlar qoldirdi. A.

¹³⁴ Najmiddin Komilov, "Tasavvuf", 9 – bet

Arberri tasavvuf soʻzining maʼnosini berar ekan, uni “qattiq jun mato”, yaʼni “soʻf” dan kelib chiqqan deb, oʻsha kiyimni kiyganlarni esa bu dunyodan ixtiyoriy ravishda voz kechganlar sirasiga kirishini aytadi.¹³⁵

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Tasavvuf haqida tasavvur” kitobidagi ayrim taʼriflarni keltirib oʻtadigan boʻlsak, olim tasavvufning “suffa”, “sof”, “safo” va “suvf” soʻzlariga bogʻlangan fikrlarni ilmiy asoslaydi, shuningdek, qadimda koʻp ibodat qiladiganlarni Sufa ibn Udd ibn Tolbixaga nisbat berganlari uchun oʻsha kishining ismi bilan bogʻliq fikrlar ham borligini qayd etadi. Biroq ularning “suvf” soʻzidan boshqasini inkor etib: “Sufiy” soʻzi arabcha suvf-jun soʻzidan olingan, deydi koʻpchilik bohislar. Avvalo, lugʻat jihatdan bu ism juda toʻgʻri keladi. Qolaversa, koʻp ibodat qilishga berilgan kishilar kiyimni ham juda soda kiyganlar. Odatda ularning kiyimlari faqat jundan boʻlgan deyishadi ular.¹³⁶

F.A.Toluk tasavvufni “kohinlar avlodi” dan keib chiqqan deb yozadi. Keyinroq bu isbot qilib boʻlmaydigan gipotezani rad etib, soʻfiylikning islomga bogʻliq taʼlimot ekanligiga amin boʻladi.¹³⁷ Ushbu fikrni qoʻllab-quvvatlovchi xorij olimlari A.Nikolʼson, L.Massignon, A.Arberri, J.Trimingem, A.Shimmel va boshqalardir.

Tasavvuf – bu eng avvalo Komil inson haqidagi taʼlimotdir, bu insonning ruhiy meʼyorga erishishi haqidagi hamda beqaror oʻzgaruvchan holatdan barqaror holatga oʻtuvchi, rivojlanish, takomillashish darajalariga yetaklovchi taʼlimotdir. Insonning oʻz maʼnaviy olamini shakllantirish va boshqarish uning oʻzidan katta matonat, mehnat va iroda talab etadi. Tasavvuf aynan inson qalbini ezgulikka yetaklovchi taʼlimotdir. “Komil inson – dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallagan, surati va siyrati saranjom, odob va adabda benuqson, fayz-u karomatda serob, ruhi Mutloq ruhga tutash, qalbi ezgu tuygʻularga tutash zotdir”, deb taʼrif berdi Ibn Sino. Har uchala tasnifda ham bir maʼno Komil Inson - insoniylik mezoni” ekanligi uqtirilganiga amin boʻlamiz.

Tasavvuf tarixida shuningdek, ayollarning ham taʼsirli oʻrni va ahamiyati bor. Hadija, Oisha, Ummu Salama, Fotima, Zaynab, Robiya kabi zohid sahobiya va tobein ayollar Masjid an-Nabaviyning doimiy xodimlari edi. Tazkiralarda yana koʻplab tilga olingan olimlar, faqihalar, orifa ayollar bor. III asrdan boshlab Xuroson islom sivilizatsiyasining markaziga aylandi. Ular orasida Xuroson zohida ayollari muhim oʻrin tutadi. **Aniza Bagʻdodiy, Fotima Dimashqiyya, Abada va Amina, Fotima Ummü'l-Yaman, Fotima-i Juvayriya, Umm-i Horun-i Dimashqiy, Robiya binti Ismoil** kabi oʻsha asrdagi zohida ayollar soni kam emas. Zohidlik davrida zohid-soʻfiy ayollarning markazlari boʻlgan Basra va Damashq oʻrnini Xuroson egalladi. Ular ketib, davrning islom oʻlkalarida tasavvufning uruvchi yuragiga aylandilar.

Shuningdek, Nishopurning soʻfiy shayxlari oʻz xonadon va uylarini ayollarga ochdilar. Ibn Nusayd, Hamdun-i Kassor, Haddod-i Nishoburiy, Xiriy va

¹³⁵ Qahramon Ismoilov, “Xorijda tasavvuf taʼlimotining oʻrganilishi”, 5-bet

¹³⁶ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, “Tasavvuf haqida tasavvur”, 31-33-bet

¹³⁷ Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadur: falsafiy-maʼrifiy asar// Soʻzboshi muallifi va masʼul muharrir N.Komilov. – T.: Mehnat, 2001

Nasrobodiyalar soʻfiy ayollar, ularning yigʻilishlarida suhbatlar oʻtkazdilar. Xurosonning soʻfiy ayollaridan baʼzilari otasi, eri yoki oʻgʻli sharafiga nomlangan. **Fahriyya, Fotima, Umm-i Abdulloh, Oisha-i Marvaziy, Umm-i Husayn, Oysha-i Hiri, Umm-i Ahmed, Oisha-i Nishoburiy va Umm-i Ali** shular jumlasidan edi. **Sarira Sharqiyya, Aziza Haravi, Amatu'l-Aziz, Imra Fargʻoniya, Fotima Hijafiya, Fotima Bardiyya, Bahriyya** kabi oʻz ismlari bilan atalgan soʻfiy ayollar ham bor edi. **Fotima binti Imron, Abdusa Damgʻoniy, Amina Marjiyya va Fotima Hangohiyya** oʻzlarini soʻfiylik va hangoh xizmatiga bagʻishlagan donishmand ayollardir. **Fotima-i Nishoburiy va Vahtiyya Umm-i Fazl** oʻz davrining buyuk soʻfiy ayollaridir.

Ayollarni bu mavzuda tilga olishimizga sabab, aynan ular yangi avlodning tarbiyalovchilaridir. Yaʼni har bir bola, oilada tugʻilib, voyaga yetadi. Uning tarbiyasi, axloqiy, jismoniy shakllanishi esa koʻproq onaga bogʻliq. Shunday ekan, tasavvuf sohasida faoliyat yuritgan zohida, sufiy ayollar haqida bilib qoʻyishimiz ham foydadan xoli emas. Ularning hayot tarzi, aytgan soʻzlari, hikmatlarini hayotimizga tadbiq qilsak, biz tarbiyalayotgan farzandlar ham komil boʻlib yetishadi.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, komil insonni tarbiyalash bu – ijtimoiy va psixologik jarayonlarning natijasidir. Yaʼni, jamiyatdagi islohotlar, jamiyat aʼzolarining ruhiy, psixologik holatlaridan kelib chiqib komil insonni tabiyalash bugungi kunning muhim zarurati desak boʻladi. Bu vazifani hal etishda tasavvufni, tasavvuf namoyondalari taʼlimotlarini pedagogika, taʼlim tizimi, psixologiya sohalari bilan uygʻunlashtira olsak, ancha samarali natijalarga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. N.Komilov. "Tasavvuf " T.: "Yozuvchi" 1996 –y
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. " Tasavvuf haqida tasavvur" T.: "Movarounnahr" 2004
3. Qahramon Ismoilov, "Xorijda tasavvuf taʼlimotining oʻrganilishi"
4. Aleksandr Knish, "Musulmon tasavvufi", "Fan ziyosi" nashriyoti, 2022 yil
5. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadur: falsafiy-maʼrifiy asar// Soʻzboshi muallifi va masʼul muharrir N.Komilov. – T.: Mehnat, 2001
6. Ömer Faruk Harman, "Kadın", İslam Ansiklopedisi, TDV Yayını, İstanbul 2001, 82
7. Abdürrahman-ı Câmî, Nefehâtu'l-üns
8. İbnü'l-Cevzî, Sıfatü's-safve

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Najmidinova Guzal Axlitdinovna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
 Manzil; O'zbekiston 200100, A.G'ijduvoni ko'chasi

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2-son (2024-yil, may) Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan	Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Original maket uchun mas'ul: Mirshod SATTOROV Maqolalarni qabul qiluvchi: Ziyodullo ELOV	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 18.05.2024 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 12,25 Adadi – 10 nusxa Buyurtma № 5 Bahosi kelishilgan narxda. “BUXORO” DETERMINANTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy.
---	--	---

<https://scientificjournal.uz/>



ISSN

ISSN 3030-3796